


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**



**JO'SHQIN BALTABAYEVICH BALTAYEV
XALIMA YUNUSOVNA ABASXANOVA
YARONOVA NATALYA VALEREVNA**

RADIOALOQANING MIKROPROTSESSOR QURILMALARI



DARSLIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

JO'SHQIN BALTABAYEVICH BALTAYEV
XALIMA YUNUSOVNA ABASXANOVA
YARONOVA NATALYA VALEREVNA

RADIOALOQANING MIKROPROTSESSOR QURILMALARI

DARSLIK

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlarining 5350700 – “Radioelektron qurilmalar va tizimlar” (temir yo'l transporti) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

Toshkent–2023

UO*K 004.312:621.37(075)

KBK 32.973.26-04

B 26

Baltayev J.B. va boshq.

Radioaloqaning mikroprotessor qurilmalari. Darslik. J.B. Baltayev, X.Yu. Abbasxanova, N.V. Yaronova. – T.: “Nodirabegim” nashriyoti, 2023-y. – 348 b.

Taqrizchilar: J.F. Kurbanov – t.f.d. dotsent, Toshkent davlat transport universiteti;
A.A. Yarmuxavedov – t.f.n. dotsent, Toshkent davlat texnika universiteti “Radiotexnik qurilmalar va tizimlar” kafedrası

Uslubiy darslik hozirgi kundagi ishlatilayotgan radioaloqaning mikroprotessor qurilmalari, radioaloqaning raqamli texnika asoslari, radioaloqa signallarga raqamli ishlov berish sxemalari, mikroprotessor tizimining strukturaviy asosi, mikroprotessor tizimining ishlash prinsipi, mikrokontrollerlarning ishlash prinsipi va dasturiy ta'minoti keltirilgan. Mikroprotessor va mikrokontrollerlarning ichki strukturasi, algoritmlarini, dasturlashlari va ular orqali osongina tushunish mumkin.

Ushbu kitob darslik sifatida Toshkent davlat transport universitetining “Radioelektron qurilmalar va tizimlar” (temir yo'l transporti) ta'lim yo'nalishlari bakalavriat talabalari va professor-o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

В данной книге представлены используемые в настоящее время микропроцессорные устройства радиосвязи, основы цифровой техники радиосвязи, схемы цифровой обработки сигналов радиосвязи, структурная основа микропроцессорной системы, принцип работы микропроцессорной системы и программное обеспечение микроконтроллеров. Доступно объяснена внутренняя структура, алгоритмы, а также, программирование микропроцессоров и микроконтроллеров.

Эта книга предназначена в качестве учебника для студентов бакалавриата по направлению «Радиоэлектронные устройства и системы» (железнодорожный транспорт) и для преподавателей Ташкентского государственного университета транспорта.

The textbook presents the currently used microprocessor radio communication devices, the basics of digital radio communication technology, digital signal processing schemes of radio communication, the structural basis of the microprocessor system, the principle of operation of the microprocessor system, the principle of operation and software of microcontrollers. The internal structure, algorithms, programming of microprocessors and microcontrollers and through them is easy to understand.

This book is intended as a textbook for undergraduate students "Radioelectronic devices and systems" (railway transport) and for teachers of the Tashkent State University of Transport.

O'zbekiston Respublikasi Toshkent davlat transport universitetining 2022-yil “30” dekabrda “322-У”-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9943-7806-0-6

© Toshkent davlat transport universiteti, 2023

© “Nodirabegim” nashriyoti, 2023

KIRISH

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qoʻllagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish Oʻzbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yoʻlida tez va sifatli ilgarilashini taʼminlaydigan zamonaviy innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, oʻtkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini koʻrsatdi. Xususan, bu borada koʻplab koʻrsatkichlarning mavjud emasligi va ishlar samarali muvofiqlashtirilmagani sababli mamlakatimiz soʻnggi yillarda nufuzli va obroʻli xalqaro tuzilmalar tomonidan tuziladigan Global innovatsion indeks reytingida ishtirok etmayapti. Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining ilmiy muassasalar bilan oʻzaro hamkorligi darajasi pastligi, vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmayotgani bu boradagi birinchi navbatdagi maqsadlar va vazifalarga erishish imkonini bermayapti. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta koʻrib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-2909-son qaroroi qabul qilindi. Mazkur qaror bilan oliy taʼlim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy taʼlim 4 muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy oʻquv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash boʻyicha Oliy taʼlim tizimini 2017-2021-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Tasdiklangan konunlarni bajarish jarayoni infokommunikatsion texnologiyalarni Oʻzbekistonda

rivojlanishning tegishli qonunlarni bajarish uchun keng yo‘l ochib berdi. Mavjud davrda O‘zbekistondagi telekommunikatsion aloqa tizimlariga juda katta masshtabdagi ishlarni bajarishga olib kelmoqda. Bu esa aholiga turli telekommunikatsion xizmatlarni yuqori saviyada amalga oshirishga olib kelmoqda. Yangi texnologiyalar kiritish sharoitida mutaxassislar oldida texnologiya jarayonlarini o‘rnatish tarkibiy qismlarini qo‘llanilishi, zamonaviy texnologiyalar asosida tarmoq yaratish kabi masalalari tadqiqoti dolzarb desa bo‘ladi. Tasdiqlangan qonunlarni bajarish jarayoni infokommunikatsion texnologiyalari O‘zbekistonda rivojlanishning tegishli qonunlarini bajarish uchun keng yo‘l ochib berdi. Bu O‘zbekistondagi telekommunikatsion aloqa tizimlariga juda katta masshtabdagi ishlarni bajarish, aholiga turli telekommunikatsion xizmatlarni yuqori saviyada amalga oshirishning muxim omillaridir.

1-BOB. RADIOALOQANING RAQAMLI TEXNIKA ASOSLARI

1.1. Yarim o'tkazgichli xotira qurilmalari


Zamonaviy elektronika qurilmalari yarim o'tkazgichli materiallardan tayyorlanadi. Yarim o'tkazgichlar kristall, amorf va suyuq bo'ladi. Yarim o'tkazgichli texnikada asosan kristall yarim o'tkazgichlar (10^{10} asosiy modda tarkibida bir atomdan ortiq bo'lmagan kiritma monokristallari) qo'llaniladi. Odatda yarim o'tkazgichlarga solishtirma elektr o'tkazuvchanligi σ metallar va dielektriklar oralig'ida bo'lgan yarim o'tkazgichlar kiradi (ularning nomi ham shundan kelib chiqadi). Xona temperaturasida ularning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi 10^8 dan 10^5 gacha Sm/m (metrga Simens)ni tashkil etadi. Metallarda $\sigma = 10^6 - 10^8$ Sm/m, dielektrlarda esa $\sigma = 10^{-8} - 10^{-13}$ Sm/m. Yarim o'tkazgichlarning asosiy xususiyati shundaki, temperatura ortgan sari ularning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi ham ortib boradi, metallarda esa kamayadi. Yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi yorug'lik bilan nurlantirish va hatto juda kichik kiritma miqdoriga bog'liq. Yarim o'tkazgichlarning xossalari ***qattiq jism zona nazariyasi*** bilan tushuntiriladi.

Har bir qattiq jism ko'p sonli bir-biri bilan kuchli o'zaro ta'sirlashayotgan atomlardan tarkib topgan. Shu sababli bir bo'lak qattiq jism tarkibidagi atomlar majmuasi yagona tuzilma deb qaraladi. Qattiq jismda atomlar bog'liqligi atomning tashqi qobig'idagi elektronlarni juft bo'lib birlashishlari (valent elektronlar) natijasida yuzaga keladi. Bunday bog'lanish ***kovalent bog'lanish*** deb ataladi.

Atomdagi biror elektron kabi valent elektron energiyasi W ham diskret yoki kvantlangan bo'ladi, ya'ni elektron ***energetik sath*** deb ataluvchi biror ruxsat etilgan energiya qiymatiga ega bo'ladi. Energetik sathlar elektronlar uchun ta'qiqlangan energiyalar bilan ajratilgan. Ular ***ta'qiqlangan zonalar*** deb ataladi. Qattiq jismlarda qo'shni elektronlar bir-biriga juda yaqin joylashganligi uchun, energetik sathlarni siljishi va ajralishiga olib keladi va natijada ***ruxsat etilgan energetik zonalar*** yuzaga keladi. Energetik zonada ruxsat etilgan sathlar soni kristaldagi atomlar soniga teng bo'ladi. Ruxsat etilgan zonalar kengligi odatda bir necha elektron – voltga teng (elektron – volt – bu 1V ga teng bo'lgan potentsiallar farqini yengib o'tgan elektronning olgan energiyasi). Ruxsat

etilgan zonadagi minimal energiya sathi tubi (W_c), maksimal energiya esa shipi (W_v) deb ataladi.

1.1-rasmda yarim o'tkazgichning zona diagrammasi keltirilgan. Ta'qiqlangan zona kengligi DW_t yarim o'tkazgichning asosiy parametri bo'lib hisoblanadi.



1.1-rasmda yarim o'tkazgichning zona diagrammasi keltirilgan.

Elektronikada keng qo'llaniladigan yarim o'tkazgichlarning ta'qiqlangan zona kengliklari DW_t (eV) quyidagiga teng: germaniy uchun – 0,67, kremniy uchun – 1,12 va galliy arsenidi uchun -1,38.

Dielektrlarda ta'qiqlangan zona kengligi $DW_t \geq 2$ eV, metallarda esa ruxsat etilgan zonalar bir – biriga kirib ketgan bo'ladi, ya'ni mavjud emas.

Yuqoridagi ruxsat etilgan zona ***o'tkazuvchanlik zonasi*** deb ataladi, ya'ni mos energiyaga ega bo'lgan elektronlar, tashqi elektr maydoni ta'sirida yarim o'tkazgich hajmida harakatlanishlari mumkin, bunda ular elektr o'tkazuvchanlik yuzaga keltiradilar. O'tkazuvchanlik zonasidagi biror energiyaga mos keladigan elektronlar ***o'tkazuvchanlik elektronlari*** yoki ***erkin zaryad tashuvchilar*** deb ataladilar. Quyidagi ruxsat etilgan zona ***valent zona*** deb ataladi.

Absolyut nol temperaturada (0 K) yarim o'tkazgichning valent zonasidagi barcha sathlar elektronlar bilan to'lgan, o'tkazuvchanlik zonasidagi sathlar esa elektronlardan xoli bo'ladi.

Manzilli xotira qurilmalarining strukturasi. Ketma ket kirishga ega bo'lgan xotira qurilmalarining strukturasi.

Xotira qurilmalari (XQ) ikkilik sonlar ko‘rinishida ifodalangan ma‘lumotni saqlash uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Bunday ma‘lumot XQ kiritiladi (yoziladi) va zarur paytda undan tanlanadi (o‘qiladi).

Xotira qurilmasi – elektron raqamli hisoblash mashinalarning asosiy funksional birikmalaridan biri bo‘lib, unda ular ustida ma‘lum amallar bajarilishi lozim bo‘lgan sonlar va ushbu amallar xarakterini aniqlovchi buyruq kodlari saqlanadi.

Boshida faqatgina elektron raqamli hisoblash mashinalarida ishlatuvchi xotira qurilmalari endi avtomatikada, radolokatsiyada, televideniya, aloqa qurilmalarida, o‘lchov texnikasida, maishiy elektron asboblarida keng qo‘llaniladi. Misol uchun, xotira qurilmalari radiopriyomniklarning dasturiy boshqaruv sistemalarida ishlatiladi. Bunda XQ ga buyuruqlar kodi (priyomnikning yoqilishi, uning boshqa stantsiyalarga sozlanishni, magnitafon ulanishi va boshqalar), shuningdek ushbu komandalar ijro etilishi bo‘lgan vaqt kodlari kiritiladi. Joriy vaqt (sistemaga elektron soat kiradi) XQ kiritilgani bilan mos tushsa, ushbu buyruq bajariladigan chiqishlaridan birida signal paydo bo‘ladi.

Bu paragrafda ixtiyoriy tanlovli XQ tariflanib, ular uchun ixtiyoriy elementlar ma‘lumotlarning yozilishi va o‘qilishi ixtiyoriy vaqt momentlarida amalga oshirilishi mumkin. XQ da ketma-ket murojaat bilan ma‘lumot aniq bir ketma-ketlikda tanlanadi. (Tashqi xotira qurilmasi elektron raqamli hisoblash mashinasi *EKHM*).

Xotira qurilmasi, xotira massivdan va elektron qobiqdan iborat bo‘ladi. *Xotira massivi* (to‘plovchi) xotira elementlariga (XE) ega bo‘lib, ularning har biri 1 bit ma‘lumotni saqlab, mantiqiy 1 yoki mantiqiy 0 holatini qabul qiladi.

Xotira elementida yozilgan ikkilik so‘zining bir razryadi saqlanib, barcha n – razryadli so‘z xotira yacheykasining tarkibiy qismi bo‘lgan n ta xotira elementlarida yoziladi. Unga to‘plagichdagi bu yacheyka holatini belgilovchi aniq manzil mos keladi. So‘zning yozilishi va o‘qilishi (XQ murojaat), yacheyka holatini belgilovchi manzil bo‘yicha amalga oshiriladi. Xotira elementlari ikkita turg‘un holatga ega bo‘lishi lozim. Bunday elementlar safiga to‘g‘riburchakli gisterezis sirtmoqli ferromagnit asoslar (magnit XQ) va triggerlar (ya‘ni o‘zgarishga ega bo‘lgan XQ) kiradi.

Elektron qobiq xususan, manzil deshifраторlaridan va yozilish bilan o‘qilish kuchaytirilgichlardan tarkib topgan bo‘ladi. Deshifратор

kirishlariga kelib tushuvchi manzil kodi, uning chiqishlaridan birini ta'sirlantiradi, bu bilan aniq bir XE ga so'z yozilishiga yoki ulardan birining o'qilishiga ruxsat beradi.


Xotira qurilmasining (XQ) ko'pgina parametrlaridan, informat-sion sig'im va tezkorligiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Informatsion sig'im – to'planishdagi xotira elementlari miqdori bilan aniqlanadi va saqlanuvchi ma'lumot bit soni bilan baholanadi. Yirikroq sig'im o'lchovlar birliklari bayt (8 bitga ega) bilan o'lchanadi, kilobit ($kbit=2^{10}=1024$ bit), kilobayt, megabit ($Mbit=2^{20}$ bit), megabayt.

XQ tezkorligi – to'liq sikldagi murojaatlar vaqti, ikkita ketma-ket xotira qurilmasi murojaatlari orasidagi minimal ruxsat etilgan vaqt bilan baholanadi. Ishlash prinsipi va yozilgan ma'lumotni ishlatish bo'yicha XQ , operativ (OXQ) va doimiy (DXQ) larga bo'linadi.

Xotira elementi. Bir koordanatali XQ bir qismi 1.2-rasmda tasvirlangan. U bir so'zning ikki razryadini saqlash uchun, ikkita xotira elementlaridan iborat bo'ladi.

Bevosita aloqali bipolyar tranzistor asosidagi xotira elementi bo'lib trigger hisoblanadi. Agar $VT1$ tranzistor ochiq bo'lsa, xotira elementiga 0 yo'zilgan deb qabul qilamiz va shu bilan birga $VT2$ yo'piq bo'ladi. $+E_k$ dan $-E_k$ ga ("yerga") triggerning ochiq tranzistori orqali tok, emitter zanjiri orqali o'tishi mumkin. Sxema bo'yicha yuqoridagi emitterlar, razryad shinalarga ulangan bo'ladi, pastkilari manzilli shinalarga bog'langan va ularga chiqarilgan bo'ladilar. Ko'rib chiqilayotgan XE kiradigan yacheykani tanlashda, ushbu manzilli shinasi qo'zgatiladi – uning potentsiali oshadi va pastki emitterlar orqali o'tuvchi tok zanjiri uziladi.



1.2-rasm. Bir koordinata tanlamali xotira qurilmasining xotira elementlari.

Saqlash rejimida XE tanlanmaydi, manzilli shina past potensialga, razryadlilari esa – yuqoriroq potensialga ega bo‘ladi. Shuning uchun, ochiq tranzistor toki pastki emitter orqali manzilli shinalarga va undan “yerga” yo‘nalgan bo‘ladi.


Yozilish rejimida yacheyka xotira elementlarining tanlamasi amalga oshirilib, berilgan manzil shinasu yuqori potensialga ega bo‘ladi, va ochiq tranzistorning toki faqatgina razryadli shinaga oqib o‘tishi mumkin. Ushbu XE yoziluvchi ikkilik o‘zgaruvchisining va yo‘zilish ruxsat beruvchi signalning kirishda paydo bo‘lishi bilan, bir razryadli shina (masalan, ShR1) yuqori potensialni qabul qiladi, boshqasi (shina Sh R1) invertor hisobiga – quyi (past) potensialga ega bo‘ladi. Agar bungacha, trigger 0 ($VT1$ ochiq) holatda bo‘lgan bo‘lsa, endi 1 ($VT2$ ochiq) holatiga o‘tadi.

O‘qilish rejimida, yana xotira elementlari yacheykasi tanlamasi amalga oshiriladi, manzilli shina yuqori potensialni qabul qiladi,

razryad shinasini bo‘yicha o‘qish kuchaytirgichning kirishlaridan biriga oqib o‘tadi. Uning chiqishida, $VT2$ ochiq bo‘lsa mantiqiy 1 hosil bo‘ladi va agarda $VT2$ ochiq bo‘ladigan bo‘lsa, mantiqiy 0 paydo bo‘ladi.


Bundan oldingiga o‘xshash ikki koordinatali tanlamali (1.3-rasm) XQ uchun, xotira element uch emitterli transistor asosidagi triggerdan iborat bo‘ladi. Har bir tranzistorning uchinchi emitterlari, ikkinchi manzilli shinaga ulangan va chiqarilgan bo‘ladi.

XQ xotirasini oshirish. Zaruriyat tug‘ilganda XQ mikrosxemalarni birlashtirish mumkin, bu bilan xotira sig‘imini oshirish mumkin bo‘ladi. Buning uchun, ular maxsus chiqishga “qobig‘ tanlovi” (QT) ega bo‘lishi kerak.




1.3-rasm. Ikki koordinata tanlamali xotira qurilmasining xotira elementi.

64 ta to‘rt zaryadli so‘z (256 bit) sig‘imiga ega XQ tuzilish sxemasi 1.4-rasmda keltirilgan. U har biri 16 to‘rt razryadli so‘zlar sig‘imiga ega bo‘ladi. Mikrosxemalarning barcha sonlarni yo‘zish shinalari ketma-ket ulangan bo‘ladi. Shunga o‘xshash tarzda, sonlarni o‘qish va manzil shinalari o‘zaro ulangan bo‘ladi. Har bir XQ yacheykasi mikrosxema raqamiga mos bo‘luvchi manzilga ega bo‘lib, unda yacheyka, shuningdek uning mikrosxema ichidagi joylashishi ko‘rsatilgan bo‘ladi.



1.4-rasm. Sig'imi 256 bit bo'lgan xotira qurilmasi

Shuning uchun aniq yacheyka tanlamasini amalga oshirish uchun “qodig‘ tanlovi” shinasiga mikrosxema raqami kodini o‘rnatish kerak, manzilli shinalarda esa mikrosxema raqami kodini, ichidagi yacheyka manzili kodini o‘rnatish kerak bo‘ladi. Keltirilgan sxemaga asosan, so‘zni yo‘zilishi “Yo‘zish” shinasidagi signal bo‘yicha amalga oshiriladi, so‘z o‘qilishi esa “o‘qish” signaldagi signal bo‘yicha amalga oshiriladi. 1.5-rasmda 16 ta o‘n olti razryadli so‘zlarni (XQ sig‘imi – 256 bit) saqlash maqsadida, o‘sha mikrosxemalarning birikmasi ko‘rsatilgan.



1.5-rasm. O‘n olti razryadli so‘zni saqlash uchun mikrosxemani birlashnirilishi.

Bu yerda, hamma mikrosxemalarning manzilli shinalari, shuningdek qo‘big tanlovi shinalari birlashtirilgan bo‘ladi. Birinchi mikrosxemaning kod yozilish signalida yozuvchi sonining birinchi to‘rtta razryadi o‘rnatilib, ikkinchi mikrosxemaning o‘xshash shinalariga keying to‘rtta razryad o‘rnatiladi. XQ ishlash jarayonida hamma mikrosxemalarning bog‘langan “KT” shinalariga ruxsat signali uzatiladi.


XQ mikrosxemalari yig‘indi sig‘imga ega bo‘lish va boshqa taqsimot variantlariga ega bo‘lish uchun birlashtiriladi.

Assotsiativ xotira qurilmalarining tuzilmasi.

Odatda xotira qurilmalarida ma‘lumotlarga kirish hujayraning manzilini ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, ma‘lumotni manzil bo‘yicha emas, balki ma‘lumotlarning o‘zida mavjud bo‘lgan ba‘zi xarakterli xususiyatga asoslanib qidirish ancha qulayroqdir. Ushbu printsip assotsiativ xotira qurilmasi (AXQ) deb nomlanuvchi xotiraning asosini tashkil qiladi. Adabiyotda bunday xotiraning boshqa nomlari ham mavjud: kontent manzilli xotira; ma‘lumotlar bilan adreslanadigan xotira (ma‘lumotlarning manzilli xotirasi); parallel qidiruvga ega xotira (parallel qidiruv xotirasi); katalog xotirasi (katalog xotirasi); axborotni saqlash (axborotni saqlash); Belgilangan xotira.

Assotsiativ xotira – bu ma‘lumotlarni saqlash, uni ma‘lum bir namuna bilan solishtirish va ularning bir-biriga mos kelishi yoki nomuvofiqligini ko‘rsatadigan qurilma.

An‘anaviy mashina xotirasidan (tasodifiy kirish xotirasi yoki RAM) farqli o‘laroq, foydalanuvchi xotira manzilini belgilaydi va RAM o‘sha manzilda saqlangan ma‘lumotlar so‘zini qaytaradi, AX foydalanuvchi ma‘lumotlar so‘zini aniqlaydigan va AX uni qidiradigan tarzda yaratilgan. butun xotirada, uning biror joyda saqlanganligini bilish uchun. Agar ma‘lumot so‘zi topilsa, AX so‘z topilgan bir yoki bir nechta saqlash manzillari ro‘yxatini qaytaradi (va ba‘zi arxitekturalarda ma‘lumotlar so‘zining o‘zini yoki boshqa tegishli ma‘lumotlar qismlarini ham qaytaradi). Shunday qilib, AX bu dasturlash nuqtai nazaridan assotsiativ massiv deb ataladigan apparatni amalga oshirishdir.



1.6-rasm. Assotsiativ xotira qurilmalarining tuzilmasi.

AXQ quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- N m-razryadli so‘zlarni saqlash uchun xotira massivi, ularning har birida bir nechta kichik razryadli bitlar xizmat ma‘lumotlari bilan band;
- zarur ma‘lumotlarning kodi (qidiruv belgisi) joylashtirilgan assotsiativ belgi reestri. k registrining bit uzunligi odatda m so‘zining uzunligidan kichikdir;
- Barcha saqlangan so‘zlarning har bir bitini mos keladigan qidiruv bayrog‘i biti bilan parallel ravishda solishtirish va mos keladigan signallarni yaratish uchun mos keladigan sxemalar;
- xotira massivining har bir katagi bitta bitga to‘g‘ri keladigan tasodiflar reestri, unda tegishli katakning barcha bitlari qidiruv atributining bir xil bitlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bittasi kiritiladi;
- ma‘lum bitlarni taqqoslashni o‘chirib qo‘yish imkonini beruvchi maska(niqob) registri;
- registrning mazmunini tahlil qilish asosida ma‘lumot qidirish natijalarini tavsiflovchi signallarni hosil qiluvchi kombinatsiyalangan sxema.

AXQ ga kirishda niqob registridagi bitlar birinchi navbatda nolga o‘rnatiladi, bu ma‘lumotni qidirishda hisobga olinmasligi kerak. Moslik registrining barcha bitlari bittaga o‘rnatiladi. Shundan so‘ng, kerakli

ma'lumotlarning kodi (qidiruv atributi) assotsiativ atribut registriga kiritiladi va uni qidirish boshlanadi, bunda mos keladigan sxemalar bir vaqtning o'zida saqlash massivining barcha kataklarining birinchi bitini qidirish atributining birinchi biti bilan taqqoslaydi. Mos kelmaslikni aniqlagan sxemalar moslik registrining mos bitini nolga o'rnatadigan signal hosil qiladi. Qidiruv jarayoni qidiruv bayrog'ining qolgan maskelanmagan bitlari uchun bir xil. Natijada, birliklar faqat kerakli ma'lumotlar joylashgan kataklarga mos keladigan tasodif registrining bitlarida saqlanadi. Saqlash massividan o'qiladigan manzillar sifatida moslik registridagi birlarning konfiguratsiyasi ishlatiladi. Qidiruv natijalari noaniq bo'lishi mumkinligi sababli, moslik registrining mazmuni kombinatsiyalangan sxemaga beriladi, bu erda izlanayotgan ma'lumotni ko'rsatadigan signallar hosil bo'ladi::

a0 – topilmadi;

a1 – bitta yacheykada joylashgan;

a2 – bir nechta yacheykada joylashgan.

Registr va a0, a1, a2 signallari mazmunini shakllantirish assotsiatsiyani boshqarish operatsiyasi deb ataladi. U o'qish va yozish operatsiyalarining ajralmas qismidir, garchi u mustaqil qiymatga ham ega bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlarni o'qishda, assotsiatsiya birinchi navbatda qidiruv argumenti tomonidan boshqariladi. Keyin, a0=1 bo'lganda, kerakli ma'lumot yo'qligi sababli o'qish bekor qilinadi, a1=1 bo'lsa, moslashuv registridagi birlik tomonidan ko'rsatilgan so'z o'qiladi, a2=1 bo'lsa, moslikdagi eng yuqori birlik o'qiladi. registr qayta o'rnatiladi va unga mos keladigan so'z olinadi. Ushbu operatsiyani takrorlash orqali siz barcha so'zlarni ketma-ket sanashingiz mumkin.

AX dagi yozuv ma'lum bir manzilni ko'rsatmasdan, birinchi bo'sh yacheykada amalga oshiriladi. Bo'sh yacheykani topish uchun o'qish operatsiyasi bajariladi, bunda faqat xizmat bitlari niqoblanadi, bu yacheyka qancha vaqt oldin kirishni ko'rsatadi va bo'sh yacheyka yoki eng uzoq vaqt ishlatilmagan bo'sh yacheyka hisoblanadi.

Assotsiativ xotiralarning asosiy afzalligi shundan iboratki, ma'lumotni qidirish vaqti faqat qidiruv atributidagi raqamlar soniga va raqamlarning so'rov tezligiga bog'liq va saqlash massividagi yacheykalar soniga bog'liq emas.

Doimiy xotira qurilmasi (DXQ). Ma'lumotni o'zgartirishsiz saqlash va faqat uning o'qilish rejimida ishlashi uchun xizmat qiladi.


DXQ bir martali dasturlashga ega bo'lgan va qayta dasturlanuvchi DXQ ga bo'linadilar. Bir marta dasturlanadigan DXQ ma'lumot faqat bir marta, ishlab chiqaruvchi yoki qo'llovchi tomonidan kiritilishi mumkin bo'ladi.

Qayta dasturlanuvchi DXQ , ma'lumot ko'p marotaba o'zgartirilishi mumkin. Biroq bu jarayon ko'p vaqtni egallagani tufayli, operativ hisoblanmaydi.

DXQ ikkilik sonlarni saqlash (standart dasturlarning kodlari), kirish shinalaridagi ma'lum kodlar bo'yicha, ma'lum bir kodlarni, chiqish shinalarida olish talab qilingan holatlarda, belgi generatorlari sifatida ishlatiladi.

Yarim o'tkazgichli DXQ diodli va tranzistorli bo'lishi mumkin.

Diodli matritsa va manzilli deshifratordan tashkil topgan DXQ 1.7-rasmda tasvirlangan. Matritsaning gorizontlar shinalari manzilli, vertikalari esa razryadli hisoblanib, ulardan DXQ yozildan sakkiz razryadli ikkilik sonlari yechib olinadi. Masalan, agar deshifrator chiqishidan ShM2 manzilli shinasi qo'zg'atilsa, u holda mantiqiy 1 diodlar orqali ShR2, ShR6, ShR7, ShR8 razryadli shinalariga o'tadi, ularga yuqori potensial haqida xabar berib turib, chiqishda 11100010 ikkilik sonini o'rnatadi. Shu tariqa, mos manzilli shinalarning qo'zg'atilishi bilan, chiqishda uchta boshqa ikkilik soni o'rnatiladi.




1.7-rasm. Bir matritsali DXQ .

Qayd etamizki, diodli matritsa YO'KI elementlari yig'indisidan iborat deb hisoblanadi. Ulardan har biri razryadli shinalar biriga

ulangan bo‘lib, kirish elementlari manzilli shinalar bo‘lgan diodlardan iborat bo‘ladi.

Ko‘p emitterli tranzistor asosidagi *DXQ* integral mikrosxemasi 1.8-rasmda keltirilgan. MSh manzil shinalaridan birining qo‘zg‘atilishi bilan, bazasi aynan shu shinaga bog‘langan tranzistor ochiladi. Buning natijasida, shu tranzistor emitterlari bilan bog‘langan razryadli shinalar qo‘zgatiladi.



1.8-rasm. Ko‘p emitterli tranzistor tipidagi transistor asosidagi *DXQ*.

DXQ (1.8-rasmga qarang) har biri mos manzilli shinalar qo‘zg‘atilishi bilan razryadli signallarga o‘rnatiluvchi uchta to‘rt razryadli so‘z (1001,0011,1010) yo‘ziladi.

Aytib o‘tilganidek *DXQ* ikkilik kodini boshqasiga aylantirish uchun qayta dasturlangan bo‘lishi mumkin. Shunday aylantirish usullaridan biri shundan iboratki, berilgan kodning har bir kombinatsiyasi, ma‘lum bir shinani qo‘zg‘atib, u chiqish kodi olinadigan ikkinchi bosqichda manzilli deb hisoblanadi.

Kompyuter elektr manbaidan uzilgandan so‘ng, tezkor xotira(OZU)dagi barcha ma‘lumotlar o‘chib ketadi va kompyuter qayta yuklanganda, o‘chgan ma‘lumotlarni qayta tiklab bo‘lmaydi. Shuning uchun ma‘lumotlarni saqlashda, elektr energiyasiga bog‘liq bo‘lmagan, ma‘lumotlarni saqlash qurilmalaridan foydalaniladi. Bu maqolada shu qurilmalar haqida yozmoqchiman.

Barcha tashqi qurilmalar energiyaga bog‘liq bo‘lmagan holda ma‘lumotlarni saqlaydi. Hozirgi kunda barcha tashqi xotira qurilmalari quyidagi turlarga bo‘linadi:

Magnitli saqlash qurilmasi.

Optik saqlash qurilmasi.

Elektr saqlash qurilmasi.

Endi har bir turiga qisqacha to‘htab o‘tamiz.

Magnit saqlash qurilmalari kompyuterga o‘rnatiladigan asosiy saqlash vositasi hisoblanadi. Bu turdagi hotira qurilmasining asosi, ya‘ni barcha ma‘lumotlar magnit asosga ega bo‘lgan materiallarda saqlanadi. Bu turdagi xotiradan, barcha turdagi kompyuterlar (ishchi kompyuterlar, serverlar, portativ kompyuterlar,..) foydalanishadi.

Bu turdagi xotira qurilmasiga quyidagilar kiradi:

- Qattiq disklar (HDD).
- Egiluvchan disklar (floppi disk).
- Magnit lentalar.

Qattiq diskni (vinchester, HDD), kompyuterning asosiy xotirasi deyish mumkin. Bu qurilma kompyuterga bevosita ATA yoki SATA porti orqali ulanadi. Hajmi ham har xil bo‘ladi (250 Gb, 500 Gb, 1 Tb, 2Tb,..). Hajmi qanchalik katta bo‘lsa, narxi ham shunchalik qimmat hisoblanadi. Undan tashqari ma‘lumotlarni o‘qish va yozish tezligi ham narxiga ta‘sir qiladi. Bu xotira turiga yana tashqi qattiq disklar ham kiradi. Ular USB port orqali ulanadi va kompyuterdan elektr manbai oladi. Bu turi katta hajmdagi ma‘lumotlarni olib yurish uchun ishlatiladi.

Egiluvchan disklar hozirgi kunda kamayib ketgan. 1.44 Mb hajmga ega bo‘lib, ma‘lumotlarni bir necha marta o‘qib, yozish uchun ishlatiladi. Unchalik ishonchli emas, magnit plyonkalar ham yupqa bo‘lib, juda tez ishdan chiqishi ehtimoli katta. Tashqi ta‘sirlarga umuman bardoshli emas.

Keyingi magnitli saqlash qurilmasi bu – magnit lentalaridir. Bular asosan server kompyuterlar bilan ishlaganda kerak bo‘ladi. Katta hajmdagi ma‘lumotlarni arxivlash yoki nusxasini olish jarayonida ishlatiladi. O‘qish va yozish tezligi unchalik katta emas, lekin uzoq vaqt davomida saqlash uchun mo‘ljallangan.

Navbatdagi tashqi saqlash qurilmasi bu optik disklar hisoblanadi. Bu diskarga ma‘lumotlar lazer nurlari orqali yoziladi va lazer nurlari orqali o‘qiladi. Optik diskarni quyidagi turlari mavjud:

- Faqat o‘qish uchun mo‘ljallangan disklar: CD, DVD.
- Faqat bir marotaba yozish uchun mo‘ljallangan disklar: CD-R, DVD-R.
- Bir necha marotaba yozish uchun mo‘ljallangan disklar: CD-RW, DVD-RW.


CD disklar 700 Mb atrofida, DVD disklar esa 4.7 Gb atrofidagi ma‘lumotlarni o‘zida saqlay oladi. Bu optik diskarni o‘qish uchun

kompyuterga CD-ROM, DVD-ROM qurilmalari ulanadi. Hozirgi kunda yangi DVD disklari paydo bo'lgan, bular Blu-ray deb nomlanadi va ular ko'k rangdagi lazer orqali ma'lumotlarni yozadi (oddiy optik disklarga qizil rangdagi lazer ishlatiladi). Blu-ray disklarning hajmi 25 Gb dan boshlanadi.

Keyingi tashqi xotira qurilmasi bu – elektr saqlash qurilmasidir. Bu xotira qurilmasida ma'lumotlar, mikrosxemalar orqali yaratilgan va programmashtirilgan xotirada saqlanadi. Bunga misol, flesh-xotiralardir (fleshka). Bu qurilmalar kompyuterga USB port orqali ulanadi. Qurilmaning o'lchamlari kichik va hajmi hozirgi kunda 64 Gb dan ham oshdi. Bu qurilmaning asosiy parametri hajmidan tashqari ma'lumotlarni o'qish va yozish tezligi hisoblanadi. Ma'lumotlarni yozish va o'qishda hech qanday dasturlarning keragi yo'q va ishlatish juda soddadir. Flesh xotiralarni sotib olishda pulingizni ayamadan o'sha paytdagi eng katta hajmliligini sotib olavering, sababi bu xotira qurilmasi juda katta tezlikda o'z hajmini kattalashtirib yubormoqda.

Dasturlanuvchi xotira qurilmalarining elementlari. Qayta dasturlanuvchi xotira qurilmalarining elementlari. Flesh xotira

Dasturli periferiya interfeysi (DPI)ning shartli belgilanish va uni mikroprotssessor tizimiga ulanishining mumkin bo'lgan sxemalardan biri 3.17.-Rasmda keltirilgan. DPI tashki kurilmalar bilan ikki tomonlama 8 bitli 3 ta aloka kanaliga ega bo'lib, RA, RV, RS portlar deb nomlanadi. RS porti qolganlaridan shunisi bilan farq qiladi-ki, uni ikkita mustaqil 4 bitli portlarga bo'lish mumkin, ya'ni D7. . . . D4 katta yarmiga va D3. . . . D0 gacha bo'lgan kichik yarimiga. Paralel interfeys (IOP) deb nomlanadigan, DPI ikki tomonlama D7. . . .D0 uch holatlik chiqishlar yordamida ma'lumotlar shinasiga ulanadi. A1, A0 kirishlar ma'lumotlar almashishning to'rtta kanaldan birini tanlashni bajaradi: RA,RV,.RS uchta portdan yoki boshqarishlar holatini (1.1-jadval.) ichki registrida (BGXRyoki CSR-Control and Status Register) qayd etiladi.



A1	A0	KANAL
0	0	PA
0	1	PB
1	0	PC
1	1	CSR

1.9-rasm. Dasturli periferiya interfeysi.

DPI «mikrosxema tanlash» deshifrador adresining chiqishidagi invers kirishdagi aktiv signalning yordamida ish holatiga keltiradi. (Chip, Selekt, Crystall Selekt, CS) (rasmda to‘liq bo‘lmagan I-HE elementining chiqishida mantiqiy nol paydo bo‘ladi, agar uning hamma kirish signallari ‘1‘ ga teng bo‘lsa ($A7=A6=A5=A4=1$)). Adreslar shinasiga (ASh) yuqoridagi kirishlar kabi ulangan A, A0 kirishlar yordamida chunonchi u yoki bu kanalni tanlash mumkin bo‘lsa, u holda AShga deshifrador kirishlarning hisobga olgan holda quyidagi kombinatsiyalar(1.2-jadval) mavjud:

1.2 -jadval

ADRES SHINALARI LINIYA SI								KANAL/ PORT	ADRES (NEX)
A7	A6	A5	A4	A3	A2	A1	A0		
1	1	1	1	X	X	0	0	PA	F0
1	1	1	1	X	X	0	1	PB	F1
1	1	1	1	X	X	1	0	PC	F2
1	1	1	1	X	X	1	1	CSR	F3

Adreslar shinasining A3, A2 liniyalari sxemada ishlatilmagan, shuning uchun ularning qiymati jadvalda X (x Don't Care Bits) belgilangan. 16 sanoq sistemasidagi adresni hisoblashda, dasturchi bit qiymatlar sifatida hohlagan qiymatlarni, yukorida keltirilgan

jadvaldagidek(1.2 -jadval), nollar ham qo‘yib chiqishi mumkin. Masalan, RV porti uchun ikkilik kodi 1111xX01=11110001(BTN)= F1 (NEX).

DPI portlariga ulangan MP (SRU)ni va tashqi qurilmalar (TK) orasida ma‘lumot baytlari bilan almashinuvi assembler IN. . . . va OUT . . . buyruklar yordamida bajariladi.

IN va OUT buyruklarining bajarilishi ikki etapda bajariladi (mikroprotsessorning konkret arxitekturasiga bog‘liq, taktlarni va sikllarni hisobga olmagan holda). Misol: IN AL, OF1h va OUT OF1h, AL ko‘rsatmaning bajarilishi.

1 etap). ASh siga MP adresni (masalan F1) joylashtiriladi va u deshifratsiyalanadi (bizning misolda I-NE elementi). Deshifrador chiqishda aktiv bosqich (0) ~ CS invers kirishga keladi va DPI ni ish holatiga o‘tkazadi.

2 etap) a) OUT buyrug‘i. Keyingi vaqt paytida MP AL registrida joylashgan baytni ma‘lumotlar shinasiga joylashtiradi va bir vaktida ~ boshqarish kirishiga kelayotgan ~IOW strob yozuvini ishlab chiqaradi. ~IOW impulsi mos ravishdagi portning chiqish registridagi ma‘lumotlar baytni ulab qo‘yadi (bizning misolda RV porti) b) IN buyrug‘i. MP ~RD signalini qo‘yishi boshqaruv kirishga AL akumuliyatordagi ikkilik kodi ma‘lumotlar shinasini (MSh) orqali RV portidan ma‘lumotlar baytni o‘qish uchun ~IOR – strob o‘qishni yuboradi

DPI bajarayotgan operatsiyalarning turi (ishlash rejimi) uning boshqaruv registriga yozib qo‘yilgan axborotiga bog‘liq. Bu axborot boshqaruv bayti yoki buyruq deb nomlanadi. Quyida ko‘p ishlatiladigan rejimlardan biri “0”- rejimida D6, D5, D2-bitlardan nollardan iborat (1.3 -jadval) boshqaruv baytining formati keltirilgan.

1.3-jadval.

Boshqaruv baytining formati

D7	D6	D5	D4	D3	D2	D1	D0
1	0	0	PA	PCh	0	PB	PC1

PA,PB,PCh, PC1 bitlari portlari orqali ma‘lumotlar uzatishning yunalishini aniklaydi (agar port masalan, chiqishga mo‘ljallangan bo‘lsa, IN buyrug‘i yordamida MP ga ma‘lumotlarni u orqali kiritib bo‘lmaydi).

Agar sanab o‘tilgan bitlardan biri o‘rnatilgan (unga 1 yozilgan), bo‘lsa, unda mos ravishdagi (MP --> T.K), agar bit tushirib qolinsa (unga “0” yozilgan), unda port chiqish uchun mo‘ljallangan (MP-->

T.+). Shuni takidlash lozim – ilmiy – texnika adabiyotlarda DPI ko‘pincha parallel dasturlanuvchi adapterlar deb nomlanadi va KR580VV55 integral sxema ko‘rinishida qurilma sxemalarida keltiriladi.

1.2. Tezkor xotira qurilmalari

MOYa struktura asosidagi tezkor xotira qurilmasining elementlari.

Operativ xotira qurilmasi. Operativ xotira qurilmalariga deb, nisbatan qisqa muddat saqlanuvchi tez-tez almashinuvchi ma‘lumotlarning saqlanishiga aytiladi.

Xotira elementlarining top‘lagichiga birlashtirishning bir nechta usuli mavjud (xotira qurilmasini tashkil etishning bir necha ko‘rinishlari).

Bir koordinata tanlamali XQ. Bitta shina bilan xotira elementlarning guruhi (bir so‘zning razryadlar guruhi) tanlanishi bilan tashkil etiladigan xotira qurilmasi, lug‘at yoki bir koordinatali deb ataladi. Oxirgi nomning mazmunini 1-rasmda soddalashtirilgan strukturasi keltirilgan XQ o‘rganib chiqqanimizdan so‘ng ma‘lum bo‘ladi.

Xotira massivi (XM) o‘zida bir so‘zining razryadlarini saqlovchi, har bir qatorida XE joylashgan matritsasini namoyon qiladi. Hamma so‘zlarining bir nomdagi razryadlarini saqlovchi XE, har bir matritsa ustunida joylashgan XE da uning sig‘imi 16 bitga teng, to‘rtta to‘rt razryadli so‘z qayd etilgan bo‘lishi mumkin.


Masalan XE 9 –XE12 elementlaridan iborat yacheykaga so‘z yozilishi uchun shu elementlargagina ulangan ShM3 manzil shinasiga manzil tanlovi signalini ulash kerak. Yoziluvchi so‘zining razryad qiymatlariga (0 yoki 1) mos keluvchi signallarni ShR1-ShR4 razryadli shinalarga uzatib, hamma XE lar uchun umumiy Yo‘zish/O‘qish shinasiga yozilishga ruxsat beruvchi signal uzatiladi. Bunda XE razryad qiymatlariga mos keluvchi holatga ulab-uziladi.

So‘zning o‘qilishi Yo‘zish/O‘qish shinasini yo‘nalishida ruxsat beruvchi signal mavjud bo‘lmaganda va talab etilgan manzil shinasiga signal uzatilishi sodir bo‘ladi. Bunda so‘z razryadiga mos keladigan potensial qiymatlari (0 yo‘ki 1), o‘qishga mo‘ljallangan kuchaytirgichlarning chiqishlarida paydo bo‘ladi.

Qaysidir manzil shinasining tanlovi manzil deshifratori tomonidan amalga oshiriladi va uning kirishiga shina manzilining ikkilangan kod

nomeri – yacheykaning nomeri kelib tushadi, qaysindan so‘z o‘qib olinishi kerak yo‘ki yo‘zilishi kerak bo‘ladi. Shuni ta‘kidlab o‘tamizki, so‘z o‘qib olinishi yo‘ki yo‘zilishi kerak bo‘lgan yacheyka, faqat bitta koordinataga ega bo‘ladi. Bu koordinata ko‘rinishida, xotira elementlarining matritsa qatorining nomeri ishtrok etadi.

Tariflangan xotira qurilmasini, shuningdek ikki o‘lchamli XQ yoki SD tipidagi n ta xotira elementlaridan iborat N ta matritsadan iborat bo‘ladi. (2-rasm). 1.10-rasmda $N=4$ va $n=16$ bo‘ladi.




1.10-rasm. Bir koordinata tanlamali xotira qurilmasi sxemasi.

Bunda har bir so‘z, hamma N ta matritsali bir hil masofada joylashgan XE yoziladi. To‘plagichda (1.11-rasmga qarang) 16 razryadli so‘zlar yozish mumkin. Matritsaning har bir XE aniq X va Y manzil shinalari kesilishida joylashgan bo‘ladi. Bundan tashqari, unda bu matritsaning hamma elementlari uchun to‘g‘ri keladigan umumiy razryad shinasini mavjud bo‘ladi.

Masalan $XE8$ elementlaridan iborat yacheykaga, so‘zni yozilishi uchun, deshifratorning X va Y shinalaridan, shifrorator $X2, Y2$ shinalariga

signal uzatiladi (bu bilan yacheyka tanlanadi), keyin razryadli shinalarga ko'rsatilgan yacheykaga yozilishi lozim bo'lgan ikkilik soni beriladi. Ammo lekin, son razryadli bu matritsaning umumiy razryad kelib tushib, deshifrador chiqishlariga mos ravishda tanlangan, faqatgina o'sha XE kiritiladi. Shu tariqa, unda yo'zilgan so'zning o'qilishi uchun yacheyka tanlanadi.



1.11-rasm. Ikki koordinata tanlamali xotira qurilmasining top'lagichi.

Ko'rib chiqilgan xotira qurilmasini shuningdek matritsa tashkil etuvchili XQ , uch o'lchamli XQ , 3D tipidagi XQ deb ataladi.

Sanoatda turli parametrlarga ega bo'lgan bir koordinatali va ikki koordinatali XQ ning qator mikrosxemalari ishlab chiqariladi.

Statik tezkor xotira qurilmasining vaqt diagrammalari va tashqi tashkillashtirish usullari

Tezkor xotira yoki **RAM** (inglizcha: *Random Access Memory, RAM*) – o'qish yoki yozish uchun uning manzili bo'yicha istalgan yacheykaga bir vaqtning o'zida (har doim bir vaqtning o'zida, joylashuvidan qat'iy nazar) kirish imkonini beruvchi kompyuter xotirasining turlaridan biridir. Protsessor qisqa vaqt ichida ko'p ishlatiladigan jarayonlarni tezkor xotiraga yuklab oladi va bu kompyuterni ishlashini tezlashtirish uchun xizmat qiladi. Tezkor xotirani asosiy o'lchov birligi uning xotira hajmi bo'lib, kilobayt, megabayt,

gigabaytlarda o'lanadi. Tezkor xotira chastotasi – tezkor xotira shinalaridan ma'lum vaqt ichida o'tadigan ma'lumotlar oqimi sonini anglatadi.

Zamonaviy tezkor xotiraning keng tarqalgan ikkita shakli **statik RAM** (SRAM) va **dinamik RAM** (DRAM) mavjud. SRAM'da ma'lumotlarning bir qismi oltita tranzistorli xotira xujayrasining holatidan foydalangan holda odatda oltita MOSFET (metall-oksit-yarim o'tkazgichli maydon effektli tranzistorlar) yordamida saqlanadi. RAM'ning bu shakli ishlab chiqarish qimmatroq bo'lib, biroq odatda tezroq hamda DRAMga qaraganda kamroq dinamik quvvat talab qiladi. Zamonaviy kompyuterlarda SRAM ko'pincha protsessor uchun kesh xotirasi sifatida ishlatiladi.

Hozirgi kunda asosan katta hajmdagi dasturlar, o'yinlar bilan kompyuterni band qilganda, kompyuterga tushayotgan yuklama asosan tezkor xotiraga tushadi. Bu xotiraning o'lchami dastur va o'yinlarning ishlash tezligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu xotira turi vaqtinchalik axborotni o'zida saqlaydi. Dastur yuklanganda dastlab tezkor xotiraga yuklanadi va u yerdan ishga tushadi. Bundan kelib chiqadiki, tezkor xotiraning hajmi qancha katta bo'lsa, bir paytning o'zida bir necha dasturlarni yuklab, ish olib borishingiz mumkin bo'ladi (misol uchun ashula eshitib, o'yin o'ynash mumkin).

Biror dasturni ishga tushirib (dastlab tezkor xotiraga xotiraga yuklab), so'ng bu dasturdan chiqib ketib, ya'na shu dasturni ishga tushirsangiz, dastur yuklanishi biroz tezroq amalga oshiriladi. Chunki kompyuter dastlab tezkor xotiraga murojaat qiladi, agar yuklangan dastur u yerda mavjud bo'lsa, o'sha yerdan dasturni yuklaydi, aks holda dasturni izlashni boshlaydi.

Tezkor xotira 2 ta asosiy xarakteristikaga ega va bu xotirani sotib olishda uning hajmi va shu xotira ishlaydigan chastota miqdori inobatga olinadi. Tezkor xotira chastotasi ishlash tezligini aniqlab beradi. Chastota bu vaqt birligidagi jarayondir. Misol uchun, 600 megagers chastotali tezkor xotira 100 MB ma'lumotni 10 sekunda yuklasa, 1000 megagersli tezkor xotira bu jarayonni 5 sekundda amalga oshiradi.

Tezkor xotira ko'rinishi va ona plata (materinskaya plata, motherboard)ga o'rnatilishi bo'yicha bir necha turlarga bo'linadi. Hozirgi zamon tezkor xotiralariga DDR1, DDR2, DDR3, DDR4 kiradi:

- **DDR1** – maksimal ishlash chastotasi 400 megagersgacha;
- **DDR2** – maksimal chastotasi 800 megagersgacha;

-
- **DDR3** – maksimal ishlash chastotasi 1800 megagersgacha.

Har bir tezkor xotira turi o‘zining platasiga ega, ya‘ni platadagi slot faqat bir turdagi tezkor xotirani qabul qiladi. Misol uchun, DDR1 uchun mo‘ljallangan plataga DDR2 ni o‘rnatib bo‘lmaydi. Chunki har bir tezkor xotira turi o‘zgacha ulanish tishlariga ega. O‘lchami bir xil bo‘lishi mumkin lekin tishlari o‘rtasida farq bor.

Muhim ma‘lumotlardan biri shuki, plata shinasini ham tezkor xotirani o‘rnatishda e‘tiborga olish, uning chastotasini ham bilib qo‘yish zarur. Bu ma‘lumotni kompyuter platasi hujjatidan topishingiz mumkin. Misol uchun, 800 MG‘da ishlaydigan DDR2 tezkor xotirasini 533 MG shinada ishlaydigan plataga qo‘yilsa, tezkor xotira ham 533 MG‘da ishlaydi ya‘ni shu chastotaga moslashadi. Agar har xil chastotada ishlaydigan 2 ta tezkor xotirani bir plataga o‘rnatilganda, umumiy ishlash chastotasi kichik bo‘lgan chastota bilan bog‘liq bo‘ladi. Misol tariqasida 1000 MG va 600 MG chastotada ishlaydigan tezkor xotirani bitta plataga o‘rnatilsa, shunda tezkor xotira 600 MGS chastota bilan ishlaydi. Tezkor xotira ko‘plab o‘yin va dasturlar uchun javobgardir.

Statik OXQ quyidagi tiplarga bo‘linadi:

Asinxron – boshqaruvchi signallarning impulslar, hamda darajalar bilan belgilash mumkin;

Taktirlashgan – ularda ba‘zi signallar albatta impulsi bo‘lishi zarur, masalan, CS ishini ruhsat etuvchi signal;

Sinxron – bularda ma‘lumotlarni konveer uzatish kanali tashkil etilgan, u protsessorni takt tizimidan sinxronlashtiriladi.

1.3. Dinamik xotira qurilmalari

Dinamik XQ eng katta ma‘lumot sig‘imi va past narx bilan tavsiflanadi, shuning uchun ular kompyuterlarni asosiy xotirasi sifatida qo‘llaniladi. DRAMning yuqori tezkorlik sxemalari variantlari ishlab chiqilgan. Statik XQ 4-5 marta qimmatroq va taxminan shunchaga kam xotira sig‘imiga ega. Ularning afzalligi tezkorlikdir, qo‘llanilish soxasi esa – kesh-xotira sxemalari.

ROM(M) tipidagi doimiy xotira, niqoblar yordamida dasturlash davomida tayyorlanadi, shuning uchun uni niqobli DXQ deb nomlashadi. ROM ning keyingi turlari nomlarida R xarifi bor (Programmable). Bu- foydalanuvchi tomonidan bir marta

dasturlanadigan xotira – PROM(rus terminologiyada PPZU – dasturlanadigan DXQ) va ko‘p marta dasturlanadi –EPROM,EEPROM .

Flash turidagi xotira elementi(HE) bo‘yicha EEPROM ga o‘xshash, lekin struktura va texnologik tomondan ajralib turadi, bular uni alohida turga ajratishga imkon beradi.

XQ da ketma-ket murojat etish orqali yozilayotgan ma‘lumotlar navbatini hosil qiladi. O‘qib olish so‘zma so‘z amalga oshiriladi, yozish tartibida esa teskari. To‘g‘ri o‘qib olish buferlarda FIFO amalga oshiriladi , quyidagi usul bilan: “birinchi kelding-birinchi ketding”(First In – First Out), ular fayl va siklik XQ da ishlatiladi.

FIFO va fayl XQ lar orasidagi farq quyidagilardan iborat: FIFO o‘qishga murojat etishga ega bo‘lganlarni buferga yozadi (ya‘ni XQ ni modeli zanjirini ohiriga tushadi). Fayl XQ ga ma‘lumotlar zanjir boshiga tushadi va chiqishda bir necha aylanishlardan so‘ng kelib tushadi, aylanishlar soni zanjir elementlari soniga tengdir.

Siklik XQ da so‘zlar ketma-ket doimiy davr bilan murojat etishga ega, u xotira sig‘imi bilan belgilanadi. Ularga video xotira kiradi (VRAM).

Teskari tartibda o‘qish stek xotiraga xos, u “ohirgi kelgan-birinchi chiqadi”usuliga egadir . Bunday XQ LIFO buferlari deb nomlanadi (Last In –First Out).

Ketma-ket XQ da saqlanayotgan ma‘lum ma‘lumot birligiga murojat etish tasodifiy kattalik deb hisoblanadi. Eng yomon holda bunday murojat etish uchun butun xotirada joylashgan ma‘lumotni ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Assotsiativ murojat etish ma‘lum bir tavsif, manzil bo‘yicha qidiruvni amalga oshiradi. Bunda eng to‘liq tavsilotda xotirada saqlanayotgan so‘zlar bir tavsif bo‘yicha bir vaqtning o‘zida tekshirilishi mumkin, masalan ma‘lum bir maydonlar – teglar (tag) mos kelishi, uni kiruvchi so‘z belgilaydi. Chiqishga so‘rovni qoniqtirgan so‘zlar uzatiladi. So‘zlarni uzatish usuli bir nechta so‘zlarni qoniqtiradi, so‘zlarni yozish usuli esya turlicha bo‘lishi mumkin. Assotsiativ xotirani qo‘llanilish soxasi asosan kompyuter xotirasidagi – ma‘lumotlarni qo‘rishdan iboratdir.

DRAM xotira elementi.Kuchaytirgich regeneratrlar.

Personal Kompyuterlarda operativ xotirlash kurilmalarni (RAM) ikki turi ishlatiladi. Birinchisi statik (SRAM-Statik RAM) va dinamik (DRAM-Dynamic RAM).

Statistik xotira kurilmalarini yacheykalari ikki tugun holatda tura oladigan turli variantlarda yasalgan triggerlardan iborat. Bu triggerlar ixtiyoriy bir tugun holatda istagancha vaqt tura oladi. Faqat bu xollarda kurilmaga elektr manbai (energiyasi) berilib turishi kerak.

Statistik mikrosxema yacheykasi manziliga murojat kilinganda unga adres tulasicha berilib, ichki deshifrador yordamida signalga aynaltirilib, anik yacheykaga uzatiladi. Bunday tildagi xotira yacheykalari yacheykasi juda kiska ishga tushish vaktiga (birnecha un na nosekund) ega, bu mikrosxemalar juda oz solishtirma zichlikga (bitta korpusga M bit atrofida) va katta elektr energiyasini istemol kiladi. Shuning uchun bu prinsipda ishlovchi xotira asosan bufer xotira (kesh-xotira) sifatida foydalaniladi.

Dinamik xotirlash kurilmalari ma'lum joyda elektr zaryadini yigilishi prinsipida ishlaydi. U statistik xotira triggerlariga nisbatan oz joy egallaydi va deyarli elektr energiyasini informatsiya saklash jarayonida ishlatmaydi. Informatsiyani xotira yacheykasiga yozishda bir necha mili sekund ichida zaryad tuplanadi va juda kiska vakt saklanadi. Xotira yacheykasida bitni doimo saklab turish uchun yacheykani regeneratsiya-kayta yozib turish kerak.

Dinamik xotira mikrosxemalari yacheykalari turi turtburchak sifatidagi matritsa sifati tashkil etilgan.

Mikrosxemaga birinchi murojat kilinganda RAS (ROW Address Strob-ustun adressi stobi) signali orkali mikrosxema kirishiga satr adresi beriladi. Keyin CAS (Column Address Strob-ustun adressi stobi) signali orkali mikrosxema kirishiga ustun adresi beriladi. Xar safar biror yacheyka satri adresiga murojat kilinganda, tanlangan katordagi barcha yacheykalar kayta regeniratsiya kelinadi. Shuning uchun xotira barcha yacheykalarini regeniratsiya kilish uchun bircha yacheykalar katoriga murojat kilish yetarli.

Dinamik xotira yacheykalari katta ishga tushish vaktiga esa, lekin solishtirilsa zichligi katta (unlab Mbit bitta korpusga) va elektr energiyani kam istemol kiladi. Bunday xotira sistemalari Komppiyuterda asosiy xotira sifatida kullaniladi.

SRAM va DRAM kurilmalarini odatda asinxron kurilmalar deb ham ataladi. Chunki boshkarish signallari va ukish-yozish ixtiyoriy vakt momentida bajarilishi mumkin. Lekin signallarni uzatishda ular orasidagi zaruriy oralik vakti saklanishi kerak. Bu orlik vakt (ximoyalash vakti ham deyiladi) signallarni stabilash uchun zarur buladi.

Bundan tashkari sinxron kurinishli xotiralar ham mavjud. Ular tashkiy sinxron signallarni kabul qiladi.

Yukorilardagidan tashkari FRM DRAM(Fost Rage Mode DRAM-tez betma-bet murojatli dinamik xotira). Bu tip xotiralarni DRAM dan fark shundaki yacheyka satr adresi topishgandan keyin kup marotaba ustun adreslarga murojat kila oladi. CAS dan olib RAS sxemasi kullaniladi.

Xozirgi zamon mikroprotessorlari ichki va tashkiy buyruk va berilganlarni buferlari mavjudligi tufayli xotira yacheykalariga suzlar bloki sifatida murojat qiladi.

SDRAM (Synchronus DRAM-sinxrondinamik xotira)-sinxron murojatli xotira tezrok ishlaydi. Sinxrom murojatdan tashkari SDRAM ichki yacheykalarni ikki mustakil bankka buladi. Bu esa bir bankda tanlash jarayonida ikkinchi bankda adresni urnatish imkoniyatini beradi. Undan tashkari blokli murojat ham bajariladi.

RB SRAM (Rirelined Burst SRAM-blokli konveyr murojatli statistik xotira)-ichki konveyrlanganli sinxron SRAM ni bir turi. Shu xisobiga taxminan ikki marotaba blokli informatsiya almashinuvi ortadi.

Umuman xotira mikrosxemalari turta asosiy xarakteristikalariga ega:

- 1.Tip
- 2.Xajmi
- 3.Strukturasi
- 4.Murojat vakti

Mikrosxema tipi deyilganda statik, yoki dinamik, ekanligi tushiniladi. Xajmi mikrosxemani umumiy xajmini, strukturasi yacheykalar soni va xar bir yacheyka razryadi uziga oladi.

Masalan 28/32- chikish DIR – mikrosxema SRAM 8 razyadli strukturaga ega (8k*8, 16k*8, 32k*8, 64k*8, 128k*8) va 486 uchun 256 kb KESh 8 ta 32k*8 yoki 4 ta 64k*8 mikrosxemasidan iborat. Ikkita 128 k*8 mikrosxemasini kuyib bulmaydi, chunki berilgan shinasi 32 razryadli, bulib fakat 4 ta parallel mikrosxema berishi mumkin.

30 kontaktli SIMM 8 – razryadli strukturaga ega va 286, 386 SX va 486 LC da ikkitadan. 386 DX da, 486 DLC va oddiy 486 da 4 tadan. 72 kontaktli SIMM 32 razryadli strukturaga ega shuninig uchun 486 da bittadan kuyilishi mumkin.


Rentium va Rentium Rrr larda ikkitadan kuyish mumkin, chunki ular 64 razryadli Komppyuuterlar.

Mikrosxemaga murojat vaqti mikrosxemalarni ishlash vaqtini belgilaydi. Odatda u mikrosxema nomi nixoyasida teridan keyin nanosekundlarda kursatiladi.

Kompyuterning hotira qurilmasi ikki hil turga: asosiy (bosh hotira , tezkor hotira, fizik hotira) va ikkilamchi (ichki hotira) hotiraga bo‘linadi.

Asosiy hotira bir baytli tartiblangan yacheyka massiviga ega bo‘lib, har bir yacheyka o‘zining adresiga (nomeriga) ega. Protssessor buyruqlarni asosiy hotiradan oladi, qayta ishlaydi va bajaradi. Buyruqlarni bajarishda asosiy hotiraning bir nechta yacheykalariga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Odatda asosiy hotira yarimo‘tkazgichli texnologoya asosida tayyorlanadi shuning uchun hotiradagi ma‘lumotlar elektr manbasidan uzilgandan so‘ng o‘chib ketadi. Ikkilamchi hotira (bu asosan disklardir) bu chiziqli birlik adresga ega bo‘lgan joy va ularni ketma-ket joylashgan baytlar tashkil qiladi. Ikkilamchi hotiraning tezkor hotiradan farqi shundaki, u alohida energiyaga, katta hajmga, va samarali foydalanish imkoniyatiga ega.

1.12-rasmdagi ko‘rsatilgan sxemaga yana bir nechta oraliq satxlarni qo‘shish mumkin. Xar xil ko‘rinishdagi hotiralar ierarxiyaga, murojaat vaqti kamayib borishi, narxini oshishi va sigimi oshishi tarzida birlashishi mumkin.



1.12-rasm. Xotira ierarxiyasi.

Ko‘p bosqichli sxemalar kuyidagicha ishlatiladi. Malumotlar odatda xotiraning yukori satxlaridan kidiriladi, agar u yerdan topilmasa

,malumotlar katta nomerli satxlarda ham saklanadi.Shuning uchun , u keyingi satxdan qidira boshlaydi. Agar kerakli ma'lumotni topsa, uni yuqoriroq satxga o'tkazadi.

Maxalliylik (lokallilik)

Ma'lum bo'lishicha, bu usulda boshqarishni tashkil etish xotira satxlariga kirishni va aloqa chastotasini kamaytiradi.

Bu yerda muxim rolni, chegaralangan vakt davomida, xotira adreslarining kichik bulagi bilan ishlash xossasi uynaydi. Bu empirik jixatdan kuzatiladigan xossa lokallilik prinsipi yeki murojaatlarni lokallashtirish deyiladi. Protsessor KESh, qurilmalarning bir qismi xisoblanadi, shuning uchun OTning hotira menejeri , asosan ma'lumotlarni kompyuterning asosiy va ichki hotira qismiga taqsimlash bilan shug'ullanadi. Bazi sxemalarda tezkor va ichki hotira o'rtasidagi oqimni dasturchi boshqaradi. Ammo bu bog'lanish dasturchi vaqtini yo'qotadi, shu sababli bu ishni OT ga yuklashga harakat qilinadi. Fizik xotirada malumotlarni real joylashishini kursatuvchi. asosiy xotiradagi adreslar- fizik adreslar deb ataladi. Dastur ishlaydigan fizik adreslar to'plami, fizik adreslar maydoni deb ataladi.

Mantikiy (logik) hotira.

Xotirani, yacheykalar chizikli tuplami kurinishida apparat tashkil etish, dasturchining dastur va malumotlar saklanishi kurinishi xakidagi tassavuri bilan mos kelmaydi. Kupgina dasturlar bir-biriga boglik bulmagan holda yaratilgan modullardan tashkil topgan.


Bazan jarayon tarkibiga kiruvchi hamma modullar hotirada ketma-ket joylashadi va chiziqli adreslar maydonini tashkil qiladi. Biroq ko'pincha modullar hotiraning turli joylarida joylashtiriladi va turlicha foydalaniladi.

Hotirani bosharish sxemasida, foydalanuvchining bunday tassa-vuriga mos keladigan ma'lumot va dasturlarni saqlash, segmentatsiya deyiladi. Segment-hotiraning aniq ko'rsatilagan qismi bo'lib, uing ichkikismida chiziqli adreslarni qo'llab quvvatlaydi. Segment protsedura, massiv, stek yoki skalyar miqdorlardan tashkil topgan buladi, lekin odatda aralash tipdagi ma'lumotlardan iborat bulmaydi.

Boshida segmentlar. dastur kodi fragmentlarini (matn redaktori, trigonometrik kutubxona v ax.k.) jaraenlar bilan umumlashtirish zaruriyatidan kelib chikkan bulishi kerak, chunki ularsiz xar bir jaraen uzining adres makonida malumotlarning yana bir nusxasini saklashiga

tugri kelar edi. Xotiraning, tizim bir nechta jaraenning malumotlarini aks ettiradigan aloxida kismolari bulib ular segmentlar deb nom oldi.

Xotira shunday kilib, chizikli kurinishdan ikki ulchamli kurinishga keldi. Adres ikki komponentdan iborat bulib, ular: segment nomer iva segment ichidagi joylashgan urnidir. Keyinchalik, jaraenning turli komponentalarini (dastur kodi, malumotlar, stek v ax.k.) turli segmentlarda joylashtirish kulay bulib koldi. Yana shu narsa anik bulib koldiki, anik segment ishini, unga segmentda saklanadigan malumotlar ustida bajarilishi ruxsat berilgan .operatsiyalar , masalan, murojaat xukuki va operatsiyalar tipi kabi atributlar kiymatini berib , nazorat kilish mumkin bulib koldi.



1.13-rasm. Jarayon segmentlarining kompyuter xotirasida joylashishi.

Bazi jarayonni adres makonini tasvirilaydigan segmentlar 1.13-rasmda kursatilgan. Aksariyat zamonaviy operatsion tizimlar hotirani segment boshqaruv hususiyatiga ega. Otlarning bazi arxitekturalarida (masalan Intel) segmentlash qurilmalar tomonidan kullanadi.

Jarayon murojaat kiladigan adreslar, operativ xotirada mavjud bo'lgan real adreslardan shu taxlitda fark kiladi. Har bir aniq holatda

dastur foydalanadigan adres, har xil usullar yerdamida tasvirlanishi mumkin. Masalan, adres, berilgan matnda odatda simvolli bo'ladi. Kompilyator bu simvolli adres va o'zgaradigan adreslarni bog'laydi (masalan, n bayt modul boshidan). Dastur generatsiyalagan bunday adres odatda mantiqiy adres(virtual xotirali tizimlarda u ko'pincha virtual xotira) deb nomlanadi. Barcha mantiqiy adreslar tuplami mantiqiy(virtual) adreslar maydoni deb ataladi.

Manzil shinasini multiplekslash.

Demak, mantiqiy va fizik adreslar maydonlari, tashkil etilishi va o'lchami bo'yicha bir biriga mos emas. Mantiqiy adreslar maydonning maksimal o'lchami odatda protsessorning razriyadi bilan aniqlanadi (masalan 2^{32}), va zamonaviy tizimlarda fizik adreslar maydonining hajmidan ko'zga ko'rinarli darajada yukori buladi. Shunday ekan, protsessor va operatsion tizim asosiy hotirada joylashgan dasturni dastur kodiga, real fizik adresga tayangan holda yulni aks ettirish kerak. Bunday ko'rinishda adreslarni tasvirlash adreslarni translatsiyasi yoki adreslarni boglash deb nomlanadi.

Mantiqiy adresning fizik adres bilan bog'lanishi dastur operatorining bajarilishigacha yoki bajarilish vaqtida amalga oshirilishi shart. Bunday holda, kursatmalarni va ma'lumotlarni hotiraga boglash kuyidagi qadamlar buyicha amalga oshiriladi.

- Kompilatsiya bosqichi.
- Yuklash bosqichi.
- Bajarilish bosqichi.

Hotiraning boshqaruv tizimi funksiyasi.

Hotiradan samarali foydalanishni ta'minlash uchun operatsion tizim quyidagi funksiyalarni bajarishi lozim:

Fizik hotirani aniq bir sohasida jaraen adreslar to'plamini aks ettirish;

Qarama-qarshi jarayonlar o'rtasida hotirani taqsimlash;

Jaraenlar adreslar maydoniga ruxsatni boshqarish;

Operativ hotirada joy qolmaganda, tashqi hotiraga jarayonlarni (qisman yoki tulik) yuklash;

Bo'sh va band hotirani hisobga olish.

Hotira boshqaruvining eng oddiy sxemalari.

Dastlabki operatsion tizimlarda hotirani boshqarishning eng oddiy metodlari qo'llanilgan. Boshida foydalanuvchining har bir jarayoni asosiy hotiraga ko'chirilishi kerak bo'lgan, hotira uzluksiz maydonini


band qilgan, tizim esa kushimcha foydalanuvchi jaraenlarga bir vaktning uzida asosiy xotirada joylashib turganicha xizmat kursatadi. Keyin “oddiy svoping” (avvalgi tizimlardagidek, xar bir jaraenni asosiy xotiraga joylashtiradi, ammo bazi kursatkichlarga asosan bazi jaraenlar obzorini asosiy xotiradan tashki xotiraga tulik chikaradi va uni boshka jaraen obrazi bilan almashtiradi) paydo bo‘ldi. Bu turdagi sxema nafaqat tarixiy qiymatga ega. Hozirgi vaqtda ular uquv-mashq va ilmiy – tajriba modeli operatsion tizimlarida, shuningdek operatsion tizim «tikilgan» holda o‘rnatilgan kompyuterlarda (embedded) qo‘llaniladi.

Qatiy belgilangan (fiksirlangan) bulimli sxemalar

Tezkor hotirani boshqarishning eng oddiy yo‘li uni oldindan (generatsiya bosqichida yoki tizim yuklanishi vaqtida) bir qancha qatiy belgilangan ulchamdagi bulimlarga bulishdan iboratdir. Kelib tushayotgan jarayonlar u yoki bu bo‘limga joylashtiriladi. Shu sababli fizik adreslar maydonining shartli bo‘linishi yuzaga keladi. Jarayonning mantiqiy va fizik adreslari bog‘lanishi uni aniq bir bo‘limga yuklash vaqtida yoki bazan kompilatsiya vaqtida yuzaga keladi. Har bir bo‘lim o‘zining jarayonlar navbatiga ega, yoki hamma bo‘limlar uchun jarayonlar global navbati mavjud bo‘lishi mumkin. Bu sxema IBM OS/360 (MFT), DEC RSX-11 va shunga yaqin boshqa sistemalarda qo‘llanilgan. Hotirani boshqarish tizimi jarayonni xajmini baholaydi, unga mos keluvchi bo‘limni tanlaydi, jarayonni bu bo‘limga yuklaydi va adreslarni sozlaydi. 8.4 rasmda fiksirlangan bo‘limli sxemalar kqrsatilgan: (a) g‘navbati umumiy bo‘lgan jarayonlar, (b) aloxida navbatli jarayonlar.

Bu sxemaning kamchiligi ko‘rinib turibdiki, bir vaqtda bajariladigan jarayonlar soni bo‘limlar soni bilan cheklangan. Boshqa muhim kamchiligishundan iboratki, taklif qilinayapgan sxema, ichki fragmentlashdan , yanijarayonga ajratilgan, ammo ishlatilmagan xotira qismini yo‘qotish bilan qattiq zararlanadi. Fragmentatsiya, jarayon o‘ziga ajratilgan bo‘limni tuliq band qilmasligi yoki bazi bo‘limlar, bajariladigan foydalanuvchi dasturlari uchun kichik bo‘lganligidan kelib chiqadi.

Jarayon mantiqiy adreslar maydoni hajmi , unga ajratilgan bulim hajmidan katta (yoki eng katta hajmdan ham katta) bo‘lgan holatlarda, bazan overley nomli yoki qoplanadigan tuzilishli tashkil etadigan texnikadan foydalaniladi.



1.14-rasm. *Overlayli(qoplangan) tuzilish.*

Asosiy g'oya – faqat ayni vaqtda kerak bo'lgan dastur ko'rsatmalarini hotirada saqlab turishdir.

Overlay tuzilish dasturining kodining diskda aniq hotira ko'rinishida bo'ladi va overlay kerakli vaqtda uni drayver orqali o'qib ishlatadi. Overlay strukturaning tavsifini yozish uchun odatda maxsus sodda (overlay description language) tildan foydalaniladi. Dasturda ishlatiladigan hamma fayllar dasturning ichki chaqiriqlariga daraxt ko'rinishdagi fayl yordamida to'ldiriladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, overlayli strukturani tashkil etish ko'p jixatdan lokallilik xossasiga bog'liqdir, bu esa o'z navbatida xotirada ayni vaqtda faqat kerak malumotlarni saqlash imkonini beradi.

Dinamik taqsimlanish. Almashtirish (svoping).

Paketli tizimlar bilan ishlashda fiksirlangan bo'limlar bilan ishlab, boshqa xech qanday murakkab narsalardan foydalanmaslik ham mumkin. Vaqtni taqsimlash tizimlari bilan ishlash vaqtida, xotira xamma foydalanuvchilar jarayonlarini o'zida ushlab tura olmaydigan holat ro'y berishi mumkin. Bu holda svopingdan foydalanishga to'g'ri keladi. Svoping-bu jarayonlarni asosiy xotiradan diska va orqaga to'liq o'tkazishdir. Jarayonlarni diskka qisman yuklash saxifali tashkil etilgan tizimda amalga oshiriladi.

Yuklangan jarayonlar huddi o'sha adreslar maydoniga yoki boshqa joyga qaytarilishi mumkin. Bu cheklash bog'lanish metodi xususiyatidan kelib chiqadi. Bog'lanish sxemasi uchun, bajarish bosqichida jarayonlarni hotiraning boshqa joyiga ko'chirish mumkin.

Svoping hotirani boshqarishga bevosita aloqasi yo'q, u ko'proq jarayonlarni rejalashtirish bilan bog'liqdir.

O'zgaruvchan bo'limli sxemalar.

Qoida bo'yicha svoping tizimi fiksirlangan bo'limlarga asoslanishi mumkin. Ammo dinamik taqsimlash yoki o'zgaruvchi bo'limli sxemalar samarali xisoblanadi. Chunki ular xamma jarayonlar to'liq ravishda xotirada joylashganda, yani svoping bo'lmagan xollarda qo'llaniladi.

Bu holda ,boshida xotira butunlay bo'sh va oldindan bo'limlarga bo'lingan emas. Yangidan kelayapgan masalaga qat'iy ravishda kerakli xotiraning o'zi ajratiladi. (undan ko'p emas).

Jarayon chiqarilgan dan so'ng, xotira vaqtincha bo'shatiladi. Bir qancha vaqt o'tgandan so'ng xotira turli o'lchamdagi o'zgaruvchili sonli bo'limlardan iborat bo'lib qoladi. Yonma-yon bo'lgan bo'sh joylar birlashtirilishi mumkin.

Saxifali xotira

Yuqorida tavsiflangan sxemalarda xotiradan samarali foydalanilmaydi, shuning uchun ham xotirani taqsimlashning zamonaviy sxemalarida jarayonni operativ xotirada uzluksiz blok sifatida joylashtirish ko'zda tutilmagan.


Xotirani saxifali tashkil etishda eng oddiy va eng keng tarqalgan usul (yoki paging), xotiraning ham mantiqiy adresli maydoni, ham fizik maydonini bir xil o'lchamdagi saxifa va bloklar to'plami ko'rinishida tashkil etishdir. Bunda mantiqiy saxifalar (page) yuzaga keladi va ularga mos fizik xotira birliklari-fizik saxifalar yoki saxifa kadrlari deb ataladi (page frames). Saxifalar (va saxifa kadrlari) odatda 2 soning darajasidan iborat bo'lgan fiksirlangan qat'iy uzunlikka egadir va ular bir-biri bilan kesishmaydi. Xar bir kadr malumotlarning bir saxifasini o'z ichiga oladi. Xotirani bunday tashkil etishda tashqi fragmentatsiya o'rin bo'lmaydi va ichki fragmentatsiyadan kelib chiqadigan yo'qotish faqat oxirigi saxifalardan kelib chiqadigan yo'qotish bilan chegaralanadi.

Sahifali tizimda mantiqiy adres – tartiblangan juftlik (p,d) dan iborat, bu yerda p virtual xotira saxifasi tartib raqami, d esa bu saxifa doirasidagi element o'rnini bildiradi. Adres makonini saxifalarga bo'lish xisoblash tizimi tomonidan , dasturchi aralashmagan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun xam, adres, operatsion tizim nuqtai naridangina ikki o'lchamlidir, dasturchi nuqtai-nazaridan esa jarayon adres makoni chiziqli xisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan sxema , jarayonlarni to'liq joylashtirish uchun kadrlarning uzluksiz soxasi yetarli bo'lmagan xollarda ham , jarayonni yuklash imkonini beradi. Ammo , bu sxemada adresni translyatsiyalash

uchun bitta asos registri yetarli emas. Mantiqiy adreslarni fizik adreslarda aks ettirish, mantiqiy saxifalarni fizik saxifalarda aks ettirishga keltiriladi va operativ x'otirada saqlanadigan saxifalar jadvalidan iborat bo'ladi. Bazida, saxifalar jadvali – jadval ko'rinishidagi chiziqli – bo'lakli funksiya ham deyiladi.

Mantiqiy manzilning interpretatsiyasi 1.15-rasmda ko'rsatilgan. Bunda bajariladigan jarayon $v=(p,d)$ mantiqiy adresga murojaat qiladi, va aks ettirish mexanizmi saxifa tartib raqami r ni saxifalar jadvalidan qidiradi, bu saxifa r *saxifa kadrda joylashganligini aniqlaydi va real adres r *ni d ga aylantiradi.



1.15-rasm. Xotirani saxifali tashkil etishda mantiqiy va fizik adreslarning bog'lanishi.

Sahifalar jadvali (page table) protsessorning maxsus registida manzillashtiriladi va kadrlar nomerini mantiqiy adres bo'yicha aniqlashga yordam beradi. Bu asosiy masaladan tashqari saxifalar jadvali qatorida yozilgan atributlar yordamidai aniq saxifaga murojaat nazorati va uni ximoyasini tashkil etish mumkin.

Segmentli va segment – sahifali hotira.

Hotiralarni boshqarishni Yana ikkita sxemasi mavjud: segmentli va segment – sahifali. Segmentlar sahifalardan farqli ravishda o'zgaruvchi

o'lchamga ega bo'lishadi. Xotirani segmentli tashkil etishda virtual adres ,dasturchi uchun ham ,operatsion tizim uchun ham ikki o'lchamli bo'ladi va ikki maydondan: segment tartib raqami va segment ichidagi joy raqamidan iborat bo'ladi.


Aytib o'tish lozimki, tasvirlash qulay bo'lishi uchun OT yordamida chiziqli adres ikki o'lchamlilikka keltirilgan saxifali tashkil etishdan farqli ravishda, bu yerda adres ikki o'lchamliligi foydalanuvchini jaranni baytlarning chiziqli massivi ko'rinishida emas, balki o'zgaruvchi uzunlikdagi segmentlar to'plami ko'rinishida tassavur qilish natijasidir. (ma'lumot, kod, stek,...). Quyi bosqichdagi dasturlash tillarida dastur tuzuvchi dasturchilar segmentli struktura haqida bilishlari lozim. Bunda segment registralarini o'zgartirishga olib keladi. Mantiqiy manzillar maydoni – segmentlar yig'indisi. Har bir segment ismga, o'lchamga va boshqa parametrlarga ega. Dasturchi bitta manzil beradigan sahifalarning nomeriga bo'linadigan sahifali sxemalardan farqli ravishda segmentli strukturada manzil ikkita o'lchamdan iborat bo'ladi.: segment nomi va joy o'zgarishi.

Har bir segment – 0 dan boshlanadigan manzillarning to'g'ri chiziqli ketma-ketligidir. Segmentning maksimal razmeri protsessorning razryadi bilan aniqlandi. (bunda 32 razyadda manzillashda 2^{32} bayt yoki 4 Gb). Segment manzili dinamik ravishda o'zgarishi mumkin (masalan stek segmenti). Segmentlar jadvalining elementida segment boshlanishi fizik manzilidan tashqari odatda segment uzunligi ham beriladi.

1.4. Ketma ket sinxron ko'rinishdagi portlar

Shaxsiy kompyuterlarning tashqi qurilmalar bilan ma'lumot almashishini ta'minlash uchun kiritish/chiqarish portlari ishlatiladi. Kiritish/chiqarish portlari parallel yoki ketma-ket bo'lishi mumkin. Parallel portlarda ma'lumotning hamma razryadi alohida tarmoqlardan bir vaqtning o'zida uzatiladi. Ketma-ket portlarda esa ma'lumotning razryadlari bitta tarmoqdan ketma-ket uzatiladi. LPT porti parallell port bo'lib, u asosan printer uchun mo'ljallangan. Lekin bu faqat printer uchun ishlatiladi degani emas, bu portni boshqa qurilmalarga ham qo'llash mumkin. Bu port 25 ta oyoqchadan iborat (1-rasm). Bu oyoqchalar DATA, STATUS, CONTROL deb atalmish 3 ta portdan iborat. Bu oyoqchalardan har birining "1" ya'ni YuQORI bo'lish holati +5 V kuchlanishga ega. "0" ya'ni PAST bo'lish holati esa 0 V ga to'g'ri

keladi. Bu portdagi signalning qiymatlari esa ikkilik sanoq sistemasida hisoblanadi.



1.16-rasm. LPT1 portining oyoqchalari.

Hamma portlarning maʼlumot almashinishi uchun oʻz adreslari boʻladi. Portlarga shu adres orqali murojat qilish mumkin. LPT1 portining adreslari quyidagicha: 1) DATA porti h0378 2) STATUS porti h0378 + 1 yaʼni h0379 3) CONTROL porti esa h0378 +2 yaʼni h037A boʻladi. Bu parallell port asosan printer uchun yaratilgan. Har bir oyoqchanning kompyuterning bilan printerning bir-birini anglashini amalga oshiruvchi vazifasi bor. Buning bizning qurilmamiz uchun farqi yoʻq ammo baribir taʼkidlab oʻtish joiz. Quyidagi jadvalda parallell portning oyoqlaridagi signallari va signal yoʻnalishlari keltirilgan.

Signal nomi Bit Oyoqcha Yoʻnalish -Strobe n C0 1 Chiqish +Data Bit 0 D0 2 Chiqish +Data Bit 1 D1 3 Chiqish +Data Bit 2 D2 4 Chiqish +Data Bit 3 D3 5 Chiqish +Data Bit 4 D4 6 Chiqish +Data Bit 5 D5 7 Chiqish +Data Bit 6 D6 8 Chiqish +Data Bit 7 D7 9 Chiqish - Acknowledge S6 10 Kirish +Busy n S7 11 Kirish +Paper End S5 12 Kirish +Select In S4 13 Kirish -Auto Feed n C1 14 Chiqish -Error S3 15 Kirish -Initialize C2 16 Chiqish -Select n C3 17 Chiqish Ground – 18-25 Umumiy DATA porti: Parallell portda DATA portiga oid 8 ta(D0-D7) oyoqcha bor. 8 ta DATA oyoqchasi boʻlganligi uchun undan 8 bitlik chiqishni olish mumkin. DATA porti asosan maʼlumotni chiqarish uchun qoʻllaniladi. Faqat baʼzi maxsus kompyuterlarda maʼlumotni kiritish mumkin.

Bu portdan ikkilik sanoq sistemasidagi 8 razryadli maʼlumotni chiqarish mumkin. Bu esa oʻnlik sanoq sistemasida maksimum 255 gacha boʻladi. STATUS porti: STATUS porti yordamida 15-13-12-11-10 nomerli oyoqchalardan 5 bitli raqamli kirishni amalga oshirishimiz mumkin. STATUS portining adresi h379. Maʼlumotni kiritishni S7, S6, S5, S4, S3 oyoqchalar orqali amalga oshiriladi.

Parallell portning oyoqlaridagi signallari va signal yoʻnalishlari.

Signal nomi	Bit	Oyoq	Yonalish
-Strobe	n C0	1	chiqish
+Data Bit 0	D0	2	chiqish
+Data Bit 1	D1	3	chiqish
+Data Bit 2	D2	4	chiqish
+Data Bit 3	D3	5	chiqish
+Data Bit 4	D4	6	chiqish
+Data Bit 5	D5	7	chiqish
+Data Bit 6	D6	8	chiqish
+Data Bit 7	D7	9	chiqish
-Acknowledge	S6	10	kirish
+Busy	n S7	11	kirish
+Paper End	S5	12	kirish
+Select In	S4	13	kirish
-Auto Feed	n C1	14	chiqish
-Error	S3	15	kirish
-Initialize	C2	16	chiqish
-Select	n C3	17	chiqish
Ground	-	18-25	umumiy

CONTROL porti: CONTROL portini kirish hamda chiqish holatida qoʻllash mumkin. Parallel portda CONTROL portiga oid 4 ta oyoqcha mavjud. Bundan C0,C1,C3 oyoqchalari teskari kodda boʻlib, bu oyoqchalarga signal berilganda unga teskari signal chiqadi. 18 Parallel portga ulanuvchi oddiy sxemalar va ularni boshqaruvchi oddiy dasturlar. Shaxsiy kompyuter parallel porti unga oddiy sxemalarni ulashda va unga dastur tuzishda koʻp qulayliklarga sabab boʻladi. Ayniqsa shaxsiy kompyuter portlarini oʻrganishda boshlangʻichlar uchun juda osondir. Quyida bunga misollar koʻrib chiqamiz. EHTIYO'T BOʻLING: Shaxsiy kompyuter parallel portiga xato yasalgan sxemani ulaganda juda tez buzlishi mumkin. Agar xozirgi yangi kompyuterlar kabi parallel port integrallangan boʻlsa, uni tuzatish juda qimmatga tushadi. Xavfsizroq yoʻli shuki, sinov uchun arzonroq boʻlgan kiritish/chiqarish kartasini sotib olib sxemalarni unga ulash kerak. Kartadagi parallel port kuyib qolgan holda ham uni almashtirish oson va narxi ham arzon. Sxemalarni parallel portga ulash usullari. Shaxsiy kompyuter parallel porti 25 oyoqchali razyom boʻlib, kompyuter orqa tomonida joylashgan. U asosan printerni ulash uchun qullanilgan lekin xozirgi kunda koʻpgina kurilmalar shu port orqali ishlaydi. 25 ta oyoqning hammasi har doim ham ishlatilmaydi. Koʻpincha 8 ta chiqish va bitta yer oyoqchalarini


osonlik bilan sxemaga ulab ishlatishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda shu oyoqchalarni keltiramiz.

1.5-jadval.

Oyoqchalar vazifasi

Oyoqcha	Vazifasi
2	D0
3	D1
4	D2
5	D3
6	D4
7	D5
8	D6
9	D7

1.5-jadval Oyoqcha Vazifasi 2 D0 3 D1 4 D2 5 D3 6 D4 7 D5 8 D6 9 D7 18,19,20,21,22,23,24 va 25 oyoqchalari hammasi yerga ulangan. Bu chiqishlar hammasi TTL texnologiyasiga mansub. Buning ma'nosi shuki, bu oyoqchalarning mantiqiy 0 signali 0 V kuchlanishga va mantiqiy 1 signali +5 V kuchlanishga to'g'ri keladi. Lekin real xayotda unga sxema ulanganda ideal holatdagidan chetga chiqishlar bo'ladi. Parallel portning chiqish toklari kichik milliamperlar bilan chegaralangan. 19 Chiqish Dn Yer Uzatish Qabul (2.6mA va 2.4V gacha) 1.17-rasm. Portning signal saxlari



1.17-rasm. Portning signal satxlari.

SSI interfeysi (DSP porti)

Sinxron ketma-ket interfeysning tuzilishi asosan ushbu portda uzatiladigan ma'lumotlar turi bilan belgilanadi. Signallarni qayta ishlashda mikrosxemalar o'rtasida uzluksiz ma'lumotlar oqimini uzatish talab qilinadi. Ma'lumotlarni qayta ishlash odatda raqamli signal

protssessorlari (DSP) tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun raqamli ma'lumotlarni maksimal tezlikda uzatish uchun mo'ljallangan ketma-ket portlar ko'pincha DSP portlari deb ataladi.

Qanday turdagi ma'lumotlar uzluksiz oqimlarni tashkil qilishi mumkin. Ko'pincha bu audio yoki video signallardir, garchi tirik organizmning biotoklarini o'lchash uchun signallar yoki geomagnit o'lchovlar uchun signallar uzluksiz ma'lumotlar oqimini tashkil etuvchi signal bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday signallarning tabiatini aniqlashdan aniqlanishi mumkinki, raqamli oqimning manbai analog-raqamli konvertor (ADC) bo'lishi kerak. Agar mikrosxema (signal protssessori emas) raqamli ma'lumotlar oqimining qabul qiluvchisi bo'lsa, u odatda raqamli-analog konvertorni (DAC) o'z ichiga oladi.

Analog ma'lumotni raqamli shaklga o'tkazishda va aksincha, soat signalining barqarorligini ta'minlash juda muhimdir. Faqat bu holatda asl yoki ishlab chiqarilgan signalning buzilishlarini oldini olish mumkin. Bunday soat signali odatda alohida quvvat regulyatoridan oziqlanadigan maxsus termal stabillashgan (yoki termosiqilgan) yuqori barqaror kristall osilatorlar tomonidan ishlab chiqariladi.


Raqamli-analog yoki analog-raqamli konvertorga ma'lumotlarni uzatish tezligi aloqa kanali (seriyali port) orqali uzatish tezligi bilan qat'iy muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun DSP portining ishlashi uchun zarur bo'lgan soat signallari A/D yoki D/A konvertor chipining o'zi tomonidan kiritilgan yuqori barqaror taktli signaldan hosil bo'ladi va signal protssessoriga yoki dasturlashtiriladigan mantiqiy integral sxemaga beriladi.

Parallel kodda ko'rsatilgan raqamni ketma-ket shaklga aylantirishning eng oson yo'li siljish registridan foydalanishdir. Shu bilan birga, qabul qilish oxirida ushbu reestrnga yozishni amalga oshirish momentini bilish muhimdir. Ushbu nuqtani vaqt ichida bilish sizga uzatiladigan bitlarning qaysi biri eng muhim bit ekanligini va qaysi biri eng muhim bit ekanligini aniqlash imkonini beradi. Ikkilik axborot oqimi doimiy ravishda uzatilganligi sababli, registrga yozish signallari bir xil davr bilan beriladi.

Chiqish ikkilik kodini bitma-bit siljitish registrining oxirgi chiqishidan olish mumkin. Qabul qiluvchi tomonda bu signal xatosiz qabul qilinishi uchun har bir bit soat pulsi bilan birga bo'lishi kerak. Shu bilan birga, taktli signallarni bir-biridan farqlash uchun axborot bitlari bilan birga keladigan impulslar soat sinxronizatsiyasi (CLK), registrga

yoziq momentini belgilovchi signal esa kadr sinxronizatsiyasi (FS) deb nomlandi.

Kadr signal va takt sinxronizatsiyalari signallari mahkam bog'langan bo'lishi kerak, shuning uchun ular odatda raqamli hisoblagich yordamida bitta yuqori barqaror to'liqin shaklidan hosil bo'ladi.



1.18-rasm. Ketma-ket DSP portining uzatuvchi qismi diagrammasi.


To'rt razryadli hisoblagichning chiqishiga ulangan "4OR-NOT" mantiqiy elementi takt chastotasidan sakkiz baravar past chastotali kadr sinxronizatsiya pulslarini hosil qiladi. Bunday chastotani ikkilik hisoblagichning "8" chiqishidan olish mumkin edi, ammo bizga takt sinxronizatsiya pulsining davomiyligiga teng puls kengligi kerak. "4OR" mantiqiy elementi hisoblagichning nol holatini dekodlash imkonini beradi. Natijada, uning chiqishida impulsning davomiyligi takt sinxronizatsiyasi impulslarining davomiyligiga teng bo'ladi va impulsning o'zi ADC chiqishidan ma'lumotlarni uzatish kadr impulsining eng boshida paydo bo'ladi.

O'z navbatida, CLK chiqishida impulsning davomiyligi, takt sinxronizatsiya signalining davriga teng, chunki bu signal ikkilik hisoblagichning LSB chiqishidan olinadi.

Ma'lumotlarni uzatish kadri ADC konvertatsiya natijasini uzatuvchi siljish registriga parallel yozish bilan boshlanadi. Buning uchun kadrlar sinxronlash impulsi siljish registriga parallel yozish kiritishiga qo'llaniladi. (1.19- rasm)

Xuddi shu kadr sinxronizatsiya pulsi analog-raqamli konvertorning sinxronizatsiya kirishiga qo‘llaniladi. ADC ning ichki sxemasi shunday tuzilganki, analog-raqamli konvertatsiya pulsning orqa tomonida boshlanadi. ADC sxemalari va siljish registrining bunday tanlovi birinchi navbatda natijani registrga yozishga imkon beradi va keyin bir xil sinxronlash impulsi yordamida analog signalni raqamli shaklga yangi konvertatsiya qilishni boshlaydi.

Seriyali DSP portining chiqishida ma‘lumotlar signallari va ular bilan birga keladigan soat va kadr sinxronizatsiya signallari uchun vaqt diagrammalariga misol 1.19-rasmda ko‘rsatilgan.



1.19-rasm. Sinxronizatsiya signallari uchun vaqt diagrammalari.

1.19-rasmda ko‘rsatilgan vaqt diagrammalarida 10011100r ikkilik raqami uzatiladi. Bunday holda, ma‘lumot ketma-ket registrga FS kadrlarni sinxronlash signali orqali yoziladi. Ayni paytda konversiya natijasining eng muhim biti siljish registrining Q7 chiqishida paydo bo‘ladi. Shu paytdan boshlab CLK takt sinxronizatsiya pulslari hisoblana boshlaydi.


1.19-rasmda ko‘rsatilgan registr o‘z tarkibini bu impulslarning orqa fronti bo‘ylab siljitadi. Natijada, Q7 chiqishida va demak, D portining chiqishida uzatilgan ikkilik sonning bitlari ketma-ket paydo bo‘ladi. Birlashtiruvchi liniyalar orqali ketma-ket port ma‘lumotlarini xatosiz uzatish uchun ushbu ma‘lumotlar CLK impulslarining oldingi frontida qabul qiluvchi registrga yozilishi kerak, chunki bu old front bit oralig‘ining o‘rtasiga to‘g‘ri keladi. Bu uzatiladigan ma‘lumotlarning jabhalarida yuzaga keladigan buzilishlarning oldini oladi.

SPI porti. IC porti.

Axborotning uzluksiz oqimini uzatish vazifasiga qo‘shimcha ravishda, ko‘pincha alohida raqamli ma‘lumotlar paketlarini yoki boshqaruv buyruqlarini uzatish kerak bo‘ladi. Ushbu paketlar juda

kamdan-kam hollarda uzatilishi mumkin. Aynan shu turdagi maʼlumotlarni uzatish uchun sinxron ketma-ket interfeys (SPI) ishlab chiqilgan.

Sinxron ketma-ket interfeysda sinxronlashtiruvchi impulslar doimiy ravishda uzatilmaydi. Bu kerak emas. Ular faqat buyruq yoki raqamli maʼlumotlar paketini uzatish paytida mavjud. Shunga koʻra, ularning nomi ham oʻzgaradi. SPI interfeysida kadr sinxronizatsiya signali signali qaydnomalarini tanlash (SS- slave select) deb ataladi. Takt sinxronizatsiya signali SCLOCK – ketma-ket seriyali sinxronizatsiya deb ataladi. Ushbu portning chiqishlarida signallarning vaqt diagrammalari 1.20-rasmda koʻrsatilgan.




1.20-rasm. Vaqt diagrammalari.

1.20-rasmda koʻrsatilgan vaqt diagrammalaridan koʻrinib turibdiki, kadrlarni sinxronlashtirish signali axborot almashinuvi uchun moʻljallangan butun vaqt oraligʻini qamrab oladi. U bunday almashinuvga ruxsat beradi.

Ushbu interfeysdagi takt sinxronizatsiya signali faqat uzatuvchi va qabul qiluvchi uchun ishlatiladi. Bu mikrosxemaning tashqi pinlarini saqlashga imkon beradi. Qaysi ketma-ket maʼlumotlar piniga ulanishni chalkashtirib yubormaslik uchun bu maʼlumot pin nomiga kiritilgan. MISO nomi asosiy kirish – toʻgʻridan-toʻgʻri chiqish degan maʼnoni anglatadi va MOSI nomi asosiy chiqish va asosiy kirishni anglatadi. Ushbu interfeysdagi asosiy qurilma sifatida odatda mikrokontroller, kamroq signal protsessorlari ishlatiladi.

SPI interfeysi orqali ma'lumotlar almashinuvini amalga oshiradigan raqamli qurilmaning sxematik diagrammasini ko'rib chiqing. Bunday sxemaning namunasi 1.21-rasmda ko'rsatilgan.



1.21-rasm. Asosiy SPI portning sxematik diagrammasi.


Ushbu sxemada ketma-ket ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish uchun siljish registri D3 ishlatiladi. Yozish signalida ma'lumotlarni uzatishning boshida MOSI liniyasi orqali uzatiladigan buyruq D3 registriga yoziladi (agar kerak bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotlar bilan). Buyruqning uzatilishi vaqtida uning alohida bitlari ushbu siljish registrining Q7 chiqishida ketma-ket paydo bo'ladi. MISO liniyasi orqali bir vaqtning o'zida olingan ma'lumotlar bir xil registrning birinchi flip-flopiga yoziladi va asta-sekin uzatilgan ma'lumotlarni almashtiradi. Uzatish oxirida registr MISO liniyasi orqali olingan ma'lumotlarni saqlaydi.

1.21-rasmda ko'rsatilgan sxemadagi kvartsiy generatori "2I-EMAS" mantiqiy elementiga qurilgan. Bu ushbu generatorni to'xtatish va qayta ishga tushirish imkonini beradi. To'g'ridan-to'g'ri SS tanlash signalini

yaratish va sinxronlash impulslarining kerakli sonini hisoblash uchun (bizning holatlarimizda sakkizta) ikkilik hisoblagich D2 ishlatiladi.

Misol tariqasida, dastlabki holatda ikkilik hisoblagichda 10002 raqami yoziladi. Shu bilan birga, SS pinida va D1 mantiqiy elementining chiqishida yuqori potensial mavjud.

Ma'lumotlar D3 uzatish registriga parallel ravishda yozilganda, yozish impulsi bir vaqtning o'zida D2 hisoblagichining qayta o'rnatish kirishiga beriladi. Natijada, SS pinida past potensial paydo bo'ladi. Bu SPI interfeysi ma'lumotlarni uzatishni boshlaganligini anglatadi. Shu bilan birga, inhibitiv potensial D1 "2I-NOT" mantiqiy elementidan chiqariladi. Bunday holda, ushbu elementning ikkala kirishida birlik potentsiali paydo bo'ladi. Natijada, ushbu elementning chiqishida nol potentsial paydo bo'ladi va generatorning o'z-o'zidan qo'zg'alishi uchun sharoitlar paydo bo'ladi.



Impulslar D3 siljish registrining ketma-ket sinxronlash kirishiga va D2 hisoblagichining kirishiga beriladi. Sakkizinchi impuls D3 sxemasining kirishiga kelgandan so'ng ketma-ket shaklda ma'lumotlarni uzatish tugallanadi va D2 hisoblagichida 8 raqami yoziladi. Binar shaklda u 10002 qiymatiga teng, ya'ni yuqori potensial yana SS pinida paydo bo'ladi, bu sinxron ketma-ket SPI interfeysi orqali ma'lumotlarni uzatishni yakunlashni anglatadi.


Xuddi shu signal inverter orqali D1 mantiqiy elementining kirishiga yuborilganligi sababli, uning chiqishida birlik potentsiali paydo bo'ladi va ishlab chiqarish shartlari muvaffaqiyatsiz bo'ladi. Generator endi impulslarni yaratmaydi, ya'ni ikkilik hisoblagich keyingi yozish impulsi SPI portiga kelguncha 10002 holatida qoladi.

R3C3 integrallash sxemasi SS signalining oxirida qisqa impulsni bostirish uchun ishlatiladi va D4 inverteri D6 registrini taktli signalning tushadigan chetiga siljitish uchun yozish imkonini beradi.

1^2S shina deb ataladigan 1^2S portida ma'lumot almashish uchun faqat ikkita o'tkazgich ishlatiladi (holatni hisobga olmaganda).

1^2S shinasida ma'lumotlar qabul qilinadi va uzatiladi, shuningdek mikrosxemaning manzili va mikrosxema ichidagi kirish registrining manzili bir xil kanal orqali uzatiladi. Ushbu kanalga ulanish uchun ochiq kollektorli mikrosxemalardan foydalaniladi. SDA liniyasiga ulangan barcha mikrosxemalar uchun yuklama tashqi qarshilik hisoblanadi.

Mikrosxema bilan ishlashning boshlanishi SDA va SCL signallarining maxsus kombinatsiyasi bilan ko'rsatiladi, bu boshlang'ich sharti deb ataladi. Xuddi shu kombinatsiya bir vaqtning o'zida ramka sinxronizatsiyasini amalga oshiradi. Mikrosxema bilan ishlashning tugashi SDA va SCL signallarining boshqa kombinatsiyasi bilan ko'rsatiladi.



$12C$ interfeysidan foydalanadigan mikrosxemalarga misol sifatida 24cXX seriyali EEPROM mikrosxemalarini nomlash mumkin.

1.5. Chastota sintezatorlari

Chastotani sintezatori – bu chastotali davriy signallarni (garmonik tebranishlar yoki elektr soat signallari) bir yoki bir nechta mos yozuvlar osilatorlari asosida chiziqli takrorlash (ko'paytirish, yig'ish, farq) yordamida aniq chastotalar bilan ishlab chiqaruvchi qurilma. Chastotani sintezatorlari keng diapazonda va turli xil chastotalarni sozlashni talab qiladigan radio qabul qiluvchilar, radio uzatgichlar, chastota o'lchagichlar, sinov signal generatorlari va boshqa qurilmalarda barqaror (chastotada) tebranish manbalari bo'lib xizmat qiladi. Barqarorlikka odatda fazali blokirovka qilingan tsikl yoki kvarts kristalli mos yozuvlar osilatori yordamida to'g'ridan-to'g'ri raqamli sintez (DDS) yordamida erishiladi. Chastotani sintez qilish an'anaviy elektron osilatorlarga qaraganda induktans yoki sig'imni o'zgartirib sozlash bilan juda yuqori aniqlik va barqarorlikni ta'minlaydi, juda keng sozlash diapazoni hech

qanday kommutatsiyasiz va deyarli bir zumda biron bir chastotaga o'tishda.

Analog sintezatorlar

Mutlaqo har qanday sintezatorning asosiy vazifasi mos yozuvlar signalini kerakli chiqish signallariga aylantirishdir. Analog sintezatorlar (to'g'ridan-to'g'ri analog sintezatorlar) alohida bazaviy chastotalarni aralashtirish va keyin ularni filtrlash orqali amalga oshiriladi. Asosiy chastotalarni past chastotali (kvarts va SAW rezonatorlari) yoki yuqori chastotali (dielektrik, safir, to'lqin qo'llanmasi, keramika rezonatorlari) osilatorlari asosida chastotalarni ko'paytirish, bo'linish yoki faza bilan blokirovka qilingan tsikl yordamida olish mumkin. Analog sintezatorlarning asosiy afzalligi mikro va hatto nanosekundalar oralig'ida juda yuqori o'tish tezligidir. Yana bir afzallik: tayanch tarmoq manbalari bilan taqqoslaganda shovqin darajasi past bo'lgan komponentlardan (masalan, mikserlardan) foydalanish. Ya'ni, analog sintezatorning shovqini asosan ishlatilgan asosiy manbalarning shovqini bilan belgilanadi va juda past bo'lishi mumkin.

Ushbu topologiyaning asosiy kamchiliklari cheklangan chastota diapazoni va o'lchamlari. Yaratilgan signallarning sonini qo'shimcha chastotalar va / yoki aralashtirish bosqichlarini kiritish orqali oshirish mumkin. Biroq, ushbu yondashuv ko'proq tarkibiy qismlarni talab qiladi va shuning uchun tizimga murakkablik qo'shadi. Analog qismdan talab qilinadigan minimal chastota pog'onasini oshirish uchun Direct Digital Synthesizer (DDS) dan foydalanish samarali echim bo'lib, yana bir muhim muammo – bu aralashtirish bosqichlarini yaratadigan ko'plab kiruvchi spektral komponentlar. Ular ehtiyotkorlik bilan filtrlangan bo'lishi kerak. Shuningdek, o'zgaruvchan filtrlarning izolyatsiyasini ta'minlash kerak. Mikser va filtrlarning turli xil tartiblari mavjud, ularning barchasi odatda kichik chastotali qadam va keng chastota diapazonini ta'minlash uchun juda ko'p sonli komponentlarni talab qiladi. Shunday qilib, analog sintezatorlar juda yuqori tozalash tezligi va past shovqinni taklif qilsa ham, ularning narxi ancha yuqori bo'lganligi sababli ulardan foydalanish cheklangan.

Raqamli sintezatorlar

An'anaviy (analog) echimlardan farqli o'laroq, raqamli sintezatorlar tayanch (soat) signalidan kerakli chiqish to'lqin shaklini olish uchun raqamli qayta ishlashdan foydalanadilar. Birinchidan, fazali akkumulyator yordamida signalning raqamli namoyishi yaratiladi,

soʻngra chiqish signalining oʻzi (sinusoidal yoki boshqa istalgan shakl) raqamli-analogli konvertor (AROʻ) yordamida hosil boʻladi. Raqamli signalni ishlab chiqarish tezligi raqamli interfeys bilan cheklangan, ammo juda yuqori va analog sxemalar bilan taqqoslanadigan. Raqamli sintezatorlar ham past darajada shovqinni taʻminlaydi. Biroq, raqamli sintezatorning asosiy afzalligi uning fazali akkumulyator uzunligi bilan belgilanadigan juda yuqori chastotali piksellar sonidir (1 Hz dan past). Asosiy kamchiliklar cheklangan chastota diapazoni va signalning katta buzilishlaridir. Raqamli sintezatorning ishchi chastota diapazonining pastki chegarasi gertsiga teng boʻlsa, uning yuqori chegarasi, Kotelnikov teoremasiga muvofiq, soat chastotasining yarmidan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, chiqish signalini rekonstruksiya qilish past chastotali filtrsiz amalga oshirilmaydi, bu chiqish signallari oraligʻini soat chastotasining taxminan 40% bilan cheklaydi.

Yana bir jiddiy muammo – bu raqamli analog oʻzgartirgichdagi konversion xatolar tufayli keraksiz spektral komponentlarning yuqori miqdori. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli sintezator kombinatsiya chastotalarida soxta tarkibiy qismlarni ishlab chiqaradigan chastota mikser kabi oʻzini tutadi. Ushbu komponentlarning chastotali joylashuvini osongina hisoblash mumkin boʻlsa-da, ularning amplitudasi ancha kamroq taxmin qilinadi. Qoida tariqasida, pastki tartibning buzilishi eng yuqori amplituda boʻladi. Shu bilan birga, maʼlum bir sintezning arxitekturasini loyihalashda yuqori darajadagi buzilishlarni ham hisobga olish kerak.

Odatda ChAQS tizimlariga kuchlanish bilan boshqariladigan generator (KBG), chastotaviy diskriminator kiradi. Chastotaviy diskriminator sifatida odatda 57 fazaviy detektor va qoʻshimcha generatordan, masalan, chastota boʻyicha yuqori stabil generatordan olinadigan tayanch signali manbai ishlatiladi. Radioqabul qilishda tayanch signali manbai sifatida maxsus sxema ajratadigan qabul qilinadigan signalning tashuvchi chastotasi ishlatiladi. Deyarli har doim fazaviy detektorga generatorlar signallarining oʻzini emas, balki generatorlar chastotalarini chastotalar boʻlgichlari yoki koʻpaytirgichlari orqali boʻlish yoki koʻpaytirish natijasida olinadigan chastotali signallar beriladi. Bu usul kerakli koeffitsientlarga koʻpaytirilgan chastotalarni qoʻshish va ayirishga imkon beradi va masalan, chastotalar sintezatorlarida qoʻllanadi. Fazaviy detektor kirishiga KBG signallari va tayanch chastotasi signali beriladi. Fazaviy detektor kirishida signallar

chastotalari ogʻanida fazaviy detektor past chastotalar filtri orqali KBGga beriladigan signallar fazalari farqiga proporsional boʻlgan kuchlanishni ishlab chiqaradi. Bu bilan teskari aloqa zanjiri tutashadi va KBG chastotasi tayanch chastotasi boʻyicha sozlanadi. ChAQS zamonaviy elektronikada keng qoʻllanadi, jumladan: – AM va ChM signallarni demodulyatsiyalash; – tonal signallarni dekodlash; – turli elektr dvigatellarning, masalan, diskli toʻplagichlar yuritmalaridagi dvigatellarning aylanish chastotasini stabillash va boshqarish; – oʻlchash asboblari, masalan, chastota oʻlchagichlarda; – chastota sintezatorlarida va h.k.. Chastotani avtomatik qayta sozlash maishiy radioqabul qilgichlarning, shu jumladan televizion qabul qilgichlarning kirish kaskadlarida keng qoʻllanadi va odatda uncha katta boʻlmagan diapazonda geterodin chastotasini avtomatik oʻzgartirishdan (GChAOʻ) iborat. Geterodin chastotasi signalni sifatli qabul qilish uchun zarur qiymatdan oʻzganganida (masalan, haroratning oʻzgarishi keltirib 58 chiqaradigan) GChAOʻ geterodina beriladigan boshqarish signalini geterodinning chastotasi eng yaxshi qabul qilishga mos keladigan tarzda oʻzgartiradi. Televizion qabul qilgichlarda ham satr boʻyicha yoyish chastotasi va fazasini videosignalning sinxronlashtiruvchi impulslari bilan avtomatik qayta sozlash ishlatiladi. ChAQS tizimlari ikkita turlarga ajratiladi: – chastotani chastota boʻyicha avtomatik qayta sozlash tizimlari – ChChAQS; – chastotani faza boʻyicha avtomatik qayta sozlash tizimlari – ChFAQS. ChAQS tizimining funksional va umumlashtirilgan sxemasi ChAQS tizimini umumlashtirilgan boshqarish sxemasi koʻrinishida tasvirlanishiga mos keladi. Bu yerda boshqarish obʻekti boshqariladigan generator (BG) hisoblanadi. Oʻlchash elementining tarkibiga Ar, OChK, ChD kiradi. OChK funksiyasini elektr signallarni boshqariladigan generator chastotasining oʻzgarishiga oʻzgartiradigan kuchaytiruvchi element (KE) bajaradi. Ar – aralashtirgich; OChK – oraliq chastota kuchaytirgichi; ChD – chastotaviy diskriminator (istalgan chastotaviy detektor sxemasi boʻyicha yigʻilishi mumkin); PChF – past chastotalar filtri; UE – boshqaruvchi element; BG – boshqariladigan generator. ChAQS tizimining funksional sxemasi Ar OCK ChD PChF BE BG Ug(t) Us(t). ChAQS tizimining umumlashtirilgan sxemasi Aralashtirgichning kirishiga $\omega_s(t) = \omega_{0s} + \Delta\omega(t)$ chastotali UC signal va boshqariladigan generator chiqishidan $\omega_g(t) = \omega_{0g} + \Delta\omega_g(t)$ chastotali UG kuchlanish beriladi. Chastotani faza boʻyicha avtomatik qayta sozlash (ChFAQS,


ingl. PLL) – boshqariladigan generatorning fazasini u tayanch signalining fazasiga teng bo‘ladigan yoki vaqtga bog‘liq ma‘lum funksiyaga farqlanadigan tarzda rostlaydigan avtomatik rostlash tizimi hisoblanadi. Rostlash manfiy teskari aloqaning mavjudligi tufayli amalga oshiriladi. Boshqariladigan generatorning chiqish signali fazaviy detektorda tayanch signali bilan taqqoslanadi, taqqoslash natijasi boshqariladigan generatorni qayta sozlash uchun ishlatiladi. KE PChF ChD Rostlagich Us , Ikir OCK Ar O‘E BG (OK) I Ita boshq ChFAQS tizimi chastotaviy modulyatsiyalash va demodulyatsiyalash, chastotani ko‘paytirish va o‘zgartirish, chastotaviy filtrlash, kogerent detektorlash uchun tayanch kuchlanishini ajratish va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi. ChFAQS tizimi kirish va tayanch signallarining fazalarini taqqoslaydi va bu fazalar orasidagi farqqa mos xatolik signalini chiqaradi. Xatolik signali keyin past chastotalar filtridan o‘tadi va manfiy tesari aloqani ta‘minlaydigan kuchlanish bilan boshqariladigan generator (KBG) uchun boshqarish signali sifatida ishlatiladi. Agar chiqish chastotasi tayanch signalidan farqlansa, u holda xatolik signali KBGga xatolikni kamaytirish tomonga ta‘sir etish bilan ortadi. Muvozanat holatida chiqish signali tayanch signali chastotasida qayd etiladi. ChFAQS radiotexnika, telekommunikatsiya, kompyuterlar va boshqa elektron qurilmalarda keng ishlatiladi. Bu tizim o‘zgarmas chastota signalini generatsiyalashi, shovqinlashgan kommunikatsion kanaldan signalni qayta tiklashi yoki mikroprotessorlar, YaO‘MIS va boshqalar kabi raqamli mantiqiy sxemalarda sinxronlashtirish signallarini taqsimlashi mumkin. Binobarin, integral sxemada ChFAQS blokini to‘liq yig‘ish mumkin, bu usul ko‘pincha gersning ulushlaridan ko‘plab gigagerslargacha chiqish chastotalarili zamonaviy eletron qurilmalarda ishlatiladi. ChFAQSning tuzilish sxemasi Takt generatori Fazalarni taqqoslash Past chastotalar filtri Kuchlanish boshqaradigan generator Chastotani bo‘lgich 61 ChFAQS qurilmasi ham analog, ham raqamli sxemada yig‘ilishi mumkin. Har ikkala usul bir xil tuzilish sxemasiga ega. Ham analog, ham raqamli ChFAQS sxemasi quyidagi asosiy to‘rtta elementlarni o‘z ichiga oladi: – fazaviy detektor; – past chastotalar filtri; – rostlanadigan generator; – teskari aloqa (ko‘pincha chastota bo‘lgichini o‘z ichiga oladigan). Chastotani raqamli faza bo‘yicha avtomatik qayta sozlash (ChRFAQS). ChRFAQS analog ChFAQSga o‘xshash ishlaydi, lekin to‘liq raqamli sxemalar yordamida amalga oshiriladi. KBG o‘rniga tizim soatlari yoki raqamli

boshqariladigan hisoblagich-bo'lgich ishlatiladi. ChRFAQS ishlab chiqishda va yig'ishda oddiyroq, kuchlanish shovqinlariga kam sezgir (analog ChFAQSga qaraganda), lekin odatda u raqamli generator ishlatilganida kvantlash shovqinining mavjudligi sababli fazaviy shovqinga ega. Buning natijasida ChRFAQS yuqori chastotada ishlash yoki yuqori chastotali tayanch signallarini boshqarish uchun yaramaydi. ChRFAQS ba'zan ma'lumotlarni qayta tiklash uchun ishlatiladi.

2-BOB. RADIOALOQA SIGNALLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISH SXEMALARI


2.1. radioaloqa signallarga raqamli ishlov berish

Signallar turkimida analog (uzluksiz) va raqamli signallar mavjud. Analog signallar uzluksiz funksiya qonuni bo'yicha o'zgaradi va ikki qo'shni sath orasida juda ko'p oraliq qiymatlar bo'lishi mumkin. 2.1-rasmda analog shakllangan SECAM tizimidagi TV(A) va ovoz (B) signallarining bir fragmenti(qismi) ko'rsatilgan.



2.1-rasm. Analog TV va ovoz signallari.

Analog signalga nafaqat uzluksiz signal, balki axborot impulsning kengligi yoki torayishiga bog'liq modulyatsiyalangan (shirotno-impulsnaya modulyatsiya – ShIM) yoki dastlabki holati vaqtga(fazaga) bog'liq bo'lgan FIM (faza-impuls modulyatsiya) signallari ham bo'lishi mumkin va ular 2.2- rasmda keltirilgan.




2.2-rasm. ShIM (a) va FIM (b) signallarning ko'rinishiga misollar.


Raqamli signallar, ikkilik kodlarda analog signalning sath va vaqt bo'yicha diskret o'lchov qiymatlari ifodasidir. Shundan "raqamli" ("digital") termini kelib chiqqan va hozirgi zamon radioelektoron qurilmalariri xarakterlaydi. Signallarni uzatishda, xotirada saqlashda, qayta ishlashda, qabul qilishda analog signal qo'llanilsa tizim analog 16 televizion tizim deyiladi. Bunday tizim qator kamchiliklarga ega: analog signalning shovqinga chidamsizligi, har bir televizion blokning xalaqit signalga, shovqinga chidamsizligi va signal buzilishining mavjud-

ligi. Yana bir salbiy holat bu signalning buzilishi va shovqinlarning har bir zvenoda (blokda) yig'ilib borishi. Bu salbiy holat maxsus effektlar bilan boyitilgan televizion programmalarda ko'proq mujassamlanadi va ularni bartaraf etish uchun qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish talab etiladi. badiiy Maxsus effektlar qurilmalarda Shuning uchun xalaqitlardan himoyalaniş muxim vazifada bo'lib qolmoqda. Signallarga raqamli ishlov berish usullari xalaqitlardan himoyalanişni oshirishdan tashqari ko'pgina boshqa muammolarni yechishga ham sharoit yaratadi. Raqamli tizimlarda, masalan tizim kirishga analog signal kelsa, bu signal kodlanadi va raqamli shaklga o'tkaziladi, ya'ni analog signal diskretlash, kvantlash va kodlanish kabi umumlashgan operatsiyalar bilan raqamli signalga aylantiriladi. Diskretlash jarayoni – bu uzluksiz analog signalni ma'lum aniq vaqtlarda olingan oniy qiymatlar (hisoblar) ketma-ketligi bilan almashtirishdir. Teng taqsimlangan diskretlashda aniq vaqtlar oralig'i Kotelnikov teoremasiga asosan tanlanadi. Ushbu teoremaga asosan har qanday chastota spektri cheklangan uzluksiz analog signal o'rniga, diskretlash chastotasi analog signal yuqori chastotasidan (F_{max}) eng kamida 2 marta katta bo'lgan chastotadagi sonoq qiymatini uzatish kifoya, ya'ni $F_d \geq 2F_{max}$ shart bajarilishi kerak. Misol 2.4. -rasmning a) va b) grafiklarida keltirilgan. Agar diskretlash chastotasi $2F_{max}$ dan kichik bo'lsa, chastotalar ustma-ust tushishi mumkin va qayta tiklangan analog signal tarkibida "qalbaki" aldamchi signal paydo bo'ladi. Bu hodisa ingliz tilida "aliasing" (alias – o'ylab topilgan) deb ataladi. Ushbu "qalbaki" signal hech qaysi filtr bilan tozalanib olinolmaydi va asosiy "haqiqiy" signalni orqaga qaytmas buzilishiga olib keladi. Shuning uchun diskretlash chastotasining qiymati dastlabki analog signalning yuqori chastotasidan ikki marta katta qilib emas, balki 5 – 10 marta katta chastota tanlanadi. Bunday katta qiymatli diskretlash chastotasini tanlash ingliz tilida oversampling (diskretizatsiyadan baland yoki ortiqcha diskretlash) deyiladi va natijada analog signal spektrini tozalashda oddiy past chastotali filtrlar qo'llash mumkin. Ortiqcha diskretlangan signalning diskret chastotasini o'zgartirish uchun sanoqlarning ba'zilarini olib tashlanadi va bu siyraklashtirish (desimatsiya) deb ataladi. Diskretlash chastotasini ko'tarish uchun diskret signal sanoqlari orasiga qo'shimcha sonoq qiymatlari qo'shiladi. Bunday operatsiya interpolyatsiya deb ataladi. Dastlabki analog signalni tiklash uchun yuqori chastotasi qiymati F_{max} bo'lgan ideal PChFd an o'tkaziladi va bu operatsiya interpolyatsiya deyiladi. Televideniya

ko‘proq chastotasi o‘zgarmas (bir xil) diskretizatsiya qo‘llaniladi va bu yoyish (razvertka) chastotasiga bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmasligi bo‘lishi mumkin (2.3-rasm). Qattiq bog‘lanish holatida satrdagi sanoqlar soni tasvirning bir xil elementlariga mos keladi va tasvirga qayd etilgan (belgilangan) ortogonal diskretlash strukturasi hosil bo‘ladi hamda sanoqlar to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi panjaraning bog‘lamasida (uzeli) joylashadi(2.3.a-rasm). Ushbu usul hozirgi vaqtda raqamli televideniya keng tarqalgan.




2.3-rasm. Diskretlashda uning chastotasini ning yoyishga bog‘liq (a) va bog‘liq emas (b) tuzilmasi.



2.4-rasm. Analogli signalni raqamli shaklga o‘tkazish.

Diskretlashdan so‘ng kvantlash jarayoni yoki sanoqning qiymatini (sathini) tegishli aniqlikda o‘lchash jarayoni boshlanadi. Misol sifatida shuni keltirish mumkinki, masalan: ko‘cha teperaturasini o‘lchashda aniqlik plus-minus bir gradus bo‘lishi ahamiyatga ega emas, ammo inson tana haroratini o‘lchashda 0,1 gradus aniqlik talab etiladi. Huddi shu kabi televideniya nechta yorug‘lik sathini uzatishni aniqlash talab etiladi, ya‘ni kvantlash sathini sonini aniqlash .Chunki kvantlash sathining soni tasvirning sifatiga bog‘liq. Shunday qilib, kvantlash ham diskretlashdir faqat vaqt bo‘yicha emas balki sath bo‘yicha (2.4.(b) - rasm). Kvantlash sathlari oralig‘i kvantlashning qadami deyiladi. Sath


son qiymati sifatida eng yaqin yuqori yoki pastki qiymat qabul qilinadi. Shuning uchun kvantlashda analog signalning haqiqiy qiymati va unga yaqinlashgan kvantlangan sath o'rtasidagi farq-kvantlash xatoligi yoki shovqini deyiladi. (2.4.-rasm) Kvantlashning quyi qismi-kvantlash bo'sag'asi deb nom olgan. 2.5-rasmda yorug'lik asta –sekin o'zgargandagi tasvirning holati va uni kvantlash natijasidagi buzilishlar (shovqin qiymati) keltirilgan.



2.5-rasm. Analog-raqam o'zgartirish. Kvantlash.

Rasmda doiralar raqamli filtrning impuls taʼsirining tortish koeffitsientlarining qiymatlarini bildiradi. Aynan shu koeffitsientlar 2.36-rasmda koʻrsatilgan sxemadagi multiplikatorlarning kirishiga beriladi. Aniqlik uchun bu koeffitsientlar toʻgʻri chiziqlar bilan bir-biriga bogʻlangan (shuning uchun xarakteristikalar analog tebranish zanjirining impuls taʼsiriga oʻxshashroq boʻladi). 2.37-rasmga mos keladigan impulsli reaksiya bilan filtrning chastota reaksiyasi 2.38-rasmda keltirilgan. Ushbu rasmdagi absitsa kHz chastotasini, ordinat esa dBdagi filtrning kuchayishini koʻrsatadi.



2.38-rasm. Filtrning chastotali taʼsirining shakli.

2.36-rasmda koʻrsatilgan elektronning kiritilishiga bitta signal darajasiga mos keladigan raqamli kodni qoʻllaymiz. Vaqtning birinchi

daqiqasida barcha ichki filtr registrari nol qiymatlarni o‘z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, ushbu qiymatlarni og‘irliklarga ko‘paytirganda, natijada biz nolga egamiz. Faqat birinchi multiplikatorning chiqishidagi natija farq qiladi. G_0 vazn koeffitsientini kirish signalining birlik qiymatiga ko‘paytirganda, biz multiplikatorning chiqishida g_0 amplituda bo‘lgan signal qiymatini olamiz. Biz allaqachon bilganimizdek, zanjirdagi kechikish parallel registralarning sinxronizatsiya yozuvlariga qo‘llaniladigan soat signalining chastotasi bilan belgilanadi. Birinchi soat zarbasi kelganda, elektronning kirish qismida mavjud bo‘lgan kod birinchi registrga yoziladi (kechikish elementi). Xuddi shu signalda birinchi registrning tarkibi (nol qiymati) ikkinchi registrda, ikkinchi registrning tarkibi uchinchi registrda yoziladi va hokazo. Kelishganimizdek, endi biz filtr kiritishiga signalning nol qiymatiga mos keladigan kodni yuboramiz. Natijada, nolinci kod ikkinchi ko‘paytuvchidan tashqari barcha multiplikatorlarning chiqishida yana bo‘ladi. Bu vaqtdan boshlab birinchi registrda birlik qiymati mavjud bo‘lib, g_1 koeffitsientiga ko‘payish natijasida, ikkinchi multiplikatorning chiqishida biz signal qiymatini g_1 amplituda bilan olamiz. Keyingi soat impulslari kelganda, jarayon takrorlanadi va biz ketma-ket zanjirning chiqish koeffitsientlariga mos keladigan signal qiymatlarini olamiz. Shunday qilib, biz sxemaning odatdagi filtr kabi ishlashiga ishonch hosil qildik va belgilangan filtr xususiyatlarini olish uchun ushbu sxemaning og‘irligini qanday hisoblashni bilib oldik. Darhaqiqat, filtrni olmaslik ajablanarli bo‘lar edi, chunki an‘anaviy analog sxemalar xuddi shu tarzda ishlaydi. Osilatsiya zanjiridagi energiya tokning kirish voltaji va avvalgi barcha qiymatlarning yig‘indisi tufayli asta-sekin to‘planib boradi, fikr bildiruvchi faol RC filtri xuddi shunday ishlaydi. Ko‘rib chiqilgan sxemaning afzalligi shundaki, unda biz impulsning javob koeffitsientlarini o‘zboshimchalik bilan boshqa filtr turlarida mavjud cheklovlarsiz tanlashimiz mumkin. Natijada, biz boshqa sxemalarda amalga oshirilmagan ajoyib xususiyatlarni olishimiz mumkin. Masalan, multiplikatorlarni shu impuls javobiga mos keladigan koeffitsientlar bilan oziqlantirish orqali qat‘iy nosimmetrik filtr impulsining javobini olishimiz mumkin. Shunday qilib, filtr nazariyasidan ma‘lumki, qat‘iy chiziqli fazali javobli filtrni amalga oshirish mumkin. Ushbu xususiyat ma‘lumotlarni uzatish uskunalari yoki televizion signallarni qayta ishlash uchun juda foydali. Oldin muhokama qilingan sxemadan foydalanishning yana bir misoli – Nyquist filtrlarini amalga oshirish.

Ma'lumki, ushbu filtrlarda impuls reaksiyasi uzatilgan belgining davomiyligiga teng ma'lum oraliqlarda nol qiymatlarni aniq qabul qilishi kerak.

2.7. Radiosignallar uzatgichlarini raqamli ko'rishda qurish

Fizikaviy tajribalar texnikasida va radioelekt-ronikaning ko'p sohalarida elektr tebranishlarini hosil qiladigan qurilmalar katta ahamiyatga ega.

Uzgarmas tok manbai energiyasini biror shakl va chastotali o'zgaruvchan tok (kuchlanish) energiyasiga aylantirib beruvchi qurilma elektr signali generatori deb ataladi. Ayrim hollarda maxsus rejimda ishlovchi yuqori chastotali katta quvvatli kuchaytirgichlar ham elektr signali generatori deyiladi. Qurilmada hosil qilinayotgan tebranishning chastotasi va shakli chiziq- li bo'lmagan element xususiyatlariga va qurilmaning sxemasiga bog'liq bo'ladi.

Uyg'otilish – tebranish hosil qilish usuliga qarab generatorlar tashqi va ichki turtki ta'sirida ishlovchi generatorlarga ajratiladi.

Tashqi turtki ta'sirida uyg'onadigan generatorlar, asosan, rezonans kuchaytirgichdan iborat bo'lib, aslida tebranish manbai bo'lmay, balki kam quvvatli signalni kuchaytirib beradi, xolos. Ular yuqori chastotali generator hisoblanadi. Tebranish chastotasi nagruzka konturining rezonans chastotasiga teng bo'lib, amplitudasi tashqi kuch bilan belgilanadi. Bunday generatorlarda tebranish chastotasi kvars kristali orqali berilishi mumkin (kvars generatorlari).

Ichki turtki ta'sirida uyg'onadigan generatorlar o'z-o'zidan tebranish hosil qiluvchi generator bo'lib, ular avtogenerator deb ham ataladi. Ularda tebranish chastotasi va amplitudasi qurilmaning xususiy parametrlari orqali belgilanadi.

Tebranish shakliga qarab generatorlar garmonik va garmonik bo'lmagan – relaksatsion tebranish generatorlariga ajratiladi.

Tebranishining shakli sinuslar (kosinuslar) qonuni bo'yicha o'zgaradigan tebranish ishlab chiqaradigan generatorlar garmonik tebranish generatora deb, aks holda esa, garmonik bo'lmagan – relaksatsion tebranish generatora deb ataladi.

Garmonik tebranish generatorlari past va yuqori chastotali generatorlarga bo'linadi. Ularga RC va LC – generatorlar misol bo'ladi.


Qurilmada tebranish hosil bo'lish hodisasi generatsiya deb ataladi. Uning vujudga kelishi uchun ma'lum shartlar bajarilishi kerak. Ularni generatsiya shart- lari deb ataladi.

Kuchaytirgichlarda musbat teskari bog'lanish ($\varphi = 0$) bo'lganda (2.1) kuchaytirish koeffitsientining teskari bog'lanish parametri K_r ortishi bilan o'sishini, kuchaytirish jarayoni stabilligi kamayishini aniqlagan edik. Ana shu nostabillik o'z-o'zidan tebranish hosil bo'lishining zarur sharti deb qabul qilinadi. Haqiqatan ham

$$\left. \begin{array}{l} \varphi_k + \varphi_\beta = 2\pi \cdot n \\ K\beta = 1 \\ n=0,1,2,\dots \end{array} \right\} \quad (2.1)$$

shartlar bajarilganda sistemaning natijaviy kuchaytirish koeffitsienti K_t cheksizga aylanadi. Bu sistema- maga chekli amplitudali signal ta'sir etganda uning chiqishida cheksiz amplitudali tebranish hosil bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Lekin cheksiz amplitudali tebranish fizikaviy ma'noga ega emas. Shuning uchun (6.1) nfoda qurilmaning chiqishida chekli amplitudali tebranish hosil bo'lishi uchun kirish signalining hojati yo'qligini ko'rsatadi. Bu sistem aning o'z-o'zidan uyg'onshidir.

Demak, har bir o'z-o'zidan uyg'onuvchi generator musbat teskari bog'lanishli kuchaytirgichdan iborat bo'lar ekan. Unda kirish signali vazifasini U_t teskari bog'lanish kuchlanishi bajaradi (2.39-rasm).



2.39- rasm. O'z-o'zidan uyg'onuvchi generatorning blok sxemasi.

Shunga ko'ra (2.1) ifoda generatsiya shartlari deb ataladi. Uning birinchi ifodasi fazalar balansa yoki fazalar sharti deb, ikkinchnei esa, amplitudalar balansa yoki amplitudalar uiapru deb ataladi.

Fazalar sharti teskari bog'lanish zanjirining U_t chiqish kuchlanishi U_c kirish signalining o'rnini bosa olishini ifodalasa, amplitudalar sharti bu kuchla- nishning tebranishii tutib turish uchun yetarliligini ifodalaydi (2.40 a va b-rasm).

K , β , φ_k va $\varphi\beta$ kattaliklar chastotaga bog‘liq miqdordir. Shuning uchun (6.1) generatsiya shartlari yo yakka chastota uchun, yoki bir vaqtda bir necha chastota (chastota spektri) uchun bajarilishi mumkin. Agar ular yakka chastota uchun bajarilsa, generator sinusoidal (kosinusoidal) tebranishlar hosil qiladi va garmonik tebranishlar generatori bo‘ladi. Agar generatsiya shartlari chastotalar spektri uchun bajarilsa, garmonik bo‘lmagan tebranishlar hosil bo‘ladi va generator relaksatsion tebranish generatori bo‘ladi.

Shuni aytish kerakki, (6.1) generatsiya shartlari tebranish hosil bo‘lishining zarur shartidir. Lekin hosil bo‘ladigan tebranishlarning statsionar amplitudasi va tebranish shaklini baholash uchun yetarli emas.

Amaliy jihatdan amplitudalar sharti birdan kattaroq qilib olinadi ($K\beta \geq 1$)-Bu hosil qilinadigan tebranishlar amplitudasining o‘shishini ta‘minlashi kerak. Lekin generator kuchaytiruvchi elementining xarakteristikasi egri chiziqli bo‘lgani uchun uning cheksiz o‘shishiga yo‘l qo‘ymaydi, ya‘ni amplitudaning o‘shishini chegaralaydi.


LC – generator

LC – generator yuqori chastotali generator bo‘lib, musbat teskari bog‘lanishli rezonans kuchaytirgichdan iborat. Uning tuzilish sxemalari xilma-xil bo‘ladi va turli belgilar asosida bir-biridan farqlanadi. Masalan, teskari bog‘lanish zanjirining ulanish usuliga qarab generatorlar sig‘im, induktiv va konduktiv bog‘lanishli generatorlarga ajratiladi. Manbaning nagruzka konturi bilan bog‘lanishiga qarab generator sxemasi ketma-ket va parallel manbali deb ataladi. Ketma-ket manbali sxemada kollektor yoki stok tokining o‘zgarish tashkil etuvchisi nagruzka konturidan o‘tsa, parallel sxema bundan mustasno bo‘ladi. Ukdagi o‘zgarish va o‘zgaruvchan tashkil etuvchilar bir-biridan ajratilgan bo‘ladi.

2.40.-rasmda LC – generatorning soddalashtirilgan prinsipl sxemasi ko‘rsatilgan.

U teskari bog‘lanish zanjiri transformator bog‘lanishli (L_1 g‘altak) ketma-ket manbali sxemadir. Unda hosil bo‘ladigan tebranishlar, asosan, nagruzka konturining parametrlari bilan xarakterlanadi.

Rezonans vaqtida kontur sof rezitiv qarshilik ta‘biatiga ega, chunki $\psi_k = 0$. Shuning uchun konturning asl-ligi yetarli bo‘lsa, fazalar sharti kuchaytirgichning boshqaruvchi elementidagi va teskari bog‘lanish zanjiridagi faza siljishlari orqali ifodalanadi.



2.40-rasm. Tranzistorli LC – generatorning prinsipial sxemasi

Kuchai- tiruvchi elementdagi faza siljishi $\psi_k = \pi$, teskari bog‘lanish zanjiridagi faza siljishi esa, L_1 va L g‘altaklarning o‘ramlari yo‘nalishiga bog‘liq. U «0» yoki « π » ga teng bo‘lishi mumkin. Agar o‘ramlar yo‘nalishi $\varphi\beta = \pi$ bo‘ladigan qilib tanlansa, fazalar sharti bajariladi va generator rezonans chastotaga yaqin chastotali tebranish ishlab chiqaradi. Uning garmoniklik darajasi konturning tanlash qobiliyati bilan belgilanadi. Konturning tanlash kobiliyati yetarlicha katta bo‘lsa, ω_0 chastotadan chetlashnsh bilan konturning to‘liq qarshiligi tez kamayadi va faza siljishlarni vujudga keladi. Demak, generatorda hosil bo‘ladigan tebranishlar garmonik bo‘lishi uchun konturning aslligi katta, teskari bog‘lanish zanjirining uzatish koeffitsienti kichik bo‘lishi kerak. Aks holda (6.1) generatsiya shartlari chastotalar sohasi uchun bajarilib, tebranishlar garmonik bo‘lmay qoladi.

Generatorning 2.40-rasmda ko‘rsatilgan sxemasida sodir bo‘ladigan tebranish jarayonlarining tabiati deyarli bir xil bo‘ladi. Lekin tranzistorlarning parametrlari turlicha bo‘lishi ularda ayrim o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Bipolyar tranzistorli sxemada nagruzka konturi unipolyar tranzistorli sxemadagidan kuchliroq shuntlanadi. Bu tranzistorning kirish qarshiligi (emitter – baza) kichik bo‘lishiga bog‘liq. Bundan tashqari, nagruzka konturi kollektor zanjirida bo‘lganda generator katta o‘zgaruvchan kuchlanishda ishlasa, kollektor– baza kuchlanishi tebranish davrining ayrim qismida teskari kuchlanishga ega bo‘lib qoladi. Natijada kollektor o‘tishi ochiq (to‘g‘ri ulanishda) bo‘lib, kontur nisbatan kichik qarshilik bilan shuntlanib qoladi. Bu hosil bo‘ladngan tebranishlar shaklining bu- zilishiga olib keladi. Bundan tashqari, bipolyar tran- zistorlar nisbatan katta inertlnkka ega. Bu asosiy

bo‘lmagan tok tashuvchilarning bazada sust harakat jilimi bilan belgilanadi va emitter – baza kuchlanishi bilan kollektor toki orasida kechikishni, ya‘ni qo‘shimcha faza siljishini hosil qiladi. U fazalar shartiga ta‘sir etadi va generatsiya chastotasining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Binobarin, bipolyar tranzistor konturning aslligini unipolyar tranzistorga nisbatan ko‘proq o‘zgartadi.

Bipolyar tranzistorln sxemaning kamchiliklarini yo‘qotish uchun unga qo‘shimcha zanjirlar kiritiladi. Masalan, tranzistorning kirish va chiqish qarshiligi- ning shuntlash ta‘sirini kamaytirish uchun konturning qisman ulannsh sxemasidan foydalaniladi; inersionlik tufayli hosil bo‘ladigan qo‘shimcha faza siljishini yo‘qotish uchun sxemaga maxsus faza so‘ndirish zanjiri kiritiladi va boshqalar. Bular sxemaning murakkablashishiga va generatorni o‘rganishda murakkab ekvivalent sxemalardan foydalanishga olib keladi. Shuning uchun generatordagi jarayonlarning mohiyatini aniqlash uchun unipolyar tranzistorln sxemani ko‘ramiz.

Umumiy holda generatorda sodir bo‘ladigan jara- yonlar murakkab bo‘lib, chiziqli bo‘lmagan differensial tenglamalar orqali ifodalanadi va taqribiy yechish usullaridan foydalanib yechiladi. Yechimning aniqligi sxemadagi qanday xususiyat aniqlapayotganiga bog‘liq. Generatsiya shartlarinigina aniqlashda tenglamani chiziqli deb hisoblash usulidan foydalanish mumkin bulsa, tebranishning statsionar amplitudasi va chastotasini aniqlashda –kvazichiziqli usuldan foydalanish kerak bo‘ladi. Generatordagi tebranish jarayonlarining ixtiyoriy vaqt momentidagi holatini aniqlashda chiziqli bo‘lmagan tenglamalarni yechishning aniq usullaridan foydalaniladi. Unga sust o‘zgaruvchi amplitudalar usuli (Van – der – Pol usuli) misol bo‘ladi. Genera- torning chiziqli nazariyasidan foydalannb, tsbranish- larni tutib turish shartlarini aniqlaylik. Buning uchun nagruzka konturi (2.40b- rasm) uchun Kirxgof tenglamasini yozamiz:

$$\left. \begin{aligned} L \frac{dI_1}{dt} - \frac{1}{C} \int I_2 dt + I_1 R &= 0 \\ I_c &= I_1 + I_2 \end{aligned} \right\} \quad (2.2)$$

Generatorda tebranish hosil bo‘lish jarayonida konturning induktivlik tarmog‘idagi tok asosiy hisoblanadi. Shuning uchun (2.2) sistemani unga nisbatan soddalashtirilsa,

$$LC \frac{d^2 I_1}{dt^2} + RC \frac{dI_1}{dt} + I_1 = I_c \quad (2.3)$$

ko‘rinishdagi tenglama hosil bo‘ladi.

Generatorning boshlang‘ich uyg‘onish vaqtida tebranishlar amplitudasi kichik bulgani uchun tranzistorni chiziqli element deb qarasaq, (2.4) ifodaga asosan stok toki quyidagicha ifodalanadi:

$$I_c = S(U_3 + DU_c) \quad (2.4)$$

Bunda


$$U_3 = M \frac{dI_1}{dt} \quad \text{va} \quad U_c = -\left(RI_1 + L \frac{dI_1}{dt} \right) \quad (2.5)$$

Minus ishora U_z va U_c kuchlanishlarning qarama-qarshi fazada o‘zgarishini ifodalaydi.

(2.4) va (2.5) ifodalarni (6.3) tenglamaga qo‘ysak;

$$\frac{d^2 I}{dt^2} + \frac{1}{L} \left[R - \frac{S(M-DL)}{C} \right] \frac{dI}{dt} + \left(1 + \frac{R}{R_1} \right) \frac{1}{LC} I = 0 \quad (2.6)$$

ko‘rinishdagi ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglama hosil bo‘ladi. U (2.5) tenglamaga o‘xshash bo‘lib, nagruzka konturidagi erkin tebranishlarni ifodalaydi. Binobarin, generatorni 2.41-rasmda tasvirlangan ekvivalent tebranish konturi bilan almashtirish mumkin.



2.41-rasm. LC-generatorning ekvivalent sxemasi.

Uning parametrlari quyidagicha bo‘ladi:

$$L_{\text{ЭКВ}} = L; \quad C_{\text{ЭКВ}} = \frac{C}{1 + \frac{R}{R_1}}; \quad R_{\text{ЭКВ}} = R - \frac{S(M-DL)}{C} = R' + R_{(-)} \quad (2.7)$$

Demak, ekvivalent konturnshgg rezitiv qarshiligi nagruzka konturining qarshiligidan

$$R_{(-)} = -\frac{SM}{C} \quad (2.8)$$

manfiy qarishlikka farq qiladi. U konturga davriy ravishda kirayotgan energiya miqdorini ifodalaydi.

(2.6) tenglamaning umumiy yechimi yakka konturdagi erkin tebranishlarning (2.56) yechimi bilan bir xil bo'lib, nagruzka konturining aslligi yetarlicha bo'lganda ($\omega_0 L \gg R$ va $R_1 \gg R$) quyidagicha ifodalanadi:

$$U_0 \cdot e^{-\delta^* t} \cdot \sin \omega^* t \quad (2.9)$$

Unda, $U_0 = \frac{E}{\omega^* L_{\text{эKB}}}$ – konturdagi boshlang'ich tebranishlar amplitudasi

$$\omega^* = \frac{1}{\sqrt{L_{\text{эKB}} \cdot C_{\text{эKB}}}} = \frac{1}{\sqrt{LC}} \sqrt{1 + \frac{R}{R_i}} \approx \omega_0 \quad \text{– generatsiya chastotasi}$$

$$\delta^* = \frac{R_{\text{эKB}}}{2L_{\text{эKB}}} = \frac{1}{2L} \left[R - \frac{S(M - DL)}{C} \right] \quad \text{– ekvivalent konturning so'nish}$$

darajasi.

Demak, generatorda amplitudasi eksponensial qonun bo'yicha o'zgaradigan tebranishlar hosil bo'lar ekan. Uning o'zgarish tezligi δ^* koefitsientga bog'liq. Lekin yakka konturdagi erkin tebranishlar koefitsienta δ dan farqli, δ^* kattalik kontur elementlari L va S lardan tashqari, yana tran-zistorning S qiyalik koefitsienti va teskari boglanishni ifodalovchi M o'zaro – induksiya koefitsientam bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, yakka kontur uchuy δ musbat o'zgarmas son bo'lsa, generatorda δ^* ham musbat, ham manfiy qiymatga ega. Shuning uchun generator tenglamasining (2.7) yechimi xolis konturdagi erkin tebranishlarning (2.6) ifodasidan tubdan farq qiladi.

Xususiy xrlar bilan tanishaylik.

I. hol: $\delta^* > 0$ yoki $R' > R(-)$

Bu holda generatorda uyg'otiladigan tebranishlar so'nuvchi bo'ladi (2.42a-rasm).


Chunki konturda yo'qotiladigan energiya kiritiladigan energiyadan katta, ya'ni har bir tebranish davrida yo'qoladigan energiya to'ldirilmay qoladi.

II. hol: $b^* < 0$ yoki $R' < R(-)$,

Bu holda konturga kiritilayotgan energiya unda yo'qolayotgan energiyadan katta bo'ladi. Shuning uchun uyg'otilgan tebranishlar amplitudasi o'suvchi bo'lishi kerak (6.4 b- rasm).

III. hol: $\delta^* = 0$ yoki $R' = R(-)$,

Bu holda tebranishlar amplitudasi o'zgarishsiz bo'lib, u so'nmas bo'ladi. Chunki har bir davrda yo'qotila-yotgan energiya to'liq qoplanadi. Natijada tebranish jarayoni cheksiz uzoq vaqt o'zgarmas amplituda bilan davom etaveradi.



2.42-rasm. Tebranish amplitudasining δ^* koeffitsientga bog'liqligi.

Nazariy jihatdan III hol eng qulay bo'lib hisoblanadi. Amaliy jihatdan esa, u turg'un emas. Chunki biror sababga ko'ra tenglik buzilsa, tebranish so'nib qoladi. Shuning uchun amaliy jihatdan II xususiy hol maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki shu holdagina o'z-o'zidan uyg'onish uchun yetarli sharoit hosil bo'ladi. Shunga ko'ra generatsiya shartini umumlashtirilib

$$R \leq R(-) \text{ yoki } Rekv \leq 0 \quad (2.10a)$$

ko'rinishida ifodalanadi. Uni quyidagicha o'zgartirib yozaylik:

$$\frac{M}{L} \geq \frac{RC}{LS} + D \quad (2.10b)$$

Bunda $\frac{M}{L} = \frac{U_3}{U_c} = \beta$ va $\frac{RC}{LS} = \frac{1}{Z_p \cdot S}$ ekanini hisobga olsak, (6.10 b)


ifoda

$$\beta \geq D + \frac{1}{Z_p S} \quad (2.11)$$

ko‘rinishga keladi. Uni Barkgauzen formulasi deb ataladi va o‘z-o‘zidan uyg‘onuvchi generatorning asosiy tenglamasi hisoblanadi. U sxema parametrlarining generatorda tebranish hosil bo‘lishiga ta‘sirini ifodalaydi. Lekin tebranish amplitudasining turg‘unligi to‘g‘risida bevosita ma‘lumot bermaydi. Uni aniqlash uchun S qiyalik koeffitsientining zatvor kuchlanishiga qanday bog‘liqligini bilish kerak, chunki u (D va R_i ham) differensial va dinamik kattalikdir. Boshqacha qilib aytganda, tebranishning statsionar amplitudasini aniqlash uchun xarakteristikasining egriligini hisobga olish kerak.

Kvadratura modulyatorlari

Polyar modulyatorlar chastota, faza yoki amplituda modulyatsiyasi kabi analog modulyatsiyalarni amalga oshirishni osonlashtiradi. Raqamli modulyatsiya usullaridan qutbli modulyatorlar MSK va GMSK modulyatsiyasiga imkon beradi. Kvadratsiya amplituda modulyatsiyasi (QAM) yoki yuqori bit tezligi bilan fazali modulyatsiya kabi modulyatsiya turlarini amalga oshirish, kvadratsiya modulyatoridan foydalanganda osonroq bo‘ladi. Kvadrata amplituda modulyatsiyasini amalga oshirish uchun ikkita kanal kerak bo‘ladi: fazali kanal I va kvadratsiya kanali Q. Modulyatorning chiqishida multiplikatorlarning chiqish signallari yig‘iladi. Kvadratura kanallarida o‘zgarishlar siljishini amalga oshirish uchun bir vaqtning o‘zida ROMda sinus va kosinus jadvali yozilishi mumkin. Kvadratura modulyatorining blok diagrammasi 2.43-rasmda keltirilgan.



2.43-rasm. Kvadratura modulyatorining blok diagrammasi.

Ushbu sxemada I va Q signallarining ko‘paytirgichlar kiritilishiga tatbiq etiladigan I va Q komponentlari 0 dan f_v gacha bo‘lgan chastota diapazonida hosil bo‘lishi kerak. Ushbu sxemada, shuningdek qutbli modulyator zanjirida, umuman butun zanjir tezligini oshiradigan oraliq registrlar bo‘lishi kerak, ammo ular raqamning ravshanligini oshirishi ko‘rsatilmagan. Ko‘pgina hollarda signalning kvadrati tarkibiy qismlarining soat chastotasi yuqori chastotali signalni yaratish uchun zarur bo‘lgan soat chastotasiga to‘g‘ri kelmaydi. Odatda kvadratsiya signallarining namuna olish tezligini oshirish uchun interpolatsiya qiluvchi filtrlardan foydalaniladi.

2.8. Radio qabul qilgichlarni raqamli ko‘rinishda tadbiq etish

Radio qabul qilgich qurilmalarini tuzishda, qo‘shni kanallarga bo‘lgan tanlama xususiyatiga o‘ta kattiq talablar qo‘yiladi. Real vaziyatlardan kelib chiqqan holda, shunday vaziyatlar uchraydiki, uzoqda joylashgan stansiyadan signalni qabul qilish kerak bo‘lib, faqat qo‘shimcha shart sifatida, qo‘shni kanalda yaqin masofada joylashgan quvvati o‘ta yuqori uzatgich ishlayotganligini inobatga olish kerak bo‘ladi.

Bu holda foydali signalning sathi 0,2 mkV, qo‘shni uzatgichning quvvati esa 100 Vt deb hisoblaylik. Radio qabul qilgich qurilmaning kirishidagi uzatgich tomonidan keltiriluvchi kuchlanishning sathini hisoblab chiqamiz:

$$U = \sqrt{P \cdot R_{kir}} = \sqrt{100 \cdot 50} = 70 \text{ V}$$

Davomiga foydali signalni normal darajada qabul qilish uchun, qanchalik darajada bostirilishi kerakligini aniqlab olamiz. Odatda, normallashtirilgan qabul signal/shovqinning 12 dB ga teng (to‘rt marotaba) nisbatida amalga oshiriladi. Binobarin, shovqinni quyidagi sathgacha bostirish kerak bo‘ladi:

$$U_{shov} = 0,2/4 = 0,05 \text{ mkV}$$

Bundan kelib chiqqan holda, shovqinni quyidagi darajada bostirishimiz kerakligi aniqlanadi:

$$K_{bos} = U_{shov} / U_{qo'sh.shov} = 70 / 0,05 \cdot 10^{-6} = 1,4 \cdot 10^9 \text{ marotaba} = 183 \text{ dB}$$


Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan birorta ham qurilma bu talablarni bajarishga qodir emas. Analog ko‘rinishidagi radio qabul qilgich qurilmalar qo‘shni kanalning signalini 80 dB ga bostirish imkonini

beradi. Izohlangan vaziyatni oldini olish uchun, baʼzi tashkiliy choralarni koʻrish kerak boʻladi.

Qoʻshni kanalni tanlanmasi boʻyicha yuqoriroq parametrlarga ega boʻlgan radio qabul qilgich qurilmalarini ishlab chiqilishi, radioelektron vositalarni oʻzaro joylashuviga boʻlgan talablarni sezilarli darajada susaytirish imkonini yaratadi va shunga asosan radioefir oʻtkazish qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

Raqamli filtrlar osonlik bilan 120 dB gacha boʻlgan keraksiz signallarni bostirish imkonini beradilar. Shu bilan bir vaqtda, analog filtrlarda keraksiz kanallarni bostirishning chegaraviy qiymati 80 dB kattalik bilan cheklanadi. Aynan shu tavsiflarga koʻra, radio qabul qilgich qurilmalarini ishlab chiqilishida, toʻlaligicha raqamli texnologiyalardan foydalanishga harakat qilinadi.

Raqamli koʻrinishda yigʻilgan radio signallarni qabul qilgich qurilmalarining strukturaviy sxemalari analog sxemotexnikada qoʻllanilovchi klassik koʻrinishdagi sxemalardan deyarli farqlanmaydilar. Eng keng tarqalgan sxemalardan boʻlib, qabul qilinuvchi chastotani oraliq chastotaga oʻtkazib beriluvchi oʻta geterodin sxemalar hisoblanadilar. Oʻta geterodin qabul qilgich qurilmasining yuqori chastotali traktining strukturaviy sxemasi 2.44-rasmda keltirilgan.



2.44-rasm. Oʻta geterodin qabul qilgich qurilmasining strukturaviy sxemasi.

Bu sxemada qabul qilinayotgan signalni chastotasini oraliq chastotaga moslashtiruvchi oʻtkazgich tomonidan oʻtkazilgandan soʻng, foydali signal asosiy tanlanma filtri yordamida (ATF) ajratib olinadi.

Analog ko‘rinishidagi sxemalarda demodulyatorning (DM) optimal rejimini ta‘minlash uchun kuchaytirgichlar talab qilinadilar.

O‘ta geterodin traktini raqamli elementlardan yig‘ilganida, shuni inobatga olish kerakki, odatda raqamli filtrlar kuchaytirish effektiga ega bo‘lib, bu ko‘rinishdagi sxemalarda kuchaytirgich kerak bo‘lmasligi mumkin.

Chastotani raqamli o‘zgartirgichlari

Yaxshi tanlanma hususiyatiga ega bo‘lgan filtrlarni faqatgina ma‘lum bir chastotalarda hosil qilish mumkin. Shu kabi tavsiflarga ega bo‘lgan, chastotalarni o‘zgartira oladigan va shu davrda tavsiflarini o‘zgarimas ushlab tura oladigan filtrlarni yaratish amaliy jihatdan imkonsiz deb hisoblaniladi. Bu holat analog qabul qilgichlarni ishlab chiqilishidayoq ma‘lum bo‘lgan edi.

Aynan shuning uchun odatda, kirish signali oldindan ma‘lum bo‘lgan chastotaga o‘zgartiriladi. Shu ko‘rinishdagi chastota oraliq chastota deb nomlanadi.

O‘zgartirgichning vazifasi bo‘lib, qabul qilinayotgan signalning spektrini oldindan aniqlangan chastotaga buzilishsiz o‘zgartirish hisoblaniladi. Radio qabul qilgich qurilmalarining tuzilishi nazariyasiga asosan ma‘lumki, berilgan chastota diapazonini oraliq yoki nolinci chastotaga o‘tkazilishini, qanday tuzilmaga ega bo‘lishidan qat‘iy nazar, ko‘paytirgich qurilmasi eng yaxshi amalga oshiradi.

Buning uchun kirish signalini geterodinning sinusoidal kuchlanishiga ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Ko‘paytirgich chiqishidagi kuchlanishni (yoki signalning raqamli hisoblari) quyidagi formula yordamida ifodalaniishi mumkin:

$$U_{chiq} = A_c * \sin(\omega_c t) * \sin(\omega_a t)$$

Ma‘lumki, bu ifoda trigonometrik aylantirmalar yordamida quyidagi ko‘rinishga olib kelinishi mumkin:

$$U_{chiq} = 1/2 (\cos((\omega_a - \omega_c)t) - \cos((\omega_a + \omega_c)t)).$$


Bush shuni anglatadiki, ko‘paytirgichning chiqishidagi qabul qilinayotgan signal va geterodinning chastotalar farqi va yig‘indisiga teng bo‘lgan chastotalarga o‘tkaziladilar. Odatda, chastota pastroq qiymatlar tomoniga amlga oshiriladi. Past qiymatlar tarafiga o‘zgartirishlar olib borilganida, oraliq chastotaning qiymati quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$\omega_{o'zg} = \omega_a - \omega_c.$$

Aynan shu chastota tovushli filtr yordamida ajratib olinadi. Muammo shundaki, analog sxemalar ko'paytirish amalini ba'zi cheklanishlar bilangina amalga oshirishlari mumkin. Natijada, chastota o'zgartirgichining chiqishida signal va geterodinning bostirilmagankuchlanishi paydo bo'lib, signal va geterodin garmonikalarining o'zgartirish mahsuli paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, chastotani analog o'zgartirgichlari, ko'paytirish amalini faqatgina chastota va kuchlanishning ma'lum bir diapazonida amalga oshirishlari mumkin. Bu holat kirish va chiqish signalining katta dinamik diapazoni bilan bog'liq bo'lib, o'zgartirgich tokining ahamiyatli darajada o'zgarishiga olib keladi. Minimal va maksimal toklar nisbatining qiymatlari bir necha darajani tashkil etishi mumkin. Ishchi tokning bu ko'rinishdagi diapazon o'zgarishida, elektron qurilmaning istak darajasidagi tavsiflarini ta'minlash qiyin vazifalardan hisoblaniladi.

Raqamli ko'paytirgich, ko'paytirish amalini bevosita matematik amal ko'rinishida amalga oshiradi. Shuning uchun, biz oldindan ruhsat etilgan halaqit qiluvchi signallarni sathini hisoblab chiqishimiz mumkin. Talab etilgan hollarda, bu sath darajasini pasaytirish mumkin, buning uchun ko'paytirgichning razryadligini oshirish yoki kirish signalining diskretizatsiya chastotasini oshirishning o'zi yetarli hisoblaniladi. Raqamli qabul qilgichning strukturaviy sxemasi 2.45-rasmda keltirilgan.



2.45-rasm. Raqamli qabul qilgichning strukturaviy sxemasi.

Raqamli to'rt burchakli demodulyator

Raqamli qabul qilgich qurilmalarida chastotani o'zgartirilishi bir yo'lga nolinch chastotaga o'tkazilish bilan amalga oshiriladi. Murakkab ko'rinishli modulyatsiyali signallarni qabul qilinishida

signalning nafaqat amplitudaviy, balki fazaviy tashkil etuvchilarini aniq qabul qilinishi muhim hisoblaniladi.

Qabul qiliniyotgan signalning fazasini yo‘qotib qo‘ymaslik uchun, asosiy tanlanmani amalga oshiruvchi raqamli filtrning chiqishidagi signaldan uning sinfazaviy I va to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etuvchilari ajratib olinadilar. Buning uchun signal trigonometrik funksiyalarga $\sin(\omega_{qqt})$ va $\cos(\omega_{qqt})$ ko‘paytiriladi. Ko‘paytirgichning chiqishida sinusoidal funksiyaga mos signal shakllantiriladi va u quyidagi formula bilan ifodalaniladi:

$$\begin{aligned}U_{chiq}(t) &= (I(t) * \cos(\omega_{ot}) + Q(t) * \sin(\omega_{ot})) * \sin(\omega_{ot}) = \\ &= Q(t) * \sin^2(\omega_{ot}) + 1/2 I(t) * \sin(2\omega_{ot}) = \\ &= 1/2 Q(t) - 1/2 I(t) * \cos(2\omega_{ot}) + 1/2 I(t) * \sin(2\omega_{ot}).\end{aligned}$$


2.9. Dasturlanuvchi kommutatsiyalanuvchi bloklar

Dasturlanuvchi mantiqiy integral mikrosxemalar. Mantiqiy IMS negiz elementlari tuzilishiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi: diodli – tranzistorli mantiqiy elementlar (DTM); tranzistor – tranzistorli mantiq elementlari (TTM); tok qayta ulagichlari asosidagi emitterlari bog‘langan mantiq elementlari (EBM); MDYa – tranzistorlarda yasalgan elementlar; injeksion manbali elementlar (I²M). Elektron kalit turi mantiq turi bilan aniqlanadi.

Agar kalit sxemasi tarkibida tranzistordan tashqari boshqa elektr radioelementlar (rezistor, diod) mavjud bo‘lsa, bu holat integratsiya darajasini pasaytiradi va shu sababli bu mantiq turi o‘rta va katta integratsiyali raqamli integral mikrosxemalar negiz elementlari sifatida qo‘llanilmaydi. Quyida zamonaviy raqamli integral qurilmalarda qo‘llaniladigan negiz elementlar ko‘rib chiqiladi.

Tranzistor – tranzistorli mantiq elementlari (TTM). Bu mantiq turida elektron kalitlar bilan boshqariladigan ko‘p emitterli tranzistor (KET)da bajarilgan invertor qo‘llaniladi. Chiqishida oddiy invertor bo‘lgan TTM sxemasi 2.46 a-rasmda keltirilgan.

X1 va X2 kirishlar mantiqiy bir potentsialiga ega (2,4 V) deb faraz qilaylik. Bunda KET emitter o‘tishlari berk bo‘ladi va tok quyidagi zanjir orqali oqib o‘tadi: kuchlanish manbai Y_{eM} – rezistor R_I – KETning ochiq bo‘lgan kollektor o‘tishi VT1 tranzistor bazasiga yo‘nalgan bo‘ladi, shu sababli VT1 to‘yinish rejimiga o‘tadi va uning kollektorida mantiqiy nol past potentsiali o‘rnatiladi (0,4 V).



2.46-rasm. TTM sxemasi.

Endi esa, ikkala kirishga kichik kuchlanish potentsiali (mantiqiy nol potentsiali) berilgan deb faraz qilaylik. Bu holatda KET emitter o‘tishlari kollektor o‘tish kabi to‘g‘ri yo‘nalishda siljigan bo‘ladi. KET baza toki ortadi, shu tranzistor kollektor toki, demak, VT1 baza toki esa sezilarli kamayadi. KET tok asosan quyidagi yo‘nalishda oqib o‘tadi: kuchlanish manbai Y_{EM} – rezistor $R1$ – KET baza – emitteri – kirishdagi signal manbai – umumiy shina. VT1 tranzistor baza toki deyarli nolga teng bo‘lganligi sababli, bu tranzistor berkiladi va sxemaning chiqishida yuqori kuchlanish darajasi (2,4 V – mantiqiy bir) yuzaga keladi.

Ko‘rinib turibdiki, faqat bitta kirishga mantiqiy 0 berilsa holat o‘zgarmaydi. Demak, biror kirishda mantiqiy 0 mavjud bo‘lsa chiqishda mantiqiy 1 hosil bo‘ladi. Qachonki barcha kirishlarga mantiqiy 1 berilsagina chiqishda mantiqiy 0 hosil bo‘ladi. Haqiqiylik jadvalini tuzib bu element 2HAM-EMAS amalini bajarishini ko‘ramiz. Ko‘rib o‘tilgan bu element kichik xalaqitlarga bardoshligi, kichik yuklama qobiliyati va yuklama sig‘imi S_{Yu} (katta $R2$ qarshilik orqali)ga ishlaganda, kichik tezkorlikka ega ekanligi sababli keng ko‘lamda qo‘llanilmaydi.

Murakkab invertorli TTM sxemasi ko‘rib o‘tilgan sxemaga nisbatan yaxshilangan parametrlarga ega (1, b-rasm). Bu element uch bosqichdan tashkil topgan:

- kirishda $R0$ rezistorli ko‘p emitterli tranzistor (HAM mantiqiy amalini bajaradi);
- $R1$ va $R2$ rezistorli VT1 tranzistorda bajarilgan faza kengaytirgich;

- VT2 va VT3 tranzistorlar, $R3$ rezistor va VD diodda bajarilgan ikki taktli chiqish kuchaytirgichi.


Bu sxema nisbatan kichik chiqish qarshilikka ega bo'lib, yuklama sig'imidagi qayta zaryadlanishni tezlashtiradi.

Sodda sxemadagi kabi, bu sxemada ham chiqishda U^l daraja olish uchun, KET biror kirishiga mantiqiy nol daraja berilishi kerak. Bu vaqtda VT1 va VT3 tranzistorlar berkiladi, VT1 kollektoridagi kuchlanish katta bo'lganligi sababli VT2 ochiladi. S_{Yu} yuklama sig'imi VT2 va diod VD orqali zaryadlanadi. $R3$ rezistor katta yuklanishdan saqlagan holda VT2 tranzistor orqali tokni cheklaydi

KET barcha emitterlariga U^l daraja berilsa VT1 va VT3 tranzistorlar to'yinadi, VT2 tranzistor esa deyarli berkiladi. S_{Yu} yuklama sig'imi to'yingan VT3 tranzistor orqali tez zaryadsizlanadi. TTM sxemalarni tezkorligini yanada oshirish maqsadida ularda diod va Shottki tranzistorlari qo'llaniladi. Bu modifikatsiya TTMSH deb belgilanadi.

Emitterlari bog'langan mantiq elementi (EBM). EBM elementi (2.47-rasm) DK kabi tok qayta ulagichi asosida bajariladi. Ikki mantiqiy kirishga ega bo'lgan bir yelka ikki tranzistordan iborat bo'ladi (VT1 va VT2), keyingi yelka esa – VT3 dan tashkil topadi.


Yuklama qobiliyatini oshirish va signal tarqalishi kechikishini kamaytirish maqsadida qayta ulagich VT4 tranzistorda bajarilgan emitter qaytargich bilan to'ldirilgan. VT3 bazasiga Ye_0 – tayanch kuchlanishi beriladi va bu bilan uning ochiq holati ta'minlanadi. Ixtiyoriy biror kirishga (yoki ikkala kirishga) mantiqiy birga mos keluvchi signal berilsa unga mos keluvchi tranzistor ochiladi, natijada I_0 tok sxemaning o'ng yelkasidan chap yelkasiga o'tadi. VT4 tranzistor baza toki kamayadi va u berkiladi va chiqishda mantiqiy nolga mos potensial o'rnatiladi. Agar ikkala kirishga mantiqiy nolga mos signal berilsa, u holda VT1 va VT2 tranzistorlar berkiladi, VT3 esa ochiladi. $R1$ orqali oqib o'tayotgan tok VT4 tranzistorni ochadi va sxemaning chiqishida mantiqiy birga mos kuchlanish hosil bo'ladi. Bu sxema 2YoKI-EMAS amalini bajaradi. Iste'mol quvvati $20 \div 50$ mVt, tezkorligi esa $0,7 \div 3$ ns ni tashkil etadi.



2.47-rasm. Emitterlari bog‘langan mantiq elementi.

Bir turdagi MDYa – tranzistorlarda yasalgan elementlar (n – MDYa).

2.48-rasmda n – kanali induksiyalanuvchi MDYa – tranzistorlarda bajarilgan sxema keltirilgan.



2.48-rasm. n – kanali induksiyalanuvchi MDYa – tranzistorlarda bajarilgan sxema.


Yuklama tranzistori VT0 doim ochiq. Chiqishda juda kichik kuchlanish darajasi U^{0}_{CHIQ} ni ta‘minlash maqsadida ochiq VT1 va VT2 tranzistorlarning kanal qarshiliklari VT0 tranzistor kanal qarshiligidan kichik bo‘lishi kerak. Shu sababli VT1 va VT2 tranzistorlar kanali qisqa va keng qilib, yuklamadagi tranzistor kanali esa – uzun va tor qilib yasaladi. Biror kirishga yoki ikkala kirishga mantiqiy bir darajasiga mos keluvchi musbat potensial berilsa, ($U^{1}_{KIR} > U_{BO \cdot S}$), bir yoki ikkala tranzistor ochiladi va chiqishda mantiqiy nol o‘rnatiladi ($U^{0}_{CHIQ} < U_{BO \cdot S}$). Agar ikkala kirishga ham mantiqiy nol berilsa, u holda VT1 va VT2

tranzistorlar berkiladi. Chiqishdagi potensial mantiqiy birga mos keladi. Element 2YoKI –EMAS amalini bajaradi. Iste‘mol quvvati $0,1 \div 1,5$ mVt, tezkorligi esa – $10 \div 100$ ns ni tashkil etadi.

O‘KIS va KISlarda KMDYa va I²M mantiqiy elementlari qo‘llaniladi. Ular tarkibida rezistorlar bo‘lmaydi va mikrotoklar rejimida ishlaydilar. Shu sababli kristallda kichik yuzani egallaydilar va kam quvvat iste‘mol qiladilar. KISlarda elementlar soni 10^5 ta bo‘lganda bir element iste‘mol qilayotgan quvvat 0,025 mVT dan oshmasligi kerak.


Komplementar MDYa – tranzistorlarda yasalgan mantiqiy elementlar (KMDYaM). Ikki kirishli element sxemasi 2.49-rasmda keltirilgan. Ikkaola kirishga mantiqiy nolga mos signal berilsa n – kanalli VT1 va VT2 tranzistorlar berkiladi, r – kanalli VT3 va VT4 tranzistorlar ochiladi.

Berk tranzistorlarning kanalidagi tok juda kichik ($<10^{-10}$ A). Demak, manbadan tok deyarli iste‘mol qilinmaydi va sxemaning chiqishida Yem ga yaqin potensial o‘rnatiladi (mantiqiy bir darajasi). Agar biror kirish yoki ikkala kirishga mantiqiy bir darajasi berilsa, VT1 va VT2 tranzistorlar ochiladi va element chiqishida potensial nolga yaqin bo‘ladi. Element 2YoKI-EMAS amalini bajaradi. Iste‘mol quvvati $0,01 \div 0,05$ mVtni, tezkorligi esa $10 \div 20$ ns ni tashkil etadi.



2.49-rasm. Komplementar MDYa – tranzistorlarda yasalgan mantiqiy elementlar (KMDYaM).

Integral – injeksion mantiq elementi (I²M). Kalit komplementar bipolyar tranzistorlar juftligidan tashkil topgan bo‘lib, n-p-n turli VT1 tranzistor ko‘pkollektorli bo‘lib, uning baza zanjiriga p-n-p turli VT2 ko‘pkollektorli tranzistor ulangan. Bu tranzistor injektor nomini olgan bo‘lib, barqaror tok generatori vazifasini bajaradi (2.50, a-rasm.)



2.50-rasm. Injektor.

VT1 tranzistor emitter – kollektor oralig‘i kalit vazifasini bajaradi. Signal manbai va yuklama sifatida xuddi shunday sxemalar ishlatiladi. Agar kirishga mantiqiy birga mos keluvchi yuqori potensial berilsa, VT1 tranzistor ochiladi va to‘yinish rejimida bo‘ladi. Uning chiqishidagi potensial nol potensialiga mos keladi. Kirishga mantiqiy nolga mos keluvchi potensial berilsa, VT1 tranzistorning emitter o‘tishi berkiladi. Kovaklar toki I_Q (qayta ulanish toki) VT1 tranzistorning kollektor o‘tishini teskari yo‘nalishda ulaydi. Buning natijasida VT1 chiqish qarshiligi keskin ortadi va uning chiqishida mantiqiy bir potentsiali hosil bo‘ladi. Ya‘ni mazkur sxema yuqorida ko‘rilgan sxemalar kabi invertor vazifasini bajaradi. Mantiqiy amallarni bajarish invertor chiqishlarini metall simlar bilan birlashtirish natijasida amalga oshiriladi. 2.50, b-rasmda HAM amalini bajarish usuli ko‘rsatilgan. Haqiqatdan ham, agar X1 yoki X2 kirishlardan biriga yuqori potensial berilsa U_{KIR}^1 , natijada birlashgan chiqishlarda (A nuqta) past potensial hosil bo‘ladi U^0 . Natijada \bar{x}_1 va \bar{x}_2 invers o‘zgaruvchilarning kon‘yuksiyasi bajariladi. Ular VT1 va VT3 invertor chiqishlarida hosil bo‘ladi: $y = \bar{x}_1 \cdot \bar{x}_2$. I²M elementining tezkorligi 10÷100 ns va iste‘mol quvvati 0,01÷0,1 mVt. Kristalda bitta I²M elementi KMDYa –elementga nisbatan 3÷4 marta kichik, TTM – elementiga nisbatan esa 5÷10 marta kichik yuzani egallaydi.

Ko'rib o'tilgan mantiqiy IMS negiz elementlarining
asosiy parametrlari jadvali

Parametr	Negiz element turi		
	TTM	TTMSh	$n - MDYa$
Kuchlanish manbai, V	5	5	5
Signal mantiqiy o'tishi ($U^1_{CHIQ} - U^0_{CHIQ}$), V	4,5-0,4	4,5-0,4	TTM bilan mos keladi
Ruxsat etilgan shovqinlar darajasi, V	0,8	0,5	0,5
Tezkorligi, $t_{K. O'RT}$, ns	5-20	2-10	10-100
Iste'mol quvvati, mVt	2,5-3,5	2,5-3,5	0,1-1,5
Yuklama qobiliyati	10	10	20
Parametr	Negiz element turi		
	KMDYa	EBM	I ² M
Kuchlanish manbai, V	3-15	- 5,2	1
Signal mantiqiy o'tishi ($U^1_{CHIQ} - U^0_{CHIQ}$), V	Yep-0	(-1,6)-(-0,7)	0,5
Ruxsat etilgan shovqinlar darajasi, V	0,4Ep	0,15	0,1
Tezkorligi, $t_{K. O'RT}$, ns	1-100	0,7-3	10-20
Iste'mol quvvati, mVt	0,01-0,1	20-50	0,05
Yuklama qobiliyati	50	20	5-10

Asosiy raqamli IMS seriyalarining mantiq turlari

Mantiq turi	Raqamli IMS seriya raqami
TTM	155, 133, 134, 158
TTMSh	130, 131, 389, 599, 533, 555, 734, K530, 531, 1531, 1533, KR1802, KR1804
EBM	100, K500, 700, 1500, K1800, K1520
I ² M	KR582, 583, 584
r – MDYaTM	K536, K1814
n – MDYaTM	K580, 581, 586, 1801, 587, 588, 1820, 1813
KMYaTM	164, 764, 564, 765, 176, 561

Turli vazifalar uchun mo‘ljallangan KIS va O‘KISlar yasashdagi universallik va kichik tannarx kabi afzalliklarga ega. Bu uncha katta bo‘lmagan hajmdagi apparaturalarni ishlab chiqarishda juda muhim sanaladi. Buning uchun IS ishlab chiqaruvchi kompaniyalar yagona, ya‘ni universal fotoshablonlar majmuidan foydalanadilar. Talab etilgan algoritmi esa bevosita ishlab chiqaruvchiing o‘zi ichki apparaturani o‘zgartirib (dasturlash yordamida) hosil qiladi. Tanlangan ish algoritmi uchun dasturlashga tayyor mantiqiy KIS *sodda mantiqiy integral sxema*(SMIS) deb atashadi

Ma‘lumki, MAFni algebraik ifodalashda yoki diz‘yunktiv, yoki kon‘yunktiv normal shakl (DNSh va KNSh) qo‘llaniladi.

Kon‘yunksiya bloki HAM mantiqiy elementlar matritsasidan, diz‘yunksiya bloki esa – YoKI mantiqiy elementlari matritsasidan iborat bo‘lishi kerak. Ularni ketma-ket ulab va sozlab ixtiyoriy turdasi MAFni tashkil etish mumkin. Sozlash uchun tayyor bo‘lgan SMIS ko‘paytma va yig‘indi matritsalaridan tashqari kirish buferi – invertorlar matritsasiga ham ega bo‘ladi.


SMISlarni uch xil usul bilan dasturlash mumkin:

HAM matritsasini o‘zgartirmasdan turib, YoKI matritsasini tuzilmasini dasturlash;

YoKI matritsasini o‘zgartirmasdan turib, HAM matritsasini tuzilmasini dasturlash;


ikkala matritsa tuzilmasini dasturlash.

Dasturlashning birinchi usuli DDXQlarni, ikkinchi usul – DMM ISlarini, uchinchi usul esa – DMMlarni tuzishda qo‘llaniladi.




2.51-rasm. Uchta mantiqiy o‘zgaruvchili SMISning dasturlashdan avvalgi tuzilma sxemasi.

x_i kirish o‘zgaruvchilarining inversiyasi kirish buferining invertor matritsalarida amalga oshiriladi. Dasturlashdan oldin barcha shinalar o‘zaro shartli ravishda (/) belgi bilan ifodalangan simlar bilan bog‘langan.



2.52-rasm. Uchta mantiqiy o‘zgaruvchili SMISning dasturlashdan keyingi tuzilma sxemasi.

Dasturlovchi elementlar bo‘lib eruvchan qayta ulagichlar hisoblanadi. Dastlabki holatda barcha simlar butun bo‘ladi. DMMga ma‘lumot yozish ba‘zi diolar (tranzistorlar)dan tok impulslari o‘tkazish natijasida eruvchan simlarni kuydirish orqali amalga oshiriladi. Natijada shinalar orasidagi ba‘zi bog‘lanishlar uziladi. Bu jarayon *dasturlash* deb ataladi va maxsus tashqi qurilma – programmatorlar yordamida amalgi oshiriladi.



2.53-rasm. Diodlar va BTLar yordamida shinalarni ulash.


Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxema (DMIS, ingliz tilidan programmable logic device, PLD) bu raqamli integral sxemalarni yaratish uchun qo‘llaniladigan elektron komponent bo‘lib, oddiy raqamli mikrosxemalardan farqli ravishda, dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning ishlashidagi mantiq amallari yaratilish jarayonida emas, balki dasturlash asosida amalga oshiriladi. Bu yerda dasturlash deganda, integral sxemaning ichki tuzilmasini o‘zgartirilishi nazarda tutilib, uning tuzilmasi shunday o‘zgartiriladiki, u belgilangan mantiqning funksional algebrasini apparat darajasida ta‘minlashi kerak bo‘ladi.

Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemaning tuzilmasi mantiqning funksional algebrasiga (bul algebrasi) asoslangan bo‘lib, quyidagi mantiqiy elementlardan tashkil topgan bo‘ladi:

- «VA» mantiqiy elementi (konyunktorlar);
- «YoKI» mantiqiy elementi (diz‘yunktorlar);
- «YO‘Q» mantiqiy elementi (invertorlar);
- to‘g‘ri, invers va uch stabil chiqishli bufer elementlari;
- inkor «YoKI» mantiqiy elementi;
- D- yoki T-turdagi triggerlar;
- konfiguratsiya multipleksorlari.

Har qanday mantiqiy funksiya diz'yunktiv normal shakldagi ko'paytmalar yig'indisi sifatida taqdim etilishi mumkinligi sababli, dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning bazaviy tuzilmaviy komponentlari sifatida «VA» yoki «YOKI» mantiqiy elementlarning matritsaları namoyon bo'ladilar.


Matritsalarining chiqishida makroyacheyka (Macrocells) joylashgan bo'lib, uning konfiguratsiyasi dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning turiga bog'liq bo'ladi. Makroyacheykalar turli triggerlardan, uchstabil buferlardan, signalni qutbini boshqaruvchi elementlardan va h.z. tashkil topgan bo'lishi mumkin. Signalni makroyacheykadan o'tish yo'li (konfiguratsiyasi) dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning tuzilmaviy strukturasi bilan qat'iy belgilangan bo'lishi mumkin yoki multipleksorlar yordamida boshqarilishlari mumkin. Mantiqiy matritsaning o'lchamlari va makroyacheykalarining konfiguratsiyasi dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning funksional imkoniyatlarini va integratsiya darajalarini belgilab beradilar. Shu bilan birga dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalar ko'p miqdordagi teskari aloqalarga ega bo'ladilar, ular yordamida integral sxemalarning holatidan to'liq foydalanish va turli sinfdagi ketma-ket avtomatlarni shakllantirish imkoni hosil qilinadi.



2.54-rasm. Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemaning umumiy lashtirilgan tuzilmaviy sxemasi.

Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemaning asosiy dasturlanuvchi komponenti bo'lib, uning mantiqiy matritsaları hisoblanadilar. Mantiqiy matritsalar boshlang'ich kirishdagi yoki teskari aloqadagi har qanday signalni istalgan konyunktor yoki diz'yunktor bilan bog'lanishini ta'minlab beradilar. Talab etilayotgan mantiqiy funksiyalardan kelib

chiqqan holda, bu bog‘lanishlarning ba‘zilari uziladilar, ba‘zilari esa signallarni kommutatsiyasi uchun xizmat qiladilar. Bog‘lanishlarni uzish imkoniyati dasturlanuvchi elementning (peremqchka) signal yoylarini bog‘lanish joylarida mavjudligi bilan ta‘minlanadi. Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemaning tayyorlanish texnologiyasidan kelib chiqqan holda, peremqchka o‘zi bilan eruvchan metall elementini yoki hotira yacheykasini namoyon etadi.



2.55-rasm. «VA» matritsasining konyunktorlaridan birining shartli belgilanishi.


2.55-rasmda keltirilgan konyunktor dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarda term deb nomlanadi. Dasturlanmagan holda A, B, C signallarining har biri konyunktorning kirishi deb hisoblanilib, «3VA» mantiqiy funksiyasini hosil qiladi.

Bitta yoki bir nechta peremqchkalarni uzgan holda (rasmda "X" belgisi bilan belgilanadi), bu signallarni har qanday konyunksiyasini olish mumkin.




2.56-rasm. Ehtimoliy mantiqiy funksiyaning yig‘ilish misoli.

Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarda har bir term signallarning nafaqat to‘g‘ri, balki invers ko‘rinishdagi yoylarga ham ega bo‘ladilar. Umumiy holda har bir termning miqdori 100 ga va undan ortig‘iga yetadi.



2.57-rasm. Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalardagi mantiqiy «YoKI» matritsasining tuzilmaviy sxemasi.

Rasm-4 da ko'rsatilgan dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalardagi mantiqiy «YoKI» matritsasining tuzilmaviy sxemasi ikki turda bo'ladi: dasturlanuvchi va o'zgarmas. «YoKI» dasturlanuvchi matritsasi «VA» matritsasiga o'xshash bo'lib, har qanday termni istalgan diz'yunktor bilan kommutatsiyasini amalga oshiradi.



2.58-rasm. O'zgarmas turdagi «YoKI» matritsalarining sxemaviy ko'rinishi.

O'zgarmas turdagi «YoKI» matritsalar har bir diz'yunktor bilan bog'lanishini ta'minlaydilar. Bu ko'rinishdagi termlarning soni odatda 8 dan 16 gacha bo'ladi. O'zgarmas turdagi «YoKI» matritsalar unchalik universal deb hisoblanmaydilar, ammo lekin loyihalash uchun soddaroq va oddiyroq deb hisoblaniladi.


Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning sinflanishi

Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning sinflanishini o'rganishda, uning tuzilmaviy ko'rinishi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu ko'rinishdagi sinflanishning asosiy kriteriyasi bo'lib, mantiqiy matritsalarining kommutatsiya usullari va ko'rinishlarining mavjudligi hisoblaniladi. Shu hususiyatga ko'ra quyidagi dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning sinflarini keltirish mumkin:

- dasturlanuvchi mantiqiy matritsalar;
- dasturlanuvchi matritsali mantiq;
- dasturlanuvchi makro mantiq;
- dasturlanuvchi kommutatsiyalanuvchi matritsali bloklar;
- dasturlanuvchi ventil matritsalar.

Dasturlanuvchi mantiqiy matritsalar – dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning eng an'anaviy ko'rinishlaridan biri bo'lib, «VA»

va «YoKI» dasturlanuvchi matritsalariga ega. Chet el adabiyotlarida bu sinfga mos keluvchi dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalar qo‘yidagi qisqartmalar bilan ifodalanadilar: FPLA (Field Programmable Logic Array) va FPLS (Field Programmable Logic Sequencers). Bizda keng qo‘llaniluvchi bu ko‘rinishdagi dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning bu sinfga qo‘yidagi sxemalar xizmat qiladilar: K556PT1, PT2, PT21.




2.59-rasm. Dasturlanuvchi mantiqiy matritsaning sxemaviy tuzilmasiga misol.

Dasturlanuvchi mantiqli matritsa tuzilmasining kamchiligi bo‘lib, dasturlanuvchi «YoKI» matritsasining resurslaridan yetarli darajada foydalanmaslik hisoblaniladi. Shu sababli soddaroq va shu bilan birga effektivroq dasturlanuvchi matritsali mantiqning arxitekturasi taklif etilgan. Ingliz terminologiyasida Programmable Array Logic (PAL).

Dasturlanuvchi matritsali mantiq bu «VA» dasturlanuvchi matritsasiga yoki o‘zgarmas «YoKI» matritsasiga ega dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemaning ko‘rinishi hisoblaniladi. Bu sinfga ko‘pchilik zamonaviy dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalar kiradi. Misol tariqasida amaliyotda keng qo‘llaniladigan dasturlanuvchi

mantiqiy integral sxemalarni keltirish mumkin, ularga IS KM1556XP4,XP6, XP8,XL8, INTEL, ALTERA, AMD, LATTICE kabi chet el yetakchi ishlab chiqaruvchilarining dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalari. Dasturlanuvchi matritsali mantiqning eng keng tarqalgan turidan bo‘lib, faqatgina bitta (dasturlanuvchi) «VA» matritsasiga ega dasturlanuvchi mantiqiy integral sxema hisoblanadi, unga INTEL firmasining 85C508 sxemasi misol bo‘la oladi.




2.60-rasm. Dasturlanuvchi matritsali mantiq sxemaviy tuzilmasiga misol.

2.60-rasm dan ko‘rinib turibdiki, «YoKI» DD3 elementlarining kirishi kommutatsiyalanmaydigan turli. Shundan kelib chiqqan holda, har bir navbatdagi «YoKI» elementining kirishiga texnologik belgilangan elementning chiqishi va «VA» dasturlanuvchi matritsasi bog‘lanadi.

Dasturlanuvchi makro mantiq – bu bitta dasturlanuvchi «VA-YO‘Q» yoki «YoKI-YO‘Q» matritsali dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning turi hisoblanib, ko‘p miqdordagi invers teskari aloqalarning hisobiga murakkab mantiqiy funksiyalarni shakllantira oladigan sxemalar hisoblanadilar. Bu sinfga dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalarning «VA-YO‘Q» matritsali SIGNETICS firmasining

PLHS501 va PLHS502 mikrosxemalarini yoki «YoKI-YO‘Q» matritsali EXEL firmasining XL78C800 mikrosxemalarini misol keltirsa bo‘ladi.



2.61-rasm. Dasturlanuvchi makro mantiq sxemaviy tuzilmasiga misol.

3-BOB. MIKROPROTSESSOR TIZIMINING STRUKTURAVIY ASOSI

3.1. Mikroprotsektor va mikroprotsektor tizimlari haqida umumiy tushuncha, asosiy xarakteristikalari

Mikroprotsektor tizimlari asosini tashkil qiladigan asosiy tushunchalar quyidagilardan iborat [11-12]:

Elektron tizim –har qanday elektron uzal bo‘lib, ma‘lumotlarni qayta ishlovchi blok, jihoz yoki kompleksdir.

Masala – elektron tizimga bog‘liq bo‘lgan funksiyalar to‘plami.


Tezkorlik – elektron tizim funksiyalarining bajarilish tezligi ko‘rsatkichi.

Moslashuvchanlik –Tizimning turli masalalarga moslashuvchanligi.

Interfeys – mantqiy va konstruktiv qurilmalararo ma‘lumot almashish moslashmasi.

Mikroprotsektor elektron tizimning bir qismi bo‘lib, kiritish va chiqarish signallarini qayta ishlash qurilmasi sifatida qabul qilingan (3.1-rasm).

Kiritish va chiqarish signallari sifatida analog signallar, raqamli signallar, raqamli kodlar, raqamli kodlar ketma-ketligi qabul qilingan.



3.1-rasm. Elektron tizim.


Tizim ichida ma‘lumotlar yoki signallar saqlanadi. Agar tizim raqamli bo‘lsa, analog signallar analog – raqam o‘zgartirish qurilmalari asosida raqamli signallarga o‘zgartiriladi yoki aks.

Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash raqamli ko'rinishda bo'ladi. Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash sxemotexnik tizimlarga uzviy bog'liq.

Har qanday tizim maxsus bir vazifani yechish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Maxsus tizim har bir elementi to'liq ishlaydi. Maxsus tizim maksimal tezkorlikni ta'minlaydi. Eng asosiy kamchiligi, har bir vazifa uchun qaytadan loyihalash va tayyorlash kerak. Ushbu masalani hal qilish uchun shunday tizim qurish kerakki, ushbu tizimda qurilmalarni har doim o'zgartiravermaslik kerak.

Dasturiy boshqariladigan tizim ushbu masalani hal qiladi. U larni mikroprotsessori tizimlari ta'minlaydi (3.2-rasm).




3.2-rasm. Dasturiy boshqarish tizimi.

Universallik bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Maksimal murakkab vazifalarni yechimini topish oddiy vazifalar yechimini topishga qaraganda ko'p vositalarni talab qiladi. Shuning uchun universal tizim shunday bo'lishi kerakki, murakkab vazifalarni yechishda barcha vositalardan maksimal foydalanish, oddiy vazifalarni yechishda esa kerakli vositalardan foydalanish kerak.

Har qanday mikroprotsessori tizimlarning yadrosi mikroprotsessori yoki protsessori (processor) hisoblanadi. Boshqacha qilib "qayta ishlagich", aynan mikroprotsessori – bu shunday uzelki, hamma ma'lumotlarni qayta ishlashni MPT ichida amalga oshiradi. Qolgan

uzellari yordamchi funksiyalarni bajaradi: ma'lumotlarni saqlash, tashqi qurilmalar bilan aloqa, foydalanuvchi bilan muloqot. MP arifmetik va mantiqiy amallarni, kodlarni vaqtinchalik saqlash, MPT lari uzellararo ma'lumot almashish va boshqa vazifalarni bajaradi. Protssorni tizim miyasi bilan solishtirsa bo'ladi.


Protssor hamma operatsiyalarni ketma-ket bajaradi. Birinchi bo'limdan ma'lumki MP operatsiyalarni parallel bajarishi mumkin. Ma'lumotlarni ketma-ket bajarish afzalligi shundan iboratki bir takt jarayon ichida murakkab operatsiyalarni bajarish mumkin. Lekin operatsiyalarni bajarilishi ularning oson yoki murakkabligiga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, MP har qanday operatsiyalarni bajaradi, lekin hamma operatsiyalarni yagona uzeldan o'tkazadi(3.3-rasm.).



Axborotni boshqaruvi (dastur)
3.3-rasm. MP da axborotlar oqimi

Protssor asosini buyruqlar tizimi tashkil qiladi. Buyruqlar tizimi va strukturasi protssorning tezligi, moslanuvchanligi, foydalanish uchun ulayligini belgilaydi.

MP buyruqlari o'ntadan bir necha yuztagacha bo'lishi mumkin. Buyruq kodlari turli razryad uzunliklariga ega bo'ladi. Har bir buyruqning o'z bajarilish vaqti bor, shuning uchun dastur bajarilish vaqti faqat dasturga emas, balki qanday buyruqlar bajarilishiga bog'liq. Protssor strukturasi: registrlar, arifmetik mantiqiy qurilmalar, multipleksorlar, buferlar va registrlar kiradi. Hamma uzellar ish jarayoni protssorni umumiy tashqi takt signali orqali amalga oshiriladi. Protssor murakkab raqamli qurilmani tashkil qiladi (3.4-rasm.).



3.4-rasm. Oddiy MP ning tuzilishi.

Buyruqlarni tanlashni boshqarish sxemasi buyruqlarni o‘qiydi va deshifratsiya qiladi. Birinchi mikroprosessorlarda bir vaqtning o‘zida oldingi buyruqni o‘qish hamda keyingi buyruqni tanlash imkoniyatlari mavjud emas edi, chunki prosessor bu operatsiyalarni o‘z ichiga olmagan edi. Lekin hozirgi 16-razryadli prosessorlarda bu imkoniyat mavjuddir, unda konveyer (ketma- ketlik) nomli buyruq mavjud bo‘lib, bu buyruq orqali bir buyruq bajarilish jarayonida keyingi buyruqlarni tanlash, amalga oshirish imkoniyati mavjuddir. Bu orqali esa ish jarayoni tezlashadi. Konveyer o‘z ichiga uncha katta bo‘lmagan prosessor xotirasi (tashqi shinani ozod qilish bilan)ni o‘z ichiga oladi, ya‘ni qisqa harakat orqali bu xotiraga bir qancha buyruqlarni yozib olishi mumkin. Bu buyruqlar konveyer kabi prosessordan o‘z holati bo‘yicha o‘qiydi. Lekin, bajarilayotgan buyruq xotira yacheykasiga o‘tadi, xotiradagi ko‘plab qolib ketayotgan (navbatda) buyruqni rad etadi. Lekin bu buyruqlar dasturlarda kam uchraydi.

Konveyerning takomillashuvi tufayli unga kesh-xotiraning qo‘shilishi bo‘ldi. Bu bilan prosessor buyruqlarni bajarish jarayonida, keyingi bajarilishi lozim bo‘lgan buyruqlarni o‘z ichida saqlaydi. Kesh-

xotira qanchalik katta bo'lsa, protsessorning keyingi o'tish jarayonida navbatda turgan buyruqlarni saqlanishi imkoniyati bor. Kesh xotirada protsessorning ayni damda bajarilishi lozim bo'lgan buyruqlar saqlanadi. Buyruqlarni yanada tezroq qayta ishlash uchun zamonaviy protsessorlarda tanlash va deshifratsiyalash majmuasi, parallel buyruqlar konveyeri holati ishlatiladi. Bu bilan buyruqlarning o'tish davri va boshqa usullarini bilish mumkin.

Arifmetik-mantiqiy qurilma. Bu qurilma protsessor buyruqlarini bajarilishidagi ma'lumotlarni qayta ishlash kabi vazifalarni bajaradi. Qayta ishlash misolida mantiqiy operatsiyalarni misol qilib ko'rsatish mumkin (Misol uchun: mantiqiy "VA", "YOKI" kabilar), hamda operandlar ustida bitli operatsiyalar va arifmetik operatsiyalar (ko'paytirish, bo'lish kabilar) shular jumlasidandir. Bajarilayotgan buyruq turi qaysi kodlar bilan operatsiya bajarilishi hamda ularning natijalarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash ketma- ketligi tartibi – arifmetik yoki mantiqiy funktsiyalar bilan tanishib chiqamiz. Ko'p hollarda bu hol juft operandlar bilan ishlaydi, ya'ni bajaruvchi operand dest (destination) va operand manbaa src(source). Bu yo'riqnomaning odatiy ishlash sxemasi quyidagicha: $dest = F(dest, src)$, bu yerda F- ikkita o'zgaruvchidan bir nechta funktsiyalardir. Bu esa protsessorning yo'riqnomani (registr, xotira, konstanta yo'riqnomada) bajarilishidagi yuqoridagi ko'rsatkichlardan ikkilik soniga o'zgartiradi va ular ustida bajarilgan natijalarni dest (destination) qismidan biriga yozib qo'yadi. Yana xuddi shu funktsiyani boshqa bir juftli son uchtadan operatsiya bajarishi uchun boshqa bir operandlar juftligi kerak bo'ladi. AMQ (Arifmetik mantiqiy qurilma) ning tezkorligi protsessorning ishchanligini ko'rsatib beradi. Faqatgina AMQ ning takt chastotaning taktli signali muhim bo'lmasdan, taktning soni ham u yoki bu buyruqni bajarish uchun muhimdir. Ishchanlikni oshirish maqsadida ishlab chiqaruvchilar buyruqni bajarish vaqtini bir taktga tenglashtiradilar, shu bilan AQM ning yuqori chastota ishlashini ta'minlaydi. Buni amalga oshirishning yo'llaridan biri, AMQ dagi bajarilishi mumkin bo'lgan buyruqlar sonini kamaytirishdan va protsessorlar yaratilishida uning tarkibida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan buyruqlar sonini kamaytirishdan iboratdir (RISC – protsessorlari). Yana bir boshqa yo'li bir vaqtda buyruqlarni bajaruvchi AMQ lardir.

Maxsus murakkab o'zgaruvchan operatsiyalar uchun esa protsessor tizimlarida oddiy buyruqlar va maxsus ichki dasturlar bilan dastur-

langan, lekin keyinchalik maxsus hisoblovchi qismlar yaratildi. Matematik soprotsessorlar, ya'ni vaqti bilan shu soprotsessorlarga almashtirish mumkin. Zamonaviy mikroprotsessorlarda matematik soprotsessorlar mikroprotsessorning tarkibiy qismiga kiradi.

Protsessor registrlari – bu tezkor xotira va vaqtinchalik turli xil kodlarni saqlash uchun, ya'ni ma'lumotlar, manzillar va ishchi kodlardir. Bu kodlar orqali bajarilayotgan operatsiya sezilarli darajada protsessorda tez bajariladi, umumiy holda protsessor tarkibida bunday registrlarning mavjudligi ijobiy natijalarga olib keladi. Tez harakatli protsessor registr razryadiga uzviy bog'liqdir. AMQ da razryadli registrlar tashqi razryadlar bilan mos kelmasligi mumkin.

Bajarish funksiyasi bo'yicha ichki registrlar ikki turga bo'linadi. Birinchisi, Intel kompaniyasining registrlari, bu turdagi registrlar aniq holdagi tarkibiy javoblarni mujassamlashtiradi. Bir tomondan bunday funksiyalar bu turdagi registrlarni ishlatayotgan korxonalar uchun ish ko'lamini yengillashtiradi, buyruqlar bajarilish vaqti qisqaradi. Boshqa tomondan esa, bu registrlar protsessorning barqarorligini pasaytirib, dasturning ishlashini sekinlashtiradi. Masalan, qurilmalardagi ayrim arifmetik kirish va chiqish operatsiyalari bitta registr – akkumulyator orqali amalga oshiriladi, natijada ayrim jarayonlarning bajarilishi bo'yicha registrlar orasida sakrash amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Ikkinchi turi bo'lsa, hamma (deyarli hammasi) registrlarning bir xil vazifani bajarishi, ya'ni DEC firmasining T-11 16-razryadli protsessorlaridir. Bu yo'l bilan yuqori barqarorlikga erishiladi, lekin protsessor sxemasini murakkablashtiradi. Bundan tashqari, oraliq protsessor turlari ham mavjud. Bu turga Motorola kompaniyasining MS68000 turli protsessoridagi mavjud bo'lgan registrlarning yarmi ma'lumotlar uchun ishlatilgan, lekin ular o'zaro almashinuvga ega. Qolgan yarmi esa manzillar uchun, bu ham o'zaro almashinuvga ega.

Holat (bayroq) registri- ham muhim ahamiyatga ega, lekin bu ham protsessor tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu registrning tarkibida ma'lumotlar to'g'risida yoki manzillar to'g'risida ma'lumotni ichiga olmaydi. U o'z ichiga protsessorning holati so'zini (PXS) ichiga oladi. Bu so'z (bayroq)dagi har bir bit tarkibida bajarilgan buyruqning natijasi to'g'risida ma'lumot bo'ladi. Masalan, nolinci natijaning biti mavjud, bu natija qachonki bajarilgandan so'ng buyruqning natijasi nolga teng bo'ladi. Bu bit(bayroq)lar shartli o'tishlarda bajariladi. Yana bu

registrlarda gohida boshqarish buyruqlari bo‘ladi, bu ayrim buyruqlarning o‘tish rejimini aniqlaydi.

Uzilishlarni boshqarish sxemasi – bu protsessorga kelib tushgan uzilishlar to‘g‘risidagi so‘rovlar, dasturdagi uzilishlar boshlang‘ich manzilini aniqlaydi. PSW (Processor Status Word) – protsessor holati so‘zi. Masalan, nol natijali holat bor deb faraz qilsak, agar oldingi bajarilgan buyruqning natijasi nolga teng bo‘lsa yoki holat noldan farq qilsa unda protsessor xotirasidan o‘chiriladi. Bu bitlar buyruqlar orqali shartli o‘tishda ishlatiladi. Masalan, nolli natija bo‘lgandagina buyruqlar o‘tish holatiga o‘tadi. Bu registrda gohida ayrim buyruqlarning rejimini aniqlash maqsadida boshqaruv bayroqlariga ega bo‘ladi.

Uzilishlarni boshqarish sxemasi- bu sxema protsessorga kelib tushayotgan uzilishlar to‘g‘risidagi so‘rovlarni qayta ishlaydi, dastur boshidagi uzilishlar manzilini qayta ishlaydi (uzilishlar manzili vektori). Bu esa dasturga mavjud bo‘lgan buyruqlarni qayta ishlab keyingi holatga o‘tishiga va xotirada protsessorning o‘z holatini saqlab qolishga yordam beradi. Dastur so‘ngida protsessor uzilishlarini qayta ishlovidan dastur yakunigacha xotiradan tiklangan ichki birlik registri bilan o‘tadi.

To‘g‘ridan – to‘g‘ri boshqaruv sxemasi – bu sxema xotiraga protsessorning vaqtinchalik tashqi shinadan o‘chirilishiga va protsessorning vaqtinchalik to‘g‘ridan- to‘g‘ri qurilmaga kirishiga ruxsat berishi uchun uzilishdir.

Boshqaruv mantiqi – protsessorning hamma uzellarini o‘zaro harakatini amalga oshiradi, ma‘lumotlarni qayta uzatadi, protsessorni tashqi signallar bilan sinxronizatsiyalaydi va axborotni kirish, chiqishiga javob beradi. Bu texnik tomondan mikroprotsessorning «qattiq mantiq» uslubidir.

Bu holda, protsessorning ish jarayoni buyruqlarni tanlash sxemasi ketma-ketlik bilan xotiradan olinadi, keyin buyruqlar bajariladi, zarur holatda esa ma‘lumotlarni qayta ishlash uchun AMQ ishlatiladi. AMQ kirishiga xotiradan yoki ichki registrlardan qayta ishlangan ma‘lumotlar uzatilishi mumkin. Ichki registrlar xotirasida qayta ishlanishi zarur bo‘lgan manzillar kodlari saqlanishi mumkin. AMQ dagi ma‘lumotlar qayta ishlovi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni holat registrining holatlarini o‘zgartiradi va bu to‘g‘risida ichki xotiraga yozadi. Zarur bo‘lgan holatda ma‘lumot xotiradan, ichki registrdan qayta yozilishi mumkin.

Ammo, mikroprotsessor tizimlari dasturchi uchun mikroprotsessor ichki holatlari tizimlari ahamiyatga ega emas. Dasturchi protsessorga

«qora quti» sifatida ahamiyat berishi kerak. Bu bilan kiruvchi va boshqaruvchi kodlarni chiquvchi kodlarga o'zgartiradi. Dasturchiga buyruqlar tizimi, protsessor ish rejimi va protsessorning tashqi qurilmalar bilan o'zaro aloqasini bilish talab etiladi. Protsessorning ichki holati tizimi haqida esa protsessorning u yoki bu holatlarda buyruqlarni holati yoki rejimlari ishlashini bilgan holatda amalga oshirishi mumkin.

Mikroprotsessor (MP), boshqachasiga central processing unit (CPU), – dasturli boshqariladigan, axborotni qayta ishlaydigan funktsional tugallangan qurilma bo'lib, u bitta yoki bir nechta katta (KIS) yoki juda katta (JKIS) integral sxemalar ko'rinishda tayyorlangan.

Mikroprotsessor quyidagi vazifalarni bajaradi:

- asosiy xotiradan (AX) buyruqlarni o'qish va deshifrlash (ochish);
- ma'lumotlarni AX dan va tashqi qurilmalar (TK) adapterlarining registrlaridan o'qish;
- so'rovlarni va buyruqlarni adapterlardan TQ larga xizmat ko'rsatish uchun qabul qilish va qayta ishlash;
- ma'lumotlarni qayta ishlash hamda ularni AX ga va TQ, adapterlarining registrlariga yozish;
- ShK ning barcha boshqa uzellari va bloklari uchun boshqaruvchi signallarni ishlab chiqish.

Mikroprotsessor ma'lumotlart shinasining razryadliligi ShK ning razryadliligini aniqlaydi; MP adreslar shinasini razryadliligi uning adres kengligini aniqlaydi.

Adres kengligi – bu asosiy xotira yacheykalarining maksimal soni bo'lib, u bevosita mikroprotsessor tomonidan adreslanishi mumkin.

Ma'lumotlar ko'rinishini o'zgartirishning dasturiy boshqarilishi haqida umumiy tushuncha.

Birinchi RISC (Reduced Instruction Set Command – qisqartirilgan to'plamli buyruqlar tizimi) kompyuterlari yaratilgandan beri yigirma yildan ortiq vaqt o'tganligiga qaramay, apparat ta'minoti texnologiyalarining hozirgi zamon holatini hisobga olib, ishlab chiqishning ba'zi asoslaridan hozir ham foydalansa bo'ladi. Agar texnologiyalarda keskin o'zgarish yuz bersa, barcha sharoitlar o'zgaradi. Shuning uchun ishlab chiquvchilar har doim kompyuter komponentlari o'rtasidagi balansga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ehtimoliy texnologik o'zgarishlarni hisobga olishlari kerak.

Universal protsessorlarni ishlab chiqaruvchilar RISC tamoyillariga imkon qadar amal qilishga harakat qiladilar. Baʼzi tashqi cheklashlar, masalan, boshqa mashinalar bilan moslashuvchanlik talablari sababli vaqti-vaqti bilan kompromissga borishga toʻgʻri keladi, ammo bu – koʻpchilik ishlab chiquvchilar intiladigan maqsaddir. Quyida biz ularning baʼzilarini muhokama qilamiz.

Barcha komandalar bevosita apparat taʼminoti yordamida bajariladi. Barcha oddiy komandalar bevosita apparat taʼminoti yordamida bajariladi. Ular mikrokomandalar tomonidan talqin qilinmaydi. Talqin qilish darajasining bartaraf etilishi koʻpgina komandalarning yuqori tezlikda bajarilishini taʼminlaydi. *CISC*(Complex Instruction Set Command – toʻliq toʻplamli buyruqlar tizimi) tipidagi kompyuterlarda yanada murakkab komandalar keyinchalik mikrokomandalar ketma-ketligi sifatida bajariladigan bir necha qismlarga boʻlinishi mumkin. Bu qoʻshimcha operatsiya mashinaning ishlash tezligini kamaytiradi, ammo u kam uchraydigan komandalar uchun qoʻllanishi mumkin.

Kompyuter bir nechta komandalarni bajarishni boshlashi kerak. Zamonaviy kompyuterlarda ishlab chiqarish unumdorligini koʻpaytirish uchun turli xil usullardan foydalaniladi, ulardan eng asosiysi – sekundiga imkoni boricha koʻproq komandalar soniga murojaat qilish imkoniyati. 500-MIPS protsessori sekundiga 500 mln. komandani bajarishga qodir va bunda ushbu komandalarning bajarilishiga qancha vaqt ketganligi ahamiyatga ega emas (MIPS – bu **Millions of Instructions Per Second** – «**sekundiga million komandalar**»ning ingliz tilidagi qisqartmasi). Ushbu parallellik tamoyili unumdorlikni yaxshilashda asosiy oʻrin tutadi. Ammo, ushbu tamoyilni qisqa vaqt oraligʻida bir necha komandalarni bajarishga imkon boʻlgan taqdirdagina amalga oshirish mumkin.

Qaysidir dasturning komandalari har doim maʼlum tartibda joylashgan boʻlsa ham, kompyuter ularni bajarishga boshqa tartibda ham kirishishi mumkin (chunki xotiraning kerakli resurslari band boʻlishi mumkin) va, bundan tashqari, ularni bajarishni ular dasturda joylashgan tartibiga teskari boʻlgan tartibda tugatishi mumkin. Albatta, agar 1-komanda registrni oʻrnatsa, 2-komanda esa bu registrdan foydalansa, 2-komanda registr kerakli qiymatni yozib olmaguncha registrni oʻqimasligi uchun alohida ehtiyotkorlik bilan harakat qilish kerak. Bunday xatolarga yoʻl qoʻymaslik uchun koʻp miqdordagi tegishli

yozuvlarni xotiraga kiritish kerak, ammo unumdorlik bir vaqtning o'zida bir nechta komandalarni bajarish imkoniyati tufayli baribir yuqori darajada bo'lib qolaveradi.

Komandalar osonlik bilan dekodlanishi kerak. Sekundiga chaqiriladigan komandalar sonining chegarasi ayrim komandalarni dekodlash jarayoniga bog'liq. Komandalarni dekodlash ular uchun qanday resurslar kerak ekanligi va qanday harakatlarni bajarish kerakligini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Bu jarayonni soddalashtirishga yordam beradigan istalgan vositalar foydalidir. Masalan, ma'lum uzunlikdagi va qismlari ko'p bo'lmagan komandalardan foydalaniladi. Komandalarning turli formatlari qanchalik kam bo'lsa, shunchalik yaxshi.

Xotiraga faqat yuklash va saqlash komandalari murojaat qilishi kerak. Operatsiyalarni alohida qadamlarga ajratishning eng oddiy usullaridan biri-ko'pchilik komandalar uchun operandalarning registrlardan olinishi va yana xuddi shu yerga qaytarilishini talab qilish. Operandalarni xotiradan registrlarga ko'chirish operatsiyasi turli komandalarda amalga oshirilishi mumkin. Xotiraga murojat etish ko'p vaqt olganligi, bunday kechikish esa nomaqbul bo'lganligi sababli, bu komandalarning ishini boshqa komandalar bajarishi mumkin, agar ular registrlar va xotira o'rtasida operandalarni ko'chirishdan boshqa ishni bajarishmasa. Ushbu kuzatuvdan shunday xulosa kelib chiqadiki, xotiraga faqat yuklash va saqlash komandalari murojaat qilishi kerak (LOAD va STORE).

Registrnlarning soni ko'p bo'lishi kerak. Xotiraga murojaat etish ancha sekinlik bilan amalga oshirilishi sababli, kompyuterda registrlar soni ko'p bo'lishi kerak (kamida 32 ta). Agar so'z qachondir xotiradan chaqirilgan bo'lsa, registrnlarning soni ko'p bo'lganligi uchun u kerak bo'lgunicha registrda bo'lishi kerak. So'zning registrdan xotirga qaytarilishi va bu so'zning registrga yangidan yuklanishi nomaqbul. Ortiqcha ko'chirishlardan halos bo'lishning eng yaxshi usuli – yetarlicha miqdordagi registrnlarning bo'lishi.

Komandalar darajasidagi parallelizm. Kompyuterlarni ishlab chiquvchilar mashinalarning unumdorligini yaxshilashga intilmoqdalar. Protessorlarni tezroq ishlashga majbur qiluvchi usullardan biri – ularning tezligini oshirish, ammo ayni vaqtda muayyan tarixiy davr bilan bog'liq texnologik cheklashlar mavjud. Shu sababli ko'pgina ishlab chiquvchilar protessorning ushbu ishlash tezligida yaxshiroq



unumdorlikka erishish uchun parallellik (bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq operatsiyalarni bajarishdan) tamoyilidan foydalanadilar.

Parallellikning ikkita asosiy shakllari mavjud: komandalar darajasidagi parallelizm va protsessorlar darajasidagi parallelizm. Birinchi holatda parallellik alohida komandalar doirasida amalga oshiriladi va sekundiga ko'p miqdordagi komandalarning bajarilishini ta'minlaydi. Ikkinchi holatda bir vaqtning o'zida bir vazifa ustida bir nechta protsessorlar ishlaydi. Har bir yondashuv o'z afzalliklariga ega.

Konveyerlar. Ko'p yillardan beri ma'lumki, komandalarni yuqori tezlik bilan bajarish yo'lidagi asosiy to'siq ularni xotiradan chaqirish hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish uchun ishlab chiquvchilar komandalar kerakli vaqtda mavjud bo'lishi uchun komandani xotiradan oldinroq chaqirish vositasini o'ylab topdilar. Bu komandalarni **oldindan tanlash buferi** deb nomlanadigan registrlar to'plamida joylashgan. Shu tariqa, muayyan komanda kerak bo'lganda, u to'ppa-to'g'ri buferdan chaqirilib, u xotiradan o'qilishi uchun kutish kerak bo'lmagan edi. Bu g'oyadan 1959 yilda yaratilgan **IBM Stretch** kompyuterida foydalanilgan edi.

Amalda oldindan olish jarayoni komandaning bajarilishini ikki bosqichga ajratadi: chaqiruv va bajarish. **Konveyer** g'oyasi ushbu strategiyani yanada ilgariroq siljitdi [7]. Endilikda komanda ikki bosqichga emas, bir necha bosqichlarga ajratildi, ularning har biri apparat ta'minotining muayyan qismi tomonidan bajarilar edi, ayni vaqtda ushbu qismlar parallel ishlay olar edilar.

3.5, *a*-rasmda bosqichlar deb nomlanadigan 5 ta blokdan iborat konveyer tasvirlangan. S1 bosqich komandani xotiradan chaqiradi va uni buferga joylaydi, bu komanda ushbu buferda kerak bo'lguncha saqlanadi. S2 bosqich ushbu komandaning turi va bu komanda ma'lum harakatlar bajaradigan operandalarning turini aniqlagan holda, ushbu komandani dekodlaydi. S3 bosqich operandalarning joylashgan joyini aniqlaydi va ularni registrlardan yoki xotiradan chaqiradi. S4 bosqich ma'lumotlar trakti orqali operandalarni o'tkazish yo'li bilan komandani bajaradi. Va nihoyat, S5 bosqich natijani qaytadan kerakli registrga yozadi.



3.5.-rasm. 5 bosqichdan iborat konveyer (a); o‘tilgan sikllarning miqdoriga bog‘liq holda har bir bosqich holati (b). 9 ta sikl ko‘rsatilgan.


3.5, *b*-rasmda biz konveyerlar vaqt davomida qanday harakat qilishini ko‘rib turibmiz. 1-sikl vaqtida S1 1-komandani xotiradan chaqirib, uning ustida ishlaydi. 2-sikl vaqtida S2 bosqich 1-komandani dekodlaydi, ayni vaqtda S1 xotiradan 2-komandani chaqiradi. 3-sikl davomida S3 1-komanda uchun operandalarni chaqiradi, S2 bosqich 2-komandani dekodlaydi, S1 bosqich esa uchinchi komandani chaqiradi. 4-sikl davomida S4 1-komandani bajaradi, S3 2-komanda uchun operandalarni chaqiradi, 3-komandani dekodlaydi, S1 esa 4-komandani chaqiradi. Nihoyat, beshinchi sikl vaqtida S5 1-komandaning bajarilishini qaytadan registrga yozadi, ayni vaqtda boshqa bosqichlar keyingi komandalar ustida ishlaydi.

3.5.-rasmda tasvirlangan konveyerning unumdorligini hisoblaymiz. Bu mashinaning vaqt sikli 2 ns deb tasavvur qilamiz. U holda bitta komanda butun konveyerdan o‘tishi uchun 10 ns talab qilinadi. Birinchi qarashda bunday kompyuter sekundiga 100 mln. komandani bajara oladigandek ko‘rinadi, haqiqatda esa, uning ish tezligi ancha yuqori. Har bir sikl (2 ns) vaqtida bitta yangi komandaning bajarilishi tugallanadi, shuning uchun mashina sekundiga 100 mln. emas, balki 500 mln. komandani bajara oladi.

Konveyerlar kutish vaqti (bitta komandaning bajarilishi qancha vaqt oladi) va protsessorning o‘tkazuvchanlik qobiliyati (protsessor

sekundiga qancha million komandani bajara oladi) o‘rtasida kelishuvni aniqlash imkonini beradi. Agar sikl vaqti T_{ns} ni tashkil qilsa, konveyer esa n bosqichlardan iborat bo‘lsa, u holda kutish vaqti nT_{ns} , o‘tkazuvchanlik qobiliyati esa – sekundiga $1000/T$ komandadan iborat bo‘ladi.

Superskalyar arxitekturalar. Konveyer soni qancha ko‘p bo‘lsa tezlik ham oshadi. Ikkitalik konveyerga ega protsessorning sxemasi 3.6.-rasmda berilgan. Bu yerda komandalarni chaqiruvchi umumiy bo‘lim xotiradan bir vaqtda ikkitadan komandani oladi va ularning har birini konveyerlardan biriga joylashtiradi. Har bir konveyer parallel operatsiyalar uchun AMQ (arifmetik mantiqiy qurilma) dan iborat. Parallel bajarilishi uchun ikkita komanda resurslar (masalan registrlar)dan foydalanilganda ziddiyatga bormasligi va ularning birortasi ham bittasini bajarish natijalariga bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Bitta konveyer bilan bo‘lgan holatdagidek, kompilyator nomaqbul vaziyatlar (masalan, apparat ta‘minoti noto‘g‘ri natijalar berayotganda, agar komandalar bir-biriga mos kelmaganda) kelib chiqmasligini kuzatishi kerak yoki qo‘shimcha apparat ta‘minotidan foydalanish tufayli bevosita komandalarni bajarish vaqtida ziddiyatlar aniqlanadi va bartaraf qilinadi.



3.6. -rasm. Komandalarni chaqiruvchi umumiy bo‘limga ega besh bosqichdan iborat ikkitalik konveyer.


Avval konveyerlardan (ikkitalik hamda bittalik) faqat RISC kompyuterlarida foydalanilgan. Intel kompaniyasining protsessorlaridagi konveyerlar faqat 486-modelidan boshlab paydo bo‘lgan. 486-protsessor bitta konveyerdan iborat bo‘lgan edi, Pentium – esa besh bosqichli ikkita konveyerdan iborat. Shunga o‘xshash sxema 3.6.-rasmda berilgan, ammo ikkinchi va uchinchi bosqichlar o‘rtasida funksiyalarning ajratilishi (ular 1-dekodlash va 2-dekodlash deb nomlangan edi) biroz boshqacharoq edi. Bosh konveyer (**u-konveyer**)

ixtiyoriy komandalarni bajara olgan. Ikkinchi konveyer (**v-konveyer**) faqat butun sonli oddiy komandalarni, shuningdek suzib yuruvchi nuqtali bitta oddiy komanda (FXCh)ni bajara olgan.

Komandalar jufti parallel bajara olinishi uchun bir-biriga mos yoki mos emasligini aniqlovchi murakkab qoidalar mavjud. Agar juftlikka kiruvchi komandalar murakkab bo'lgan yoki bir-biriga mos kelmagan bo'lsa, ulardan faqat bittasi (u-konveyerdagisi) bajarilgan. Qolgan ikkinchi komanda keyingi komanda bilan juftlikni tashkil qilgan. Komandalar har doim tartib bo'yicha bajarilgan. Shu tariqa, Pentium bir-biriga mos bo'lgan komandalarni juftlikka birlashtirgan va avvalgi versiyalarga qaraganda tezroq bajariladigan dasturlarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan alohida kompilyatorlarga ega bo'lgan. O'lchashlar shuni ko'rsatdiki, butun sonlar bilan operatsiyalarni bajaruvchi dasturlar Pentium kompyuterida 486-protssorga qaraganda deyarli ikki marta tezroq bajarilgan, garchi 486-protssorning taktli chastotasi xuddi shunday bo'lsa ham. Shubhasiz, tezlikdagi ustunlik ikkinchi konveyer tufayli paydo bo'lgan.

To'rtta konveyerga o'tishning imkoni bor, ammo katta apparat ta'minotining yaratilishini talab qilgan bo'lar edi. Buning o'rniga boshqa yondashuvdan foydalaniladi. Asosiy g'oya – 3.7.-rasmda ko'rsatilganidek, ko'p miqdordagi funksional bloklarga ega bitta konveyer. Masalan, Pentium II shunga o'xshash strukturaga ega. 1987 yilda bu yondashuvni belgilash uchun **superskalyar arxitektura** atamasi kiritildi. Ammo shunga o'xshash g'oya bundan 30 yil oldin CDC 6600 kompyuterida o'z aksini topdi. CDC 6600 har 100 ns ichida xotiradan komandani chaqirib, parallel bajarish uchun 10 ta funksional bloklarning biriga joylashtirar edi. Komandalar bajarilayotganda, markaziy protssessor keyingi komandani chaqirar edi.

3-bosqich 4-bosqich komandalarni bajara olish qobiliyatiga nisbatan tezroq komandalarni chiqaradi. Agar 3-bosqich har 10 ns ichida komandalarni chiqarsa, barcha funksional bloklar o'z ishlarini, shuningdek 10 ns ichida bajarganda edi, to'rtinchi bosqichda har doim faqat bitta blok ishlagan bo'lar edi, bu konveyer g'oyasining puchga chiqargan bo'lar edi. Haqiqatda to'rtinchi bosqichdagi ko'pchilik funksional bloklarga bitta sikl (bu xotiradan foydalana olish bloklari va suzib yuruvchi nuqtali operatsiyalarni bajarish bloki) egallagan vaqtdan ko'proq vaqt talab qilinadi. 3.7-rasmdan ko'rinib turganidek, to'rtinchi bosqichda bir nechta AMQ bo'lishi mumkin.



3.7.-rasm. Beshta funksional bloklarga ega superskalyar protsessor.

Protsessorlar darajasidagi parallelizm. Yanada yuqori tezlik bilan ishlaydigan kompyuterlarga bo‘lgan talab oshmoqda. Astronomlar katta portlashdan keyingi birinchi mikrosekundda nima yuz berganligini bilishni xohlaydilar, iqtisodiyotchilar butun jahon iqtisodiyotini modellashtirishni istaydilar, o‘smirlar Internet orqali o‘zlarining virtual do‘stlari bilan 3D interfaol o‘yinlar o‘ynashni xohlaydilar. Protsessorlar ishining tezligi oshib boradi, ammo ularda doimo axborotni uzatish tezligi bilan muammolar yuzaga keladi, chunki mis simlardagi elektromagnit to‘lqinlarning va optik-tolali kabellardagi yorug‘likning tarqalish tezligi avvalgidek 20 sm/ns bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, protsessor qanchalik tez ishlasa, u shunchalik tez qiziydi va uni qizib ketishdan saqlash kerak.

Parallellik komandalar darajasida qandaydir darajada yordam beradi, ammo konveyerlar va superskalyar arxitektura, odatda ishlash tezligini atigi 5-10 martaga oshiradi. Unumdorlikni 50, 100 va undan ko‘pga oshirish uchun bir necha protsessorlarga ega kompyuterlarni ishlab chiqish kerak. Quyida biz bunday kompyuterlarning tuzilishi bilan tanishamiz.

Vektorli kompyuterlar. Fizik va texnik fanlardagi ko‘p vazifalar vektorlarga ega, aks holda ular juda murakkab strukturaga ega bo‘lardilar. Ko‘pincha aynan bir xil hisoblashlar ayni bir vaqtda ma‘lumotlarning turli to‘plamlari ustida bajariladi. Bu dasturlar strukturasi komandalarning parallel bajarilishi tufayli ish tezligini oshirish imkonini beradi. Katta ilmiy dasturlarni tez bajarish uchun foydalaniladigan ikkita usul mavjud. Garchi ikkala sxema ko‘p tomonlama bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, ulardan biri bitta protsessorning kengaytirilishi deb, ikkinchisi esa – parallel kompyuter bo‘lib hisoblanadi.

Massivli-parallel protsessor (array processor) ma‘lumotlarning turli to‘plamlariga nisbatan komandalarning aynan bitta ketma-ketligini bajaradigan ko‘p sonli bir turdagi protsessorlardan iborat. Dunyodagi birinchi bunday protsessor ILLIAC IV (Illinois universiteti) bo‘lgan edi. Dastlab har biri protsessor/xotira 8x8 elementlar panjarasidan iborat bo‘lgan to‘rtta sektorga ega mashinani konstruksiyalash ko‘zda tutilgan edi. Har bir sektor uchun bitta nazorat bloki mavjud edi. Ushbu blok bir vaqtda barcha protsessorlar tomonidan bajariladigan komandalarni jo‘natardi, bunda har bir protsessor o‘zining xotirasidagi o‘ziga tegishli ma‘lumotlardan foydalanardi (ma‘lumotlarni yuklash intsiyalizatsiya qilish vaqtida yuz berardi). Narxi juda baland bo‘lganligi sababli faqat bitta shunday sektor qurilgan edi, ammo u sekundiga suzib yuruvchi nuqtali 50 mln. operatsiyalarni bajardi. Agar mashinani yaratishda to‘rtta sektordan foydalanilgan bo‘lsa va u sekundiga suzib yuruvchi nuqtali 1 mlrd. operatsiyalarni bajardi olganda edi, bunday mashinaning quvvati butun dunyodagi kompyuterlarning quvvatidan ikki marta ko‘proq bo‘lar edi.

Dasturchilar uchun **vektorli protsessor (vector processor)** **massivli-parallel protsessor (array processor)**ga o‘xshab ketadi. Massivli-parallel protsessor (array processor) kabi u ma‘lumotlar elementlarining juftliklari ustida operatsiyalar ketma-ketligini bajarishda juda samarali. Ammo undan farqli ravishda barcha qo‘shish operatsiyalari konveyer strukturasi ega bitta jamlash blokida bajariladi. Asoschisi Seymour Krey bo‘lgan Cray Research kompaniyasi Cray-1 (1974) modelidan boshlab va shu kungacha ko‘plab vektorli protsessorlarni chiqardi.

Protsessorlarning ikkala tipi ma‘lumotlar massivlari bilan ishlaydi. Ularning ikkisi ham aynan bir xil komandalarni, masalan, ikki vektor

uchun elementlarni juftlab taxlaydigan komandalarni bajaradi. Ammo massivli-parallel protsessor (array processor)da faqat massivda qancha elementlar bo'lsa, shuncha jamlovchi qurilmalar mavjud bo'lsa, vektorli protsessor (vector processor) standart registrlar to'plamida iborat vektorli registrga ega. Bu registrlar ketma-ketlik bilan xotiradan bitta komanda yordamida yuklab olinadi. Qo'shish komandasi ikkita vektorli registrlardan ikkita vektorning elementlarini konveyer strukturasi ga ega jamlovchi qurilmaga yuklab, ushbu ikki vektorlarning elementlarini juftlab taxlaydi. Natijada jamlovchi qurilmadan boshqa vektor chiqadi, bu vektor vektorli registrga joylashtiriladi yoki darhol vektorlar bilan boshqa operatsiyani bajarishda operanda sifatida foydalaniladi.

Massivli-parallel protsessorlar (array processor) haligacha chiqariladi, ammo kompyuter bozorining katta bo'lmagan qismini egallaydi, sababi ular turli ma'lumotlar to'plamlari ustida aynan bir xil hisoblashlarni bir vaqtda bajarilishini talab qiladigan vazifalarni hal qilishda samaralidir. Massivli-parallel protsessorlar (array processor) vektorli kompyuterlar (vector processor)ga nisbatan ba'zi operatsiyalarni tezroq bajara oladi, ammo ular ko'proq miqdordagi apparat ta'minotini talab qiladi va ular uchun dasturlar yozish murakkab. Vektorli protsessorlar (vector processor)ni, ikkinchi tomondan, oddiy protsessorga qo'shish mumkin. Natijada dasturning vektorli shaklga o'zgartirilishi mumkin bo'lgan qismlari vektorli blok tomonidan, dasturning qolgan qismi esa – oddiy protsessor tomonidan bajariladi.

3.2. Mikroprotsessorning ishlash prinsipi

Ikkilik kodlarning asosiy turlari.

Tarixiy jihatdan birinchi kompyuterlar ingliz tilida bo'lgan. Ularda ramziy ma'lumotni kodlash uchun faqat 7 bit xotiradan foydalanish kifoya edi, shu maqsadda 8 bitdan iborat 1 bayt ajratildi. Bu holda kompyuter tushunadigan belgilar soni 128 ga teng edi. Bunday belgilar qatoriga tinish belgilari, raqamlari va ba'zi bir maxsus belgilar bilan ingliz alifbosi kiritilgan. 1963 yilda ishlab chiqilgan mos keladigan jadval (kod sahifasi) bilan ingliz tilidagi etti bitli kodlash ma'lumot almashish uchun Amerika standart kodi deb nomlandi. Odatda "ASCII kodlash" qisqartmasi uni belgilash uchun ishlatilgan va hozirgi kungacha qo'llanilmoqda.

Vaqt o'tishi bilan kompyuterlar ingliz tilida so'zlashmaydigan mamlakatlarda ham keng qo'llanila boshlandi. Shu munosabat bilan milliy tillardan foydalanishga imkon beradigan kodlashlarga ehtiyoj bor. G'ildirakni ixtiro qilmaslik va ASCII ni asos qilib olishga qaror qilindi. Yangi nashrdagi kodlash jadvali sezilarli darajada kengaytirildi. 8-bitdan foydalanish 256 ta belgini kompyuter tiliga tarjima qilishga imkon berdi.

ASCII Code Chart

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
0	NUL	SOH	STX	ETX	EOT	ENQ	ACK	BEL	BS	HT	LF	VT	FF	CR	SO	SI
1	DLE	DC1	DC2	DC3	DC4	NAK	SYN	ETB	CAN	EM	SUB	ESC	FS	GS	RS	US
2		!	"	#	\$	%	&	'	()	*	+	,	-	.	/
3	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	:	;	<	=	>	?
4	@	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O
5	P	Q	R	S	T	U	V	W	X	Y	Z	[\]	^	_
6	`	a	b	c	d	e	f	g	h	i	j	k	l	m	n	o
7	p	q	r	s	t	u	v	w	x	y	z	{		}	~	DEL

3.8.- rasm. ASCII kod jadvali.

ASCII kodlashda 2 qismga bo'lingan jadval mavjud. Faqat uning birinchi yarmi umumiy qabul qilingan xalqaro standart deb hisoblanadi. Bunga quyidagilar kiradi:

- 00000000 dan 00011111 gacha bo'lgan ketma-ketliklar bilan kodlangan 0 dan 31 gacha tartib raqamlari bo'lgan belgilar. Ular matnni ekranda yoki printerda aks ettirish, ovozli signal berish va hokazolarni boshqaruvchi belgilar uchun ajratilgan.

- 00100000 dan 01111111 gacha bo'lgan ketma-ketliklar bilan kodlangan 32 dan 127 gacha bo'lgan jadvalda NN bo'lgan belgilar standart qism jadvallar. Bularga bo'sh joy (N 32), lotin alifbosidagi harflar (kichik va katta harflar), 0 dan 9 gacha bo'lgan o'n xonali raqamlar, tinish belgilari, turli uslubdagi qavslar va boshqa belgilar kiradi.

- 12800 dan 255 gacha tartibli raqamlar, 10000000 dan 11111111 gacha bo'lgan ketma-ketliklar bilan kodlangan belgilar. Bularga lotin tilidan tashqari milliy alifbo harflari kiradi. Jadvalning ushbu muqobil

qismi ASCII kodlash yordamida rus tilidagi belgilarni kompyuterga aylantirish uchun ishlatiladi.

Bits					0 0	0 0 1	0 1 0	0 1 1	1 0 0	1 0 1	1 1 0	1 1 1
b ₄	b ₃	b ₂	b ₁	Row ↓	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	0	0	0	NUL	DLE	SP	0	@	P	`	p
0	0	0	1	1	SOH	DC1	!	1	A	Q	o	q
0	0	1	0	2	STX	DC2	"	2	B	R	b	r
0	0	1	1	3	ETX	DC3	#	3	C	S	c	s
0	1	0	0	4	EOT	DC4	\$	4	D	T	d	t
0	1	0	1	5	ENQ	NAK	%	5	E	U	e	u
0	1	1	0	6	ACK	SYN	&	6	F	V	f	v
0	1	1	1	7	BEL	ETB	'	7	G	W	g	w
1	0	0	0	8	BS	CAN	(8	H	X	h	x
1	0	0	1	9	HT	EM)	9	I	Y	i	y
1	0	1	0	10	LF	SUB	*	:	J	Z	j	z
1	0	1	1	11	VT	ESC	+	;	K	[k	{
1	1	0	0	12	FF	FS	,	<	L	\	l	
1	1	0	1	13	CR	GS	-	=	M]	m	}
1	1	1	0	14	SO	RS	.	>	N	^	n	~
1	1	1	1	15	SI	US	/	?	o	_	o	DEL

3.9- rasm. ASCII kodlash.

ASCII kodlashning o'ziga xos xususiyatlariga kichik va katta harflarning "A" – "Z" harflari orasidagi farq faqat bitga farq qiladi. Ushbu holat registri konvertatsiya qilishni, shuningdek, belgilangan qiymatlar oraliq'iga tegishli ekanligini tekshirishni ancha soddalashtiradi. Bundan tashqari, ASCII kodlash tizimidagi barcha harflar alifboda o'zlarining tartib raqamlari bilan ifodalanadi, ular ikkilik tizimda 5 ta raqam bilan yoziladi, oldin kichik harflar uchun 011 2, katta harflar uchun 010 2 keladi.

ASCII kodlash xususiyatlari orasida 10 ta raqamni – "0" – "9" ni ko'rib chiqish mumkin. Ikkinchi sanoq tizimida ular 00112 bilan boshlanib, 2 ta raqam bilan tugaydi. Masalan, 0101 2 o'nlik beshlikka teng, shuning uchun "5" belgisi 0011 01012 deb yozilgan. Bunga asosan chapdagi har bir nibblega 00112 bitli ketma-ketlikni qo'shib, BCD-larni osongina ASCII qatoriga aylantirishingiz mumkin.

Ma'lumki, Janubi-Sharqiy Osiyo guruhidagi tillardagi matnlarni namoyish qilish uchun minglab belgilar talab qilinadi. Ularning bir nechtasini bir bayt ma'lumot bilan tavsiflab bo'lmaydi, shuning uchun hatto kengaytirilgan ASCII versiyalari ham endi turli mamlakatlardagi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Shunday qilib, Unicode konsortsiumi tomonidan jahon IT sanoatining ko'plab rahbarlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan universal matnli kodlashni yaratish zarurati paydo bo'ldi. Uning mutaxassislari UTF 32 tizimini yaratdilar, unda 4 ta bayt ma'lumotni tashkil etadigan 1 ta belgini kodlash uchun 32 bit ajratildi. Asosiy kamchilik, talab qilinadigan xotira hajmining 4 martagacha keskin ko'payishi bo'lib, bu ko'plab muammolarni keltirib chiqardi.

Shu bilan birga, hind-evropa guruhiga mansub rasmiy tillarga ega bo'lgan aksariyat mamlakatlar uchun 2 32 ga teng bo'lgan belgilar soni ortiqcha emas.

Unicode konsortsiumi mutaxassislarining keyingi ishlari natijasida UTF-16 kodlash paydo bo'ldi. Kerakli xotira miqdori va kodlangan belgilar soni bo'yicha har kimga mos keladigan ramziy ma'lumotni konvertatsiya qilish imkoniyati bo'ldi. Shuning uchun UTF-16 sukut bo'yicha qabul qilindi va bitta belgi uchun 2 bayt ajratilishini talab qiladi.

Hatto ushbu "Unicode" ning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatli versiyasida ham kamchiliklar bo'lgan va ASCII kengaytirilgan versiyasidan UTF-16 ga o'tgandan so'ng, hujjatning og'irligi ikki baravarga oshgan.


Shu munosabat bilan UTF-8 kodlashning o'zgaruvchan uzunligini ishlatishga qaror qilindi. Bunday holda, dastlabki matnning har bir belgisi 1 dan 6 baytgacha ketma-ketlik bilan kodlanadi.

Matn kodlashlarining rivojlanishi IT sanoatining shakllanishi bilan bir vaqtda sodir bo'lgan va shu vaqt ichida ular juda ko'p o'zgarishlarga duch kelishgan. Tarixiy jihatdan hamma narsa EBCDIC-dan boshlandi, bu rus tilida evonik bo'lmagan, bu lotin alifbosidagi harflarni, arab raqamlari va tinish belgilarini boshqaruv belgilar bilan kodlash imkonini berdi.

Ammo shunga qaramay, zamonaviy matn kodlashlarini rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasi mashhur deb hisoblanishi kerak ASCII (Axborot almashish uchun Amerika standart kodi, rus tilida odatda "aski" deb talaffuz qilinadi). Unda ingliz tilida so'zlashadigan foydalanuvchilar tomonidan eng ko'p ishlatiladigan birinchi 128 ta belgi- lotin harflari, arab raqamlari va tinish belgilari tasvirlangan.

Xatto ASCII-da tasvirlangan ushbu 128 ta belgida qavslar, xash chiziqlari, yulduzcha va boshqalar kabi ba'zi bir xizmat belgilari

mavjud. Aynan shu 128 ta belgi asl ASCII-dan standartga aylandi va boshqa har qanday kodlashda shu tartibda turadi.



3.10- rasm.16 sonlarni 2 likda kodlash

Ushbu misolda, bu 1 (nol kuchiga 2) ortiqcha 8 (ikkitasi 3 ga teng), ortiqcha 32 (ikkitasi beshinchi kuchga), ortiqcha 64 (oltinchiga), ortiqcha 128 (yettinchiga). Umumiy kasrda 233 bo‘ladi.

Nima uchun kodlash umuman kerak?

Sizning kompyuteringiz ekranidagi ramzlar ikkita narsa – barcha turdagi belgilarning vektor shakllari to‘plamlari (vakolatxonalar) (ular birgalikda fayllarda) va ushbu vektor shakllari to‘plamidan (shrift fayli) aynan kiritilishi kerak bo‘lgan belgi asosida hosil bo‘ladi. Vektor shakllari uchun shriftlarning o‘zi mas‘ul ekanligi aniq, ammo operatsion tizim va unda qo‘llaniladigan dasturlar kodlash uchun javobgardir. O‘sha. kompyuteringizdagi har qanday matn baytlar to‘plami bo‘lib, ularning har biri ushbu matnning bitta belgisini kodlaydi.

Ushbu matnni ekranda ko‘rsatadigan dastur (matn muharriri, brauzer va boshqalar) kodni ajratishda keyingi belgining kodlashini o‘qiydi va kerakli matnli hujjatni ko‘rsatish uchun ulangan shrift faylida mos keladigan vektor shaklini qidiradi. Bu shuni anglatadiki, bizga kerak bo‘lgan har qanday belgini (masalan, milliy alifbodan) kodlash uchun ikkita shart bajarilishi kerak – bu belgining vektor shakli ishlatilgan shriftda bo‘lishi kerak va bu belgi kengaytirilgan ASCII kodlashlarida bitta baytda kodlanishi mumkin. Shuning uchun bunday variantlarning to‘liq to‘plami mavjud. Faqat rus tilining belgilarini kodlash uchun kengaytirilgan Asukaning bir nechta navlari mavjud.

ASCII (inglizcha: American Standard Code for Information Interchange) – bosma belgilar va boshqa maxsus kodlar uchun Amerika Qo‘shma Shtatlari standart kodlash jadvali. Ingliz tilining amerika variantida [esqi] shaklida aytiladi, Buyuk Britaniyada esa [asqi] shaklida ko‘proq aytiladi; o‘zbekchada ham [asqi] shaklida aytiladi.

	.0	.1	.2	.3	.4	.5	.6	.7	.8	.9	.A	.B	.C	.D	.E	.F
0.	NUL	SOH	STX	ETX	EOT	ENQ	ACK	BEL	BS	TAB	LF	VT	FF	CR	SO	SI
1.	DLE	DC1	DC2	DC3	DC4	NAK	SYN	ETB	CAN	EM	SUB	ESC	FS	GS	RS	US
2.		!	"	#	\$	%	&	'	()	*	+	,	-	.	/
3.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	:	;	<	=	>	?
4.	@	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O
5.	P	Q	R	S	T	U	V	W	X	Y	Z	[\]	^	_
6.	`	a	b	c	d	e	f	g	h	i	j	k	l	m	n	o
7.	p	q	r	s	t	u	v	w	x	y	z	{		}	~	DEL

3.11- rasm. ASCII kodlanish

ASCII o'nluk sonlar, lotin va milliy alifbolar, tinish belgilari va boshqaruvchi belgilarni tasvirlovchi kodlashlarni o'z ichiga oladi. Dastlab 7-bitlik qilib yaratilgan, keyinchalik 8-bitlik baytga o'tkazilgan ASCII 8-bitlikning yarmi deb qabul qilina boshlandi. Kompyuterlarda odatda 8-bit va kod jadvalining ikkinchi yarmi bilan ishlangan ASCII kengaytmasi foydalaniladi.

	.0	.1	.2	.3	.4	.5	.6	.7	.8	.9	.A	.B	.C	.D	.E	.F
0.	NUL	SOM	EOA	EOM	EQT	WRU	RU	BELL	BKSP	HT	LF	VT	FF	CR	SO	SI
1.	DC ₀	DC ₁	DC ₂	DC ₃	DC ₄	ERR	SYNC	LEM	S ₀	S ₁	S ₂	S ₃	S ₄	S ₅	S ₆	S ₇
2.																
3.																
4.	BLANK	!	"	#	\$	%	&	'	()	*	+	,	-	.	/
5.	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	:	;	<	=	>	?
6.																
7.																
8.																
9.																
A.	@	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O
B.	P	Q	R	S	T	U	V	W	X	Y	Z	[\]	↑	←
C.																
D.																
E.		a	b	c	d	e	f	g	h	i	j	k	l	m	n	o
F.	p	q	r	s	t	u	v	w	x	y	z				ESC	DEL

Escape 27		F1 112	F2 113	F3 114	F4 115	F5 116	F6 117	F7 118	F8 119	F9 120	F10 121	F11 122	F12 123	Print Screen	Scroll Lock 145	Pause 19					
`~ 192	1 49	2 50	3 51	4 52	5 53	6 54	7 55	8 56	9 57	0 48	- 189	=+ 187	Back Space 8	Insert 45	Home 36	Page Up 33	Num Lock 144	/ доп. 111	* доп. 106	+ доп. 107	
Tab 9	Q 81	W 87	E 69	R 82	T 84	Y 89	U 85	I 73	O 79	P 80	[219] 221		Delete 46	End 35	Page Down 34	7 доп. 109	8 доп. 107	9 доп. 105		
Caps Lock 20	A 65	S 83	D 68	F 70	G 71	H 72	J 74	K 75	L 76	;ж 186	'э 222	Enter 13					4 доп. 100	5 доп. 101	6 доп. 102		
Shift 16	Z 90	X 88	C 67	V 86	B 66	N 78	M 77	,< 188	.> 190	/ 191	Shift 16	\ 220			Up 38		1 доп. 97	2 доп. 98	3 доп. 99	Enter доп. 13	
Ctrl 17	win	Alt 18	Space Bar 32						Alt 18	win	list	Ctrl 17		Left 37	Down 40	Right 39		Ins/0 45/96	Del/ 46/110		

3.12- rasm. EHMda ASCIIning tasvirlanishi

0, 1

1) $101101_2 + 1111_2 = 111100_2$

$$\begin{array}{r} 101101_2 \\ + 1111_2 \\ \hline \end{array}$$

$$101101_2$$

1) Xuddi shu misolda natijadan qo‘shiluvchini ayiramiz:

$$\begin{array}{r} 111100_2 \\ - 1111_2 \\ \hline \end{array}$$

$$101101_2$$

3) Ko‘paytirishni bajaramiz:

$$1101_2 * 111_2 = 101101_2$$

$$\begin{array}{r} 1101_2 \\ \times 111_2 \\ \hline \end{array}$$

$$+1101$$

$$1101$$

$$1101$$

$$101101_2$$

4) Xuddi shu misolda bo‘lishni bajaramiz:

$$101101_2 : 111_2 = 1101_2$$

$$1011 \overline{) 0111_2} \underline{111_2}$$

-1111101₂

1000

-111

111

111

000

III. Uchlik sanoq sistemasida arifmetik amallar bajarish:

0,1,2;

1) $12112_3 + 122_3 = 20011_3$

$$\begin{array}{r} 1 \\ 2112_3 \\ 1 \\ 22_3 \\ - \\ \hline 2 \\ 0011_3 \end{array}$$

Xuddi shu misoldan: Izoh: uchlik sanoq sistemasida, bir Qarz olib beramiz degani, uch sonini olib beramiz degani tushuniladi. Chunki uch mukammal son hisoblanadi.

$$20011_3 - 122_3 = 12112_3$$

20011₃

- 122₃

12112₃

3) $212_3 * 12_3 = 11021_3$

212₃

x12₃

1201

212

11021₃

$$\begin{array}{r} 4 \mid 3 \\ 3 \mid 1 \\ \hline 1 \end{array}$$

4) Xuddi shu misolda bo‘lish amalini bajaramiz:

$$11021_3 : 212_3 = 12_3$$

$$\begin{array}{r} 11021_3 \\ 212_3 \overline{) 212_3} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 11021_3 \\ 212_3 \overline{) 212_3} \\ \hline 1201 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 11021_3 \\ 212_3 \overline{) 212_3} \\ \hline 1201 \\ 1201 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 11021_3 \\ 212_3 \overline{) 212_3} \\ \hline 1201 \\ 1201 \\ \hline 0 \end{array}$$

0

To‘rtlik sanoq sistemasida ham huddi shunday amallar bajariladi.

O‘nlik sonlarni namoyish etish

Raqamli qurilmalarda raqamlarni, shuningdek dasturlash jarayonidagi boshqa ma‘lumotlarni aks ettirish uchun odatdagi o‘nlik sanoq tizimi bilan bir qatorda boshqa tizimlar ham keng qo‘llaniladi. Keling, eng keng tarqalgan pozitsion sanoq tizimlarini ko‘rib chiqamiz. Bunday sanoq tizimlaridagi raqamlar vergul bilan ajratilgan raqamlar ketma-ketligi (raqamlar raqamlari) bilan ikki guruhga bo‘linadi: raqamning butun qismini ifodalaydigan raqamlar guruhi va raqamning kasr qismini ifodalovchi raqamlar guruhi:

$$\dots a_2 a_1 a_0, a_{-1} a_{-2} \dots$$

Bu yerda a_0, a_1, \dots nol raqami, bir v.x. ni butun qismini belgilaydi, a_{-1}, a_{-2}, \dots – birinchi raqam, ikkinchi v.x. sonlarni kasr qismini belgilaydi.

Razryad raqamiga son og‘irligi belgilangan r^k , bu yerda r – sanoq tizimi asosi; k – razryad raqamlarni belgilashda indeksga teng raqamli razryad. Shunday qilib, yuqoridagi yozuv quyidagi miqdorni anglatadi:

$$N = \dots + a_2 \cdot r^2 + a_1 \cdot r^1 + a_0 \cdot r^0 + a_{-1} \cdot r^{-1} + a_{-2} \cdot r^{-2} + \dots$$

$$\begin{array}{ccccccc} 7 & 2 & 9 & 3 & 2 & & 4_{10} = 7 \cdot 10^2 + 2 \cdot 10^1 + 9 \cdot 10^0 + 3 \cdot 10^{-1} + 2 \cdot 10^{-2} + 4 \cdot 10^{-3} \\ \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow & & \downarrow \\ 10^2 & 10^1 & 10^0 & 10^{-1} & 10^{-2} & & 10^{-3} \end{array}$$

P har xil belgilar to‘plami razryadlarning raqamlarini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Agar, $r = 10$ (oddiy o‘nlik sanoq tizimida)

razryadlarning raqamlarini yozish uchun oʻnta belgidan iborat toʻplamdan foydalaniladi: 0, 1, 2, ..., 9. Oʻnlik sanoq tizimida $729,324_{10}$ miqdorni bildiradi:

Raqamlarni ifodalashning ushbu printsipidan foydalanib, lekin p ning har xil qiymatlarini tanlab, har xil sanoq tizimlarini yaratishingiz mumkin.

Ikkilik sanoq tizimida sanoq tizimlari asosi $r = 2$. Shunday qilib, razryadlar raqamini yozish uchun faqat ikkita simvoldan 0 va 1 dan foydalaniladi.

Ikkilik sanoq tizimida raqam 0 va 1 ketma ketligi bilan ifodalanadi. $11011,101_2$ dagi sonlar oʻnlik sanoq tizimida quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

$$11011,101_2 = (1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 0 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 + 1 \cdot 2^{-1} + 0 \cdot 2^{-2} + 1 \cdot 2^{-3})_{10} = 27,625_1$$

$$\begin{array}{ccccccc} \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow \\ 2^4 & 2^3 & 2^2 & 2^1 & 2^0 & 2^{-1} & 2^{-2} & 2^{-3} \end{array}$$

Sakkizlik sanoq tizimlari asosi $r=8$. Shuning uchun raqamlarning raqamlarini koʻrsatish uchun sakkiz xil belgidan foydalanish kerak, ular uchun 0, 1, 2, ..., 7 tanlangan (eʼtibor bering, bu erda 8 va 9 belgilar ishlatilmaydi va raqamlar yozuvida ishlatilmasligi kerak). Masalan, $735,468_{10}$ oʻnlik kasrlari quyidagi raqamga mos keladi:

$$735,468_{10} = (7 \cdot 8^2 + 3 \cdot 8^1 + 5 \cdot 8^0 + 4 \cdot 8^{-1} + 6 \cdot 8^{-2})_{10} = 477,5937_{10}$$

$$\begin{array}{ccccc} \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow \\ 8^2 & 8^1 & 8^0 & 8^{-1} & 8^{-2} \end{array}$$

Yaʼni, $735,468_{10}$ soni, tarkibida yetti marta $8^2 = 64$ dan, uch marta $8 = 8$, besh marta $8^0 = 1$, toʻrt marta $8^{-1} = 1/8$, olti marta $8^{-2} = 1/64$ dan deb belgilangan.

Oʻn oltilik sanoq tizimida asosi $r = 16$ va razryadlar raqamini yozish uchun 16 simvol dan iborat toʻplamdan foydalaniladi:

0, 1, 2, ..., 9, A, V, S, D, Ye, F.

Unda 0 dan 9 gacha boʻlgan arab raqami va 6 ta lotin bosh xarflaridan foydalaniladi. 16 lik sanoq tizimidagi A xarfiga 10 lik sanoq tizimidagi 10, V – 11, S – 12, D – 13, Ye – 14, F – 15 mos keladi.

AV9, S2F₁₆ ga quyidagi 10 lik sanoq tizimidagi sonlar mos keladi.

$$\begin{array}{ccccccc} A & B & 9 & , & C & 2 & F_{16} = (10 \cdot 16^2 + 11 \cdot 16^1 + 9 \cdot 16^0 + 12 \cdot 16^{-1} + 2 \cdot 16^{-2} + 15 \cdot 16^{-3})_{10} = \\ \downarrow & \downarrow & \downarrow & & \downarrow & \downarrow & \downarrow \\ 16^2 & 16^1 & 16^0 & & 16^{-1} & 16^{-2} & 16^{-3} \end{array} = 2745,7614745 \dots_{10}$$

N-razryadli raqamlarni raqamli uskunada saqlash uchun siz har biri raqamning mos razryadining raqamini eslab qoladigan n elementdan iborat qurilmalardan foydalanishingiz mumkin. Ikkilik sanoq tizimida ko‘rsatilgan raqamlarni saqlash eng oson usul hisoblanadi.

O‘nlik sanoq tizimidagi sonlarni saqlash uchun, o‘nlikdagi xar bir son ikkilik ko‘rinishda tasvirlanadi. Ushbu tasvirlash formasi ikkilik-o‘nlik sanoq tizimiga kodlangan deb ataladi.

Misol, $765,93_{10}$ ikkilik-kodlangan:

$$765,93_{10} = 0111 \ 0110 \ 0101 \ , \ 1001 \ 0011 \ 2_{-10}$$

Ko‘rilgan usul *kod 8421 deyiladi*. (kodning nomi ikkilik son bitlarining og‘irliklaridan iborat). Ushbu kod bilan bir qatorda, o‘nlik raqamlarni ikkilik kodlashda boshqa har xil kodlardan foydalaniladi, ulardan eng keng tarqalgani jadvalda keltirilgan (3.1.- jadval).

3.1.- jadval.O‘nlik raqamni turli kodlari

O‘nlik raqam	O‘nlik raqamni ikkilik kodi					
	kod 8421	kod 2421	kod 2 – 5	kod orttir.3	kod 3a+2	kod 7421
0	0000	0000	1100	0011	00010	0000
1	0001	0001	0110	0100	00101	0001
2	0010	0010	0011	0101	01000	0010
3	0011	0011	0001	0110	01011	0011
4	0100	0100	1000	0111	01110	0100
5	0101	1011	1010	1000	10001	0101
6	0110	1100	0101	1001	10100	0110
7	0111	1101	0010	1010	10111	1000
8	1000	1110	1001	1011	11010	1001
9	1001	1111	0100	1100	11101	1010

7421 kodi shundaki, har qanday kod kombinatsiyasi ikkitadan ko‘p bo‘lmagan kodni o‘z ichiga oladi. 5-ning 2-kodida barcha kod birikmalari to‘liq ikkitasini o‘z ichiga oladi. Ushbu xususiyat noto‘g‘ri kombinatsiyalarni aniqlash uchun ishlatiladi (qabul qilingan kod so‘zining har qanday belgilarini noto‘g‘ri tanib olish ushbu kombinatsiyada bo‘lganlar sonini o‘zgartiradi). To‘qqizgacha qo‘shilgan o‘nlik raqamlarning juftlari to‘qqizgacha bir-birini to‘ldiradigan

raqamlarni tashkil qiladi (0 va 9, 1 va 8, 2 va 7,...). 2421 kodida va ortiqcha 3 kodida o'nlik raqamlarning har qanday biriga mos keladigan kodlar kombinatsiyasi uning to'qqiz qismiga mos keladigan kombinatsiyaning inversiyasidir. Masalan 2421 kodi o'zaro bir-birini to'ldiruvchi juftlikka to'qqizgacha raqamlar 2 va 7 0010 va 1101 kombinatsiyasiga to'g'ri keladi, ularning har biri boshqasiga teskari shaklda hosil bo'ladi.


Ushbu xususiyat raqamli qurilmalarda o'nlik raqamlar bo'yicha arifmetik amallarni bajarishni osonlashtiradi. $Za + 2$ kodi xuddi shu to'qqizning qo'shimcha xususiyatiga ega. Bundan tashqari, ushbu kod yana bir foydali xususiyatga ega: har qanday juft kombinatsiya kamida ikkita raqamdan farq qiladi, bu esa noto'g'ri kombinatsiyalarni aniqlashga imkon beradi (kod kombinatsiyalarining biron bir razryadning raqamini o'zgartiradigan xato, ishlatilmaydigan taqiqlangan kombinatsiyaga olib keladi).

Sanoq sistemalari ikki xil bo'ladi:


1. Pozitsion sanoq sistemasi (Turgan o'rni e'tiborga olinadigan sanoq sistemasi)

2. Pozitsion bo'lmagan sanoq sistemasi (Turgan o'rni e'tiborga olinmaydigan sanoq sistemasi)

Turgan o'rin e'tiborga olinadigan sanoq sistemasi pozitsion sanoq sistemasi deyiladi:



Turgan o'rin e'tiborga olinmaydigan sanoq sistemasi pozitsion bo'lmagan sanoq sistemasi deyiladi:



I-bir

IV- to'rt

V- besh

X- o‘n

L- ellik

C- yuz

D- besh yuz

M- ming

Rim sanoq sistemasida raqamni chap tarafga qo‘yilgan raqam, shu sonidan ayiriladi va chap tarafga faqat bitta raqam yozish mumkin.

Misol:

IX- o‘ndan bir ayiriladi. $(10-1=9)$

XL- ellikdan o‘n ayiriladi. $(50-10=40)$

XC- yuzdan o‘n ayiriladi. $(100-10=90)$

CD- besh yuzdan yuz ayiriladi. $(500-100=400)$

Misollar:

1) $1972=1000+900+70+2$ ni rim sanoq sistemasida quyidagicha yozish mumkin:

M SM LXX II
 1000 900 70 2

2) $2156=2000+100+50+6$ ni rim sanoq sistemasida quyidagicha yozish mumkin:

MM C L VI
2000 100 50 6

Ikkilik va o‘nlik sonlarni jamlash

Arifmetik amallarni bajarish

Ayirish amalini bajarilishi uchun ikki yo‘l bor – summator kabi ayiruvchi sxemasini qurish, ikkinchi yo‘l sonlarni maxsus formaga keltirib summatoridan foydalanish. Ko‘pgina EHMLarda ikkinchi yo‘l qo‘llaniladi. Bunday amalda qo‘llanilayotgan sonlar teskari va qo‘shimcha kodlarga o‘zgartiriladi. Sonni teskari kodga o‘tkazish uchun, xar bir razryadni inversiya qilinadi. Masalan, 0100 soni teskari kodda quyidagicha bo‘ladi: 10011. Ikkilik sonni qo‘shimcha kodga aylantirish uchun, teskari kodga aylantirilgan sonning kichik razryadiga 1 qo‘shiladi.

$$10011+00001=10100$$

Bu holda ayirish amalini bajarish uchun ayiruvchini teskari yoki qo‘shimcha kodga keltiramiz. Masalan, 10011 dan 01010 sonini ayirish kerak bo‘lsin. Oddiy holda bu amal quyidagicha bajariladi:

10011

—

01010

01001

Agar, ayiruvchini teskari va qo‘shimcha kod holda yozsak yuqoridagi amalni quyidagicha bajarsa bo‘ladi.

10011

10011

+

+

10101

10110

1←01000


1←01001



00001


01001

Shunday qilib, teskari kodni ishlatish yuqori razryadda siljigan 1 ni yuqori razryaddan quyi razryadga o‘tkazish kerak va bu holda qo‘shimcha kodni topishga xojat qolmaydi. Bunda yuqori razryadda sodir bulgan siljish inobatga olinmaydi. Bularni bajarish uchun summator kirishini (Si) qo‘shimcha mantiqiy elementlar bilan bog‘lash kerak. Ular yordamida bi ni to‘g‘ri holda yoki invers holda kiritish mumkin. Kichik razryadli 1 ni qo‘shish summator kirishiga R0 signalini berish bilan amalga oshiriladi. Quyida (3.13-rasmga qarang) bi kodini to‘g‘ri va inversiya holda beruvchi sxemasi keltirilgan.



3.13- rasm. Summatorni kirishi uchun (Si) qo‘shimcha mantiqiy elementlar ulanishi


Har bir razryadda bunday sxemaning bo'lishi, summatorning faqat qo'shish, ayirish emas, balki boshqa bir qancha amallarni bajarishi imkoniyatini yaratadi. Yuqorida aytilgan gaplarni tushuntiruvchi sxemalar 6-rasmlarda keltirilgan. Bu rasmlardagi 1-sxema qo'shish amalini bajaradi va bu xol uchun S_0 , S_1 ning qiymatlari berilgan (3.14a-rasmga qarang). Ayirish amalini bajaruvchi sxema 6b-rasmga berilgan.



3.14-rasm. Summatorlarda bajariladigan amallar
Mantiqiy amallarni bajarish

Arifmetik amallardan tashqari EHMning ma'lumotlarni qayta ishlash blokida mantiqiy amallarni ham bajarish mumkin. Mantiqiy amallar kodlar ustida razryadlar bo'yicha bajariladi va bu ko'p xollarda AMQ elementlari majmuasiga juda ham bog'lik. Quyidagi 3.15-rasmda AMQ i-razryadining to'rt mantiqiy amal bajaruvchi sxemasi keltirilgan. Bular quyidagi amallar: I, ILI, ILI-NYe va NYe. Bajariladigan amalning tanlanishishi S_0 va S_1 boshqarish signallari yordamida amalga oshiriladi.


S_0	Chiqish	Amal
S_1	signal f_i	nomi
0	$f_i = a_i \vee b_i$	ILI-NYe
0	$f_i = a_i + b_i$	ILI
1	$f_i = a_i \wedge b_i$	I
0	$f_i = a_i$	NYe
0		
1		
1		
1		



3.15-rasm. Mantiqiy amallar bajarilishi.

Mantiqiy elementlar soni va ularni tanlash mashinaning mantiqiy amallar bo'yicha ro'yxatida amalga oshiriladi. Mavjud sxemalarni birlashtirish, ya'ni arifmetik va mantiqiy amallarni birgalikda bajarish quyidagi 8-rasmda keltirilgan sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Bu

yerda amallarni tanlash – S_0 , S_1 va M signallari yordamida bajariladi. Summatorning (S), i -razryaddagi chiqish va mantiqiy amallarni bajaruvchi sxemaning f_i chiqishi multipleksor (MS) yordamida birlashtiriladi. M kirish bo‘lsa amalning xilini, ya‘ni 0-bo‘lsa – arifmetik, 1-bo‘lsa mantiqiy amalligini belgilaydi.



3.16-rasm. Arifmetik va mantiqiy amallarni birgalikda bajarish sxemasi.

Ammo ayrim amallarni bajarishda AMQ elementlarini qo‘llash, faqat ba‘zi holatlardagina o‘zini oqlashi mumkin. Ko‘p xollarda yaxlit tuzilgan bitta kombinatsion sxemagina xar bir razryad uchun barcha amallarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Agar amallarni bajarishga sarflanadigan vaqt xal qiluvchi bo‘lmasa, u holda dasturlash yo‘li bilan amallar bajariladi . Bu holda murakkab buyruk (buyruq), oddiy amallar ketma-ketligidan iborat bo‘ladi. Bunga yaqqol misol qilib ko‘paytirish amalini ketma-ket qo‘shishlar amali yordamida bajarilishini keltirish mumkin. Masalan, 0111 ni 1010 ga ko‘paytirish kerak bo‘lsin. Quyida keltirilgan ko‘p sonli qo‘shishlar va ko‘paytiriluvchi razryadlarni siljitishlar ko‘paytirish amalini bajarishga olib keladi. Ya‘ni bu holda ko‘paytirish amalini bajarish uchun EHM amalar ro‘yxatida qo‘shish va siljitish amallari bo‘lishi yetarlidir. Summatorning mantiqiy amallarni bajarishga yaqqol misolini «ILI–NYe» amalini bajarishda razryadga qo‘shimcha «o‘tishni» yo‘q qilish kifoya. Buning uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tish zanjirida (8-rasm) «I» sxemasini o‘rnatish va uning bir

kirishiga oldingi razryaddan o'tish signalini, ikkinchisiga esa S2 signalni ulash lozim. U holda S2=1 da summator faqat arifmetik amalni, S2=0 da «ILI-NYe» mantiqiy amalni bajaradi. Xuddi shu summatorida ko'paytirish amalini bajarish uchun quyidagilarni bajarish lozim.

$$S_2=0 \text{ da} \\ C_i=a_i+b_i=(a_i+k_i)+b_i=a_i*b_i/k_i*b_i/a_i*k_i*b_i$$

(3.1)

$$k_i=b_i \text{ holda} \\ C_i=a_i*b_i/b_i*b_i/a_i*b_i*b_i=a_i*b_i$$

(3.2)

Shunday qilib, summatorning ai kirishiga "ILI" va "I" elementlarini o'z ichiga oluvchi kombinatsion sxema qo'llab, "I" amalini bajaruvchi AMQ hosil qilish mumkin. Bu sxemaga agar biz "I" sxemasini ham qo'shsak, qo'shimcha "ILI" amalini ham bajarish mumkin. 9-rasmda ikki razryadli AMQ ning bir kancha arifmetik va mantiqiy amallarini bajaruvchi kombinatsion sxemasining qismi keltirilgan. 3.2-jadvalda esa, S0, S1, S2, S3 boshqaruv signallarining qiymatlari va AMQ bajarishi mumkin bo'lgan amallar keltirilgan.

3.3. Mikroprotsessorning ishini tashkil etuvchi asosiy bloklar turkumi

Arifmetik mantiqiy qurilmalar

Arifmetik va mantiqiy amallar bajariladigan qurilma **arifmetik-mantiqiy qurilma (AMQ)** deb ataladi. Sodda amallar ketma-ketligi ko'rinishida ifodalangan masalalarni avtomatik ravishda yechish uchun berilganlarni, oraliq va olingan hisoblash natijalarini saqlashga, hamda oddiy amallarni bajarish tartibi haqidagi ma'lumotlarni saqlashga imkon beruvchi qurilma talab etiladi. Bunday qurilma **xotira** deb ataladi.

Barcha turdagi AMQlar uchun ayiruv, mantiqiy ko'paytiruv, mantiqiy qo'shuv, istisnoli YoKI, inversiya, o'ngga siljish, chapga siljish, musbat orttirma (inkrement), manfiy orttirma (dekrement) arifmetik amallarini bajarish majburiy hisoblanadi. Majburiy amallar apparat vositalari yordamida amalga oshiriladi, ya'ni talab etilgan ishni bajarish uchun ma'lumotlar ma'lum mikrosxemalardan o'tishi kerak. Majburiy amallar sodda amallar deb ataladi


AMQlar arifmetik ko'paytiruv va bo'luv kabi nisbatan murakkab amallarni bajarmaydi. Shuning uchun bu amallar sodda amallarning

dasturiy kombinatsiyasi yordamida bajariladi. Bu usul amallarni bajarishning *mikrodasturiy* usuli deb ataladi. AMQlar EHMning asosiy tugunlaridan hisoblanadi.

AMQlar 2-,4-,8-,16-razryadli amallarni bajaruvchi alohida IMSlar yoki KISlar tarkibida ishlab chiqariladi. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan AMQ mikrosxemalari iqqita o'zgaruvchi ustidan 16 ta mantiqiy va ularga mos keluvchi 16 ta arifmetik amallarni bajaruvchi to'liq majmuadan tashkil topgan. Ular jadvalda keltirilgan. AMQ ko'p turli amallarni bajarishga mo'ljallangani bilan, ko'proq arifmetik qo'shuv va ayiruv (45% gacha) va arifmetik ko'paytiruv (50% gacha) amallarini bajaradi. MPT aloqa tizimlariga joriy qilinishi analogli usullarni raqamli usullar tomonidan siqib chiqarilganligi bilan izohlanadi, bu ularning multipleksorlarda, kodlarni o'zgartiruvchi, xatolarni nazorat qiluvchi qurilmalarda, uzatish va qabul qilish qurilmalarining boshqarish bloklarida keng ko'lamda qo'llanilishiga olib keldi.

3.2-jadval. Boshqaruv signallari.

Amalni tanlash				Mantiqiy amallar	Arifmetik amallar	
S3	S2	S1	S0		$\bar{C}_H=1$	$\bar{C}_H=0$
0	0	0	0	\bar{A}	A	$A+1$
			1	$\overline{A \vee B}$	$A+B$	$(A+B)+1$
		1		$\bar{A} \wedge B$	$A+\bar{B}$	$(A+\bar{B})+1$
		1	1	0	-1	0
	1			\overline{AB}	$A+A\bar{B}$	$A+A\bar{B}+1$
	1		1	\bar{B}	$(A+B)+A\bar{B}$	$(A+B)+A\bar{B}+1$
	1	1		$A \oplus B$	$A+B-1$	$A-B$
	1	1	1	$A\bar{B}$	$A\bar{B}-1$	$\overline{A\bar{B}}$
1				$\bar{A} \vee B$	$A+AB$	$A+AB+1$
1			1	$A \approx B$	$A+B$	$A+B+1$
1		1		B	$(A+\bar{B})+AB$	$(A+\bar{B})+AB+1$
1		1	1	$A \wedge B$	$AB-1$	AB
1	1			1	$A+A$	$A+A+1$
1	1		1	$A \vee \bar{B}$	$(A+B)+A$	$(A+B)+A+1$
1	1	1		$A \vee B$	$(A+\bar{B})+A$	$(A+\bar{B})+A+1$
1	1	1	1	A	$A-1$	A



Ma'lumotlarga amallar yordamida ishlov berish qismi protsessor deb ataladi. Protsessor apparat vositasi bo'lib, ular buyruqlarga va ma'lumotlarga ishlov berish uchun mo'ljallangan. Protsessor o'z ichiga AMQni, amallarni boshqarish blokini va buyruqlarni boshqarish blokini oladi. Amallarni boshqarish bloki amallar kodini ketma-ket elektr signallariga aylantiradi. Buyruqlarni boshqarish bloki esa, buyruqlar majmuasini boshqaradi. AMQ ikkilik sanoq tizimida arifmetik va mantiqiy amallarni bajarish uchun mo'ljallangan. Bunday ikkilik sanoq tizimi operendlar deb atalib, ular o'zgarmas vergul va suzuvchi vergul shaklida yozilishi mumkin. Bundan tashqari ularga o'nlik sonlar, buyruqlar va ayrim uning maydonlari, mantiqiy kodlar, alfavit raqam maydonlari kirishi mumkin. AMQda bajariladigan amallarni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin:

- O'zgaruvchan va o'zgarmas vergulli ikkilik sanoq tizimidagi amallar;
- O'nlik arifmetik amallar;
- Ko'rsatkichli – arifmetik amallar (buyruq adreslari ustida amallar)
- Mantiqiy maydonlar ustida amallar;
- Alfavit–raqam maydonlari ustida amallar.
- AMQning funksional sxemasini oddiy amallar misolida ko'ramiz. Ular, o'zgarmas va suzuvchi vergulli mantiqiy kodlar ustida amallardir. Ikkilik sanoq sonlarni qo'shish misolida AMQ strukturasi

tushuntirish oson bo‘ladi. Masalan, 00111 va 01101 sonlarni qo‘shish kerak bo‘lsin.

- Birinchi son 00111
- +
- Ikkinchi son 01101
- Surilish 1111
- Natija 10100

Qo‘shish amali ketma-ketlikda bajariladi. Ketma-ketlik kichik razryaddan boshlanib, katta razryadni qo‘shish bilan tugaydi. Qo‘shishda surilish ro‘y berishi mumkin, bular keyingi razryadda inobatga olinishi shart. Yuqorida keltirilgan misolda surilish birinchi razryadda ro‘y bergan. O‘z navbatida ikkinchi razryadda ham ro‘y bergan va xokazo. Demak, ikki sonni qo‘shishda summator amalini eng kichik razryaddan boshlaydi va bunda yig‘indi va siljish keyingi razryad uchun hosil bo‘lishi kerak. Qolgan hamma razryadlarni qo‘shishda oldingi razryaddagi siljish hisobga olinishi kerak. i – razryaddagi ($i=0, n-1$) qo‘shish amalini bajarishda, n razryadli sonlarni qo‘shishda uch kirishli va 2 chiqishli kombinatsion sxema qo‘llanilishi mumkin: 3.3-jadvalda olinishi mumkin bo‘lgan signal qiymatlari bir razryadli summator kirishida va unga mos chiqishdagi signallar qiymati, ya‘ni yig‘indi (S_i) va siljish (R_i) keltirilgan.

3.3-jadval.

Olinishi mumkin bo‘lgan signal qiymatlari bir razryadli summator kirishida va unga mos chiqishdagi signallar qiymati,


Kirish			Chiqish	
A_i	b_i	P_{i+1}	P_i	C_i
0	0	0	0	0
1	0	0	0	1
0	1	0	0	1
0	0	1	0	1
1	1	0	1	0
0	1	1	1	0
1	0	1	1	0
1	1	1	1	1

Yuqoridagi jadval bo‘yicha AMQ funksiyasini quyidagicha ko‘rinishda yozamiz:

$$S_i = P_{i+1}(a_i b_i \vee a_i \bar{b}_i) \vee P_{i+1}(\bar{a}_i b_i \vee a_i \bar{b}_i) \quad (3.3)$$


$$P_{i+1}(a_i b_i \vee a_i \bar{b}_i) \vee \bar{P}_{i+1}(a_i \bar{b}_i \vee a_i b_i) = P_{i+1} + (a_i + b_i) \quad (3.4)$$

(3.1) va (3.2) funksiyalar asosida 3.17-rasmda bir razryadli summator uchun sxema keltirilgan.



3.17-rasm. Bir razryadli summatorning sxemasi.

Bir razryadli summator asosida (1 va 2-rasm) n- razryaddan sonlar uchun summator qurish mumkin.



3.18-rasm. Paralel n-razryadli summator sxemasi.

3.18-rasmda paralel n-razryadli summator sxemasi keltirilgan. Uni qurish uchun n ta summator kerak bo‘ladi. Si chiqishlari ($i=0, n-1$) yig‘indi amallarini hosil qiladi. Siljish signallarning chiqishi keyingi razryadning siljish kirishiga ulangan. 3-rasmda keltirilgan sxema bo‘yicha siljishlar ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Bu sxemada qo‘shish amalini bajarish vaqti quyidagicha aniqlanadi.

$$t_{\Sigma} = t_c + (n-1)t_p \quad (3.5)$$

bu yerda t_c – summatorning bir razryadida qo‘shish amalini bajarish vaqti ;

t_p – signalning bir razryadda hosil bo‘lish vaqti;

Yig‘indining hosil bo‘lish vaqtini tezlashtirish uchun (3.5) tenglamaning ikkinchi xadini kichiklashtirish kerak. Bu ish maxsus

generator–sxemasi yordamida amalga oshirish mumkin. Quyida R_i qiymatini aniqlash formulasi keltirilgan.

$$R_i = a_i b_i V(a_i + b_i) R_{i+1} \quad (3.6)$$

Quyidagi o‘zgartirish kiritib $a_i b_i = g_i$; $a_i + b_i = q_i$, R_i ni aniqlash formulasini o‘zgartirilgan xolini yozamiz.

$$R_i = g_i V q_i p_{i+1} \quad (3.7)$$

Bunday o‘zgartirishlarning maqsadi shunday bulevo–funksiyalarni qurib, ular yordamida har bir razryadda parallel ravishda siljish signallarini hosil qilish va bunga javob beruvchi sxemani qurishdan iboratdir.

4-razryadli summator uchun funksiyalar tizimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

$$P_3 = g_3 V q_3 P_4 \quad (3.8)$$

$$P_2 = g_2 V q_2 P_3 = g_2 V q_2 (g_3 V q_3 P_4) = g_2 V g_3 q_2 V q_2 q_3 P_4 \quad (3.9)$$

$$P_1 = g_1 V q_1 P_2 = g_1 V q_1 g_2 V q_1 q_2 g_3 V q_1 q_2 q_3 P_4 \quad (3.10)$$

$$P_0 = g_0 V q_0 g_1 V q_0 q_1 q_2 g_3 V q_0 q_1 q_2 q_3 P_4 \quad (3.11)$$

4-rasmda 4 razryadli parallel summatorning tezkor siljish hosil qiluvchi sxemasi keltirilgan. U (3.9) formula asosida qurilgan.

Tezkor siljishli n-razryadli summatorada amalni bajarish vaqti quyidagicha aniqlanadi.


$$t_{\Sigma} = t_c + t_p \quad (3.12)$$

bunday summatorada qurilmaning xajmi razryadlar soni oshishi bilan keskin oshadi. Shuning uchun amaliyotda ketma–ket va tezkor siljishning majmuasi qo‘llaniladi. Ya‘ni hamma n-razryadlar r-razryadli guruxlarga bo‘linib, gurux ichida tezkor siljish, gruppalararo ketma-ket siljish qo‘llaniladi.

Mikroprotsessorning tezkor bloki

Pentium protsessorining umumlashtirilgan strukturali sxemasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi (2.5.Rasm):

- ShI – 64-razryadli shina interfeysi;
- ikkita 32-razryadli butun sonli AMQ;
- komandalarning kesh-xotirasi;
- ma‘lumotlarning kesh-xotirasi;
- Umumiy vazifalarga mo‘ljallangan registrlar;
- ilgarilanma tanlamalar buferi ;
- o‘tish adreslarini oldindan bilish bloki ;
- suzuvchi nuqtali konveyer hisoblashlar bloki.



3.19-rasm. Pentium mikroprotssessorining umumlashgan struktura sxemasi.

Shina interfeysi protssessor tashqi shinasini ichki shinasi bilan moslashtirish uchun mo'ljallangan.


Kengaytirilgan 64-razryadli ma'lumotlar shinasi. Pentium MP shinalar siklining bir necha turlariga ega, ularga bitta siklda 256 bir ma'lumot kesh-xotiraga uzatiladigan paketli rejim ham kiradi. Bu i486DX protssessoriga qaraganda uzatish tezligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, 66 MGts chastotali shinaga ega Pentium MP ning uzatish tezligi 528 Mbayt/s, 50 MGts chastotali shinaga ega i486DX MP da esa 160 Mbayt/s.

Superskalyar arxitektura. "Superskalyar" atamasi bittadan ko'p hisoblash blokiga ega bo'lgan mikroprotssessor arxitekturasiga nisbatan qo'llaniladi. Pentium protssessori ikkita komandani bir vaqtda bajarishi mumkin bo'lgan ikkita konveyerga ega, U-konveyer komandalarning to'liq to'plamiga, V-konveyer esa to'liq bo'lmagan to'plamga ega. 3.20-rasmda konveyerlar ikkita butun sonli ALU, RON, BVO bilan soddalashtirib tasvirlangan. Bitta konveyerli i486 protssessori kabi ikkita konveyerli Pentium protssessori butan sonli komandalarni beshta bosqichda bajaradi (2.6. -rasm):

1. Oldindan tahmin qilingan komandalarni xotiradan olish (oldindan tanlov) – PF (PreFetch).

2. Komandani dekodlash – D1.

3. Komandani dekodlash – D2.
4. Komandani bajarish – EX.
5. Natijani yozish uchun mo'ljallangan buferga saqlash – EW.



3.20-rasm. Pentium protsessorida butun sonli buyruqlarni bajarish bosqichlari.

Birinchi bosqich to'rtta 32-razryadli buferga ega bo'lgan BVO bloki bilan bajariladi. Ikkita bir-biriga bog'liq bo'lmagan tanlov buferlari jufti o'tish bo'lishi yoki bo'lmasligini tahmin qiluvchi BPAP bloki bilan birga ishlaydi. Agar o'tish tahmin qilinmasa, tanlov davom ettiriladi, agar tahmin qilinsa, boshqa bufer ishlashiga ruxsat beriladi va u o'tish nuqtasidan tanlovni boshlaydi. Agar tahmin qilingan o'tish amalga oshmasa, komanda konveyerlari tozalanadi va tanlov boshidan boshlanadi. Ikkinchi stadiyada komandani dekodlash xotiradagi operandlar adreslarini shakllantiradi. Har bir konveyer o'zining bir taktda to'lishi mumkin bo'lgan, yozish uchun mo'ljallangan 64-razryadli buferiga ega. Hech qanday o'qish so'rovlari buferda mavjud bo'lgan yozish so'rovlari tartibini buzmaydi. Pentium MP yozishning qat'iy ketma-ketligini qo'llaydi.

Yuqori samarali arifmetik soprotsessor BKVPZ 8-taktli konveyer va ko'paytirish, bo'lish arifmetik operatsiyalarini bajaruvchi apparat vositasini o'z ichiga oladi. Suzuvchi nuqtali operatsiyalarning katta qismi bitta butunsonli konveyerda bajarilishi mumkin, so'ng ular

suzuvchi nuqtali hisoblash konveyeriga tushadi. Pentium ichki joylashtirilgan arifmetik soprotsessorining samaradorligi FPU-486 (Floating-Point Unit) soprotsessorining samaradorligini 2-10 marta oshiradi.

Ikkita konveyerdan foydalanish bir necha komandalarga bajarilishning turli bosqichlarida bo'lish imkonini beradi va konveyerni komandalar bilan to'liq egallanishi hisobiga MP samaradorligini qo'shimcha ravishda oshiradi. Pentium protsessorida arifmetik operatsiyalarni apparatli bajarishdan foydalaniladi, bu ham protsessor samaradorligini oshiradi.

Kesh-xotirani komanda va ma'lumotlarga bo'lish. Pentium mikroprotsessori komanda va ma'lumotlar uchun bo'lingan kesh-xotirasiga ega. Bu i486 protsessoridan farqli ravishda bitta komanda uchun tanlov jarayoni va boshqa komanda uchun ma'lumotlarga murojaat jarayonlari o'rtasidagi konfliktni bartaraf qilishga imkon beradi. Kesh-xotira komandalar va ma'lumotlar uchun bo'linganda ikkala komanda bir vaqtda bajarilishi mumkin. Pentium protsessorida komanda kesh-xotirasi va ma'lumotlar kesh-xotirasi hajmi bir xil, 8 Kbaytni tashkil qiladi. Komanda va ma'lumot kesh-xotirasi ikki kirishli assotsiativ kesh-xotira sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ma'lumotlar kesh-xotirasi ikkita interfeysga ega (har bir konveyer uchun bittadan), bu esa bitta mashina sikli davomida ikkita alohida komandani ma'lumot bilan ta'minlashga imkon beradi.

Ma'lumotlar kesh-xotirasi kechiktirilgan yozuv bilan ishlaydi (tashqi shina bo'shatilgunga qadar) va teskari yozuv rejimiga sozlanadi. Ohirgi holatda ma'lumotlar kesh-xotiradan olinadi, bundan keyin esa asosiy xotiraga yoziladi. Keshlashning bunday usuli protsessor bir ma'lumotni bir vaqtda ham kesh-xotiraga, ham asosiy xotiraga yozadigan oddiy keshlashga qaraganda yuqori samaradorlikka ega. Ma'lumotlar kesh-xotirasi MESI protokolini qo'llaydi. Bu protokol boshqa protsessorlarning kesh-xotiralariga murojaat qilish imkoniyatini beradi. Protokolning nomlarini MESI kesh-xotira qatorlari holatlari nomlanishidan kelib chiqadi: M (Modified), E (Exclusive), S (Shared), I (Invalid). Kesh-xotira qatorlari holatlari quyidagicha tavsiflanadi:

M-holat – ko'rib chiqilayotgan protsessorning faqat kesh-xotirasida mavjud bo'lgan qator. Qator modifikatsiya qilingan, ya'ni asosiy xotira tarkibidan farq qiladi. Unga yozuvlar kiritish tashqi murojaat siklini generatsiya qilmay amalga oshiriladi;

E-holat – ko‘rib chiqilayotgan protsessorning faqat kesh-xotirasida mavjud bo‘lgan, ammo modifikatsiya qilinmagan qator. Qatorga yozuv kiritish tashqi murojaat siklini generatsiya qilmay amalga oshiriladi. Qatorga yozuv kiritilganda u M-holatga o‘tadi;

S-holat – qator ko‘rib chiqilayotgan protsessor kesh-xotirasida va boshqa protsessorlar kesh-xotiralarida bo‘lishi mumkin. Undan o‘qish tashqi siklni generatsiya qilmay amalga oshiriladi, yozuv kiritish esa boshqa protsessorlar kesh-xotirasidagi mos yozuvlarni bekor qilinishiga olib keluvchi asosiy xotiraga kiritish bilan amalga oshiriladi;

I-holat – kesh-xotirada mavjud bo‘lmagan qator, uni asosiy xotiradan o‘qish kesh-xotirani qatorlar bilan to‘ldirish siklini generatsiya qilinishiga olib keladi. Kesh-xotira qatoriga yozuv kiritishda tashqi shinadan foydalaniladi.

Multiprotsessor ish rejimini qo‘llash. Pentium arxitekturasi ikki va undan ortiq Pentium protsessorlarini multiprotsessor tizimida ishlatishi mumkin. Pentium MP ikkinchi avlodidan boshlab simmetrik arxitekturali ikki protsessorli tizimni qurish arxitekturasini qurish interfeysi qo‘llangan.

Xotira sahifalari hajmini berish vositasi. Pentium protsessori xotira sahifasi hajmini tanlash uchun opsiyaga (boshqaruv maxsus biti) ega: an‘anaviy (4 Kbayt) va kengaytirilgan (4 Mbayt).

Funksional qo‘shimchalar yordamida xatoni aniqlash va testlash vositasi. Pentium protsessorida ishonchlilikni oshirish maqsadida ichki qurilmalar va tashqi shina interfeysi xatoliklarini aniqlash (ichki nazorat pariteti), adreslar shinalari nazorat pariteti, funksional qo‘shimchalar yordamida testlash ko‘rib chiqilgan. Ichki xatolarni aniqlash komanda va ma‘lumot kodlariga juftlik bitlarini qo‘shishdan iborat, bu tizim va foydalanuvchi uchun xatolarni aniqlash imkonini beradi. Funksional qo‘shimchalar yordamida testlash dasturiy ilovalarda foydalaniladi. Funksional qo‘shimchalar yordamida testlash ikkita Pentium protsessorlarining asosiy/nazorat qiluvchi (master/checker) konfiguratsiyasidagi ishiga asoslanadi. Bunday konfiguratsiyada asosiy protsessor odatiy bir protsessorli rejimda ishlaydi. Nazorat qiluvchi protsessor ham shu operatsiyalarni bajaradi, ammo shinani boshqarmaydi va asosiy protsessor chiqish signallarini o‘zi generatsiya qilayotgan signallar bilan solishtiradi. Olingan natijalar mos kelmagan holatda tizimda uzilish sifatida qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan xatolik signali shakllanadi. Bunday usul 99% dan ko‘proq xatolarni aniqlashga

imkon beradi. Bundan tashqari, testlash vositasi ichki oʻrnatilgan test BIST (Built In Self Test) ni bajarish imkonini beradi, bu mnemokodlar, dasturlanayotgan mantiqiy matritsalar xatoliklarini aniqlash, komanda va maʼlumot kesh-xotiralarini adres buferlarini va doimiy xotira qurilmasini testlashni taʼminlaydi. Umuman olganda oʻz-oʻzini testlash protsessorning 70% tugunlarida bajariladi. Barcha protsessorlar JTAG raqamli qurilmalarni testlash ketma-ket interfeysi yordamida oʻz-oʻzini testlash uchun IEEE 1149.1 standart test portiga ega.

Pentium protsessorlarining oʻziga xosliklari quyidagilar:

- bir necha yangi komandalarning mavjudligi, shu jumladan protsessor modelini aniqlash;
- energiya taʼminotini boshqarish vositasining mavjudligi;
- shina sikllarini konveyer adreslanishini qoʻllash;
- komandani bajarish vaqti (taktlar soni) qisqartirilgan;
- komandalar trassirovkasi va samaradorlik monitoringi;
- virtual rejim imkoniyatlarini kengaytirish – uzilish virtual bayrogʻining mavjudligi;

Yangi qoʻshimcha sozlash vositalari:

- zondlangan rejim (Probe Mode), ichki registr, kiritish-chiqarish va protsessor tizim xotirasiga murojaatni taʼminlaydi. Bu rejim protsessor holatini ichki sxema emulyatori imkoniyatlari kabi imkoniyatga ega boʻlgan dastur yordamida tekshirish va oʻlchash imkonini beradi;

- kengaytirilgan sozlamalar (DE, Debug Extensions), kiritish/chiqarish komandalari adresi boʻyicha nazorat nuqtalarini oʻrnatish imkonini beradi;

- ichki hisoblagichlar, samaradorlikning joriy nazorati va hodisalar sonining hisobi uchun foydalaniladi;

Arxitekturani kengaytirish. 32-razryadli Pentium protsessorlarining bazaviy arxitekturasiga qoʻshimcha MSR (Model Specific Registers) modeli uchun maxsus registrlar toʻplamiga ega. MSR registrlar toʻplami MP ning turli modellaridan turlicha boʻladi, bu ularning mumkin boʻlgan mos tushmasliklariga olib keladi. MSR registrlarida foydalaniladigan dasturiy taʼminot CPUID komandalari yordamida olingan protsessor haqidagi maʼlumotlardan foydalanishi kerak.

MSR registrlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- test registrlari TR1 – TR12;

-
- samaradorlik monitoringi vositasi;
 - mashina xatosi nazoratini chaqiruvchi adres va ma'lumotlar sikli registri.

Test registrlari protsessorlarning ko'pgina funksional tugunlarini boshqarishni, ularning ishga yaroqliligini testlash imkoniyatini ta'minlaydi. TR12 registr bitlari yordamida yangi arxitektura xususiyatlarini, shuningdek, kesh-xotira ishini taqiqlash mumkin.

Samaradorlik monitoringi vositasi apparat va dasturiy ta'minotni dastur kodida potensial "tor joy"larni paydo bo'lishi hisobiga optimizatsiya qilish imkonini beradi. Ishlab chiqaruvchi ichki protsessor hodisalari taktlarini kuzatishi mumkin, bu o'qish va yozuvlar kiritish, kesh-xotiraga "omadli" va "omadsiz" murojaatlar, uzilish, shinadan foydalanish operatsiyalari samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bu dastur kodining effektivligini baholash va dasturiy ilovaning maksimal samaradorligiga erishish imkonini beradi. Samaradorlik monitoringi vositasi real vaqt taymeri va hodisalar hisoblagichi hisoblanadi. Taymer TSC (Time Stamp Counter) 64-razryadli hisoblagich bazasida qurilgan, tarkibi protsessor ishining har taktida inkrementatsiya qilinadi. Uning tarkibini o'qish uchun RDTSC komandasidan foydalaniladi. 40-razryadli hodisalar hisoblagichlari CTR0, CTR1 shina operatsiyalari, komandaning bajarilishi, konveyer, kesh-xotira, nazorat nuqtalari ishi va boshqalarga bog'liq bo'lgan turli klass hodisalarini hisoblashga dasturlanadi. Hodisa turini bildiruvchi olti bitli maydon har bir hisoblagichga mustaqil ravishda katta ro'yxatdagi hodisalarni hisoblash imkonini beradi. Bundan tashqari tashqi liniyalar RM1-RM0 mavjud, ular mos hisoblagichlarning ishlashi va to'lib qolish omillari ko'rsatkichlariga dasturlanadi.

Mashina xatosi nazoratini chaqiruvchi adres va ma'lumotlar sikli registri nomi turli klasslar (Pentium va Pentium Pro) uchun yoki xatto protsessor turli modellari uchun mos tushmasligi mumkin. Ulardan foydalanayotgan dastur CUID komandasi bilan protsessor haqidagi ma'lumotlarga murojaat qilishi kerak.

Pentium protsessorlari ishlamayotgan rejimda energiya ta'minotini kamaytirish imkoniyatiga ega. STOPCLK# signali bilan protsessor buferdan kechiktirilgan yozuvni yuklaydi va Stop Grant rejimiga o'tadi, bunda ko'pgina protsessor tugunlarining takti kamayadi, bu esa energiya ta'minotini tahminan 10 martaga kamaytiradi. MP bu holatda komandalarni bajarishni to'xtatadi va uzilishlarga xizmat ko'rsatmaydi,

lekin ma'lumotlar shinasini kuzatishni davom ettiradi. Protsessor bu holatdan STOPCLK# signalining to'xtashi bilan chiqadi. SMM rejimidan foydalanib STOPCLK# rejimini boshqarish ta'minotni kengaytirilgan boshqaruv mexanizmi APM (Advanced Power Management) tomonidan amalga oshiriladi. Quvvatga talabni proporsional kamaytirish bilan protsessorni sekinlashtirish uchun STOPCLK# signali davriy impulslardan iborat bo'lishi kerak.

Protsessor kamaytirilgan energiya ta'minoti Auto HALT PowerDown holatiga HALT komandasini bajarish vaqtida o'tadi. Bu holatda protsessor barcha uzilishlarni boshqaradi va shuningdek, shinani kuzatishda davom etadi.

Tashqi sinxronizatsiyani to'xtatish rejimida protsessor minimal quvvat iste'mol qiladi, ammo hech qanday funksiya bajarmaydi. Sinxronizatsiya signallarining ketma-ket uzatilishi RESET signaliga mos bo'lishi kerak.

Mikrodasturlash

Har bir hisoblash jarayoning amalga oshirish qurilmasining asosida arifmetik-mantiqiy qurilma yotadi. Ushbu qurilmalarda har bir elementar operatsiyalar ketma-ket bajarilib, bu jarayoni **mashina taktlari** deb ataladi. Elementlar funksional operatsiyalarni bir mashina taktida bajarilish jarayoni **mikro-operatsiyalar** deyiladi. Har bir mikrooperatsiyalar bajarilishi bajaruv signallar kelganda amalga oshiriladi. Ushbu boshqaruv signallarni qandaydir qurilma ishlab chiqarishi va u quyidagi jarayonlarni bajarishi mumkindir:

- Xotiradan navbatdagi buyruqni o'qishi, uni deshifratsiya qilishi va boshqarishi sikl davomida saqlashi;
- Olingan buyruq kodi axborotidan tegishli adreslarni tashkil etishi;
- Xotira qurilmasidan yoki umumiy ishlaniladgan registrlardan talab etilgan operandlarni tanlab va ularni arifmetik-mantikiy blokga o'zatish;
- Bajarish lozim bulgan buyruq ketma -ketlik boshqaruvi signallarini ishlab chiqish;
- Olingan natijalarni umumiy ishlatiladigan registrlar yoki operativ xotiraga uzatish;
- Navbatdagi buyruq adresini tashkil etish;
- Shartsiz va shartliy alomatlar asosida qayta adreslash;

– Boshqarish operatsiyalarini ishga tushirish (mashinin ishga tushirish, to‘xtatish, dasturlarni avtomalashtirilgan yoki komanda ketma-ketligida), tekshirish , kiritish va chiqarish qurilmalari bilan bog‘liq turli ish rejimlarini ta‘minlash va boshqa yuqoridagi jarayonlarni amalga oshirish uchun boshqaruv avtomatlarini (BA) qurish va ishlatish zarurdir

BA ko‘rish ikki xil mantiqiy sxema va dastur usullar orqali amalga oshiriladi. Mikroprogramma asosida qurilgan boshqarish qurilmalari **mikroprogramma avtomatlashtirish** deb ataladi.

Ma‘lumki har bir avtomat – abstrak va struktura avtomatlashtirishlarga bo‘linadi. Abstrak avtomatlash nazariyasi avtomatlashtirishning tashqi kommutatsiyali holatlarni o‘rganib, uning qanday qurilishini ko‘rib chiqadi. Struktur avtomat esa, abstrakt satxida berilgin mantiqiy sxemalar bilan qurilishni o‘rganadi.

Avtomatlarning chiqish signalarini ishlab chiqarishiga qarab Mil, Mur va S avtomatlarga bo‘linadi. Hamma avtomatlarning o‘tish funksiyalari bir xil bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishlarda yoziladi:

$$Z(t)=\delta[X(t),Z(t-1)]$$


Chiqish funksiyalar esa, quyidagi ifodalar ko‘rinishida beriladi:

$$Y(t)= F[F(t),Z(t-1)]\text{- Mil avtoati uchun,}$$

$$Y(t)=F[Z(t)]\text{-Mur avtomat guruxi:}$$

S-avtomatlarda Mil va Mur avtomati hususiyatlar birlashtirilgan.

Mil va Mur abstrakt avtomatlashtirish bir kanalik kirishi va chiqish jarayoni xarakterlaydi (3.21- rasm)



3.21-rasm.Mili va Mur abstract avtomatlashtirish.

Mili avtomat chiqish signallari ,kirish singnallari va xotira holati funksiyalaridir. Mur avtomalarida esa, chiqish signallari faqat xotiraga bog‘liqdir. Abstark avtomatlashtirish ishlash nazariyasida qanday qilib kirish xarakatlari (so‘zlarni) chiqish harakatlari (so‘zlarga) o‘zgarishlari jarayoni ko‘riladi.

Har bir abstrak avtomatlarni o‘tish va chiqarish jarayonlari, graflar, analitik usullari bilan ko‘rsatish mumkindir.

Shuni ta'kidlash lozimki , turli avtomatlar asosida boshqaruv qurilmalarini loyihalash va qurish jarayonlari mavjud davrda ikki yo'ldan biri orqali amalga oshiriladi va ular quyidagilardir:

– Mantiqiy sxemalar asosida boshqaruv avtomatlarni struktur sintezi;


– Mantiqiy dasturlash asosida boshqaruv mikro dasturlash avtomatlarning sintezi.

3.4. Mikroprotsessordagi tizimning ishlash prinsipi

Tashqi qurilmalarni mikroprotsessorga ulash

Dasturli periferiya interfeysi (DPI)ning shartli belgilanish va uni mikroprotsessordagi tizimiga ulanishining mumkin bo'lgan sxemalardan biri 3.17.-Rasmda keltirilgan. DPI tashqi qurilmalar bilan ikki tomonlama 8 bitli 3 ta aloqa kanaliga ega bo'lib, RA, RV, RS portlar deb nomlanadi. RS porti qolganlaridan shunisi bilan farq qiladi-ki, uni ikkita mustaqil 4 bitli portlarga bo'lish mumkin, ya'ni D7. . . D4 katta yarmiga va D3. . . D0 gacha bo'lgan kichik yarmiga. Paralel interfeys (IOP) deb nomlanadigan, DPI ikki tomonlama D7. . . D0 uch holatlik chiqishlar yordamida ma'lumotlar shinasiga ulanadi. A1, A0 kirishlar ma'lumotlar almashishning to'rtta kanaldan birini tanlashni bajaradi: RA,RV,RS uchta portdan yoki boshqarishlar holatini (3.4.- jadval.) ichki registrida(BGXRyoki CSR-Control and Status Register) qayd etiladi.

3.4.-jadval. boshqarishlar holati



3.22.-Rasm. Dasturli periferiya interfeysi.

DPI «mikrosxema tanlash» deshifrator adresining chiqishidagi invers kirishdagi aktiv signalning yordamida ish holatiga keltiradi. (Chip, Selekt, Crystall Selekt, CS) (rasmda to‘liq bo‘lmagan I-HE elementining chiqishida mantiqiy nol paydo bo‘ladi, agar uning hamma kirish signallari ‘1‘ ga teng bo‘lsa ($A7=A6=A5=A4=1$). Adreslar shinasiga (ASh) yuqoridagi kirishlar kabi ulangan A, A0 kirishlar yordamida chunonchi u yoki bu kanalni tanlash mumkin bo‘lsa, u holda AShga deshifrator kirishlarning hisobga olgan holda quyidagi kombinatsiyalar(3.5. -jadval) mavjud:

3.5. -jadval.Kombinatsiyalar

ADRYeS shinalari liniyasi								KANAL/ PORT	ADRYeS (NYeX)
A7	A6	A5	A4	A3	A2	A1	A0		
1	1	1	1	X	X	0	0	PA	F0
1	1	1	1	X	X	0	1	PB	F1
1	1	1	1	X	X	1	0	PC	F2
1	1	1	1	X	X	1	1	CSR	F3

Adreslar shinasining A3, A2 liniyalari sxemada ishlatilmagan, shuning uchun ularning qiymati jadvalda X (x Don‘t Care Bits) belgilangan. 16 sanoq sistemasidagi adresni hisoblashda, dasturchi bit qiymatlar sifatida hohlagan qiymatlarni, yukorida keltirilgan jadvaldagidek(3.5. -jadval), nollar ham qo‘yib chiqishi mumkin. Masalan, RV porti uchun ikkilik kodi $1111xX01=11110001(BTN)=F1(NEX)$.

DPI portlariga ulangan MP (SRU)ni va tashqi qurilmalar (TK) orasida ma‘lumot baytlari bilan almashinuvi assembler IN. . . . va OUT . . . buyruklar yordamida bajariladi.

IN va OUT buyruklarining bajarilishi ikki etapda bajariladi (mikroprotsessorning konkret arxitekturasiga bog‘liq, taktlarni va sikllarni hisobga olmagan holda). Misol: IN AL, OF1h va OUT OF1h, AL ko‘rsatmaning bajarilishi.

1 etap). ASh siga MP adresni (masalan F1) joylashtiriladi va u deshifratsiyalanadi (bizning misolda I-NYe elementi). Deshifrator chiqishda aktiv bosqich (0) ~ CS invers kirishga keladi va DPI ni ish holatiga o‘tkazadi.

2 etap) a) OUT buyrug‘i. Keyingi vaqt paytida MP AL registrida joylashgan baytni ma‘lumotlar shinasiga joylashtiradi va bir vaktida ~ boshqarish kirishiga kelayotgan ~IOW strob yozuvini ishlab chiqaradi.

~IOW impulsi mos ravishdagi portning chiqish registridagi ma'lumotlar baytini ulab qo'yadi (bizning misolda RV porti) b) IN buyrugi. MP ~RD signalini qo'yishi boshqaruv kirishga AL akumulyatoridagi ikkilik kodi ma'lumotlar shinasini (MSh) orqali RV portidan ma'lumotlar baytini o'qish uchun ~IOR – strob o'qishni yuboradi

DPI bajarayotgan operatsiyalarning turi (ishlash rejimi) uning boshqaruv registriga yozib qo'yilgan axborotiga bog'liq. Bu axborot boshqaruv bayti yoki buyruq deb nomlanadi. Quyida ko'p ishlatiladigan rejimlardan biri "0"- rejimida D6, D5, D2-bitlardan nollardan iborat (3.6. -jadval) boshqaruv baytining formati keltirilgan.

3.6-jadval.


Boshqaruv baytining formati.

D7	D6	D5	D4	D3	D2	D1	D0
1	0	0	PA	PCh	0	PB	PC1

PA,PB,PCh, PC1 bitlari portlari orqali ma'lumotlar uzatishning yunalishini aniklaydi (agar port masalan, chiqishga mo'ljallangan bo'lsa, IN buyrug'i yordamida MP ga ma'lumotlarni u orqali kiritib bo'lmaydi).

Agar sanab o'tilgan bitlardan biri o'rnatilgan (unga 1 yozilgan), bo'lsa, unda mos ravishdagi (MP --> T.K), agar bit tushirib qolinsa (unga "0" yozilgan), unda port chiqish uchun mo'ljallangan (MP--> T.+).

RAU va ARU tashqi qurilma sifatida DPI ga ulash misoli quyidagi 3.23.-rasmda keltirilgan. Analog-raqamli o'zgartirgichning ketma-ketlik yaqinlashishi (MP larda keng taraqqalgan) RA portining raqamli chiqishiga ulangan (boshqa port ham bo'lishi mumkin). R tashqi gen. yoqish kirishi RS portining liniyalaridan biriga ulangan o'zgartirgichning tayyorlik chiqishi RS7 liniyasi bilan ulangan.



3.23-rasm. DPI ga RAU (SAP) va ARU (ASP)ni ulash.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, RA porti kodni kirishi U_{kir} kuchlanishiga to‘g‘ri proporsional bo‘lgan kodni kiritishga, RV porti esa-kodni chiqarishga sozlangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun boshqaruv baytining D4 (RA) biti o‘rnatilgan D1 (PB) biti esa tushirib qoldirilgan bo‘lishi kerak.

3.7.-jadval.

Boshqaruv bitlari.

D7	D6	D5	D4	D3	D2	D1	D0
1	0	0	1	PCh	0	0	PCl

Keyinchalik shunga e‘tibor qilamizki RS0 liniyasi u bilan birga hamma RS1ning kichik yarim qismi chiqishga, RS7 (RSh)linyasi-esa kirishga sozlangan bo‘lishi kerak, shuning uchun keltirilgan variantni ARU va RAU ga ulash uchun oxirgi boshqaruv bayti quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

3.8.-jadval.

Boshqaruv so‘zi.

D7	D6	D5	D4	D3	D2	D1	D0	HEX kod
1	0	0	1	1	0	0	0	98

Tizim shinasi. Mikroprotsessor qurilmasining manzil muxiti.

Mikroprotessor arxitekturasi – foydalanuvchi nuqtai nazaridan qaraladigan mantiqiy tuzilish bo‘lib, MP tizimini tuzish uchun zarur bo‘ladigan funksiyalarning apparatlar va dasturlar vosita amalga oshirilishiga ko‘ra mikroprotsessorda joriy etiladigan imkoniyatlarni belgilab beradi. Mikroprotessor arxitekturasi tushunchasi quyidagilarni aks ettiradi:

- mikroprotessor tuzilishini, ya‘ni mikroprotsessorni tashkil etadigan tarkibiy qismlar komponentlarining majmui va ular orasidagi aloqalarni (foydalanuvchi uchun mikroprotessorning registrli modeli bilan cheklanish kifoyadir);

- ma‘lumotlarning taqdim etilish usullari va ularning formatlarini;

- tuzilishning dasturiy jihatdan foydalanuvchi uchun tushunarli bo‘lgan barcha elementlariga murojaat qilish usullarini (registrarga, doimiy va tezkor xotiralar yacheykalariga, tashqi qurilmalarga ma‘lum adres bo‘yicha murojaat qilish);

- mikroprotessor tomonidan bajariladigan operatsiyalar to‘plamini;

- mikroprotessor tomonidan shakllantiriladigan va uning ichiga tashqaridan kirib keladigan boshqaruvchi so‘zlar va signallar tavsifini;

- tashqi signallarga bildiriladigan munosabatlarni (uzilishlarga ishlov berish tizimi va shu kabilar).

Mikroprotessor tizimining xotira bo‘shlig‘ini shakllantirish usuliga ko‘ra MP arxitekturalari ikkita asosiy turga bo‘linadi.

Dasturlar va ma‘lumotlarni saqlash uchun bitta xotira bo‘shlig‘i qo‘llanilgan tuzilish **fon Neyman arxitekturasi** deb ataladi (dasturlarni ma‘lumotlar formatiga muvofiq keladigan formatda kodlash taklifini kiritgan matematik nomi berilgan).

Bunda, dasturlar ham, ma‘lumotlar ham yagona bo‘shliqda saqlanib, xotira uyasidagi axborot turiga ishora qiluvchi biror-bir alomat bo‘lmaydi. Bunday arxitekturaning afzalliklari jumlasiga mikroprotessorning ichki tuzilishi nisbatan soddaligi va boshqaruvchi signallar sonining kamligi kiradi.

Dasturlar xotirasi CSEG (ingl. Code Segment) va ma‘lumotlar xotirasi DSEG (ingl. Data Segment) o‘zaro ajratilgan hamda har biri o‘zining manzilli bo‘shlig‘i va kirish usullariga ega bo‘lgan tarzda yaratilgan tuzilish **Garvard arxitekturasi** deb ataladi (shunday arxitekturaning yaratish taklifini kiritgan Garvard Universiteti laboratoriyasining nomi berilgan).

Ushbu arxitektura nisbatan murakkab bo‘lib, qo‘shimcha boshqaruv signallarini talab qiladi. Biroq, u axborot bilan ancha uddaburon harakatlar bajarish, ixcham kodlashtiriladigan mashina komandalari to‘plamini joriy etish va qator hollarda mikroprotssessor ishini jadallashtirish imkonini beradi. Intel firmasining MCS-51 oilasiga mansub mikrokontrollerlar mulohaza yuritilayotgan arxitekturalarning bir vakili sanaladi.

Bugungi kunda aralash arxitekturali mikroprotssessorlar ishlab chiqarilib, ularda CSEG va DSEG yagona adresli bo‘shliqqa joylangan, ammo ular turli murojaat mexanizmlariga ega. Bunga aniq misol tariqasida Intel firmasining 80x86 oilasiga mansub mikroprotssessorlarni keltirish mumkin.


Jismonan mikroprotssessor xotira qurilmasi hamda kiritish-chiqarish tizimi bilan tizim shinalarining yagona to‘plami – **tizim ichidagi magistral** orqali hamkorlik qiladi. Ushbu magistral aksariyat hollarda quyidagilardan tashkil topadi(3.2.-Rasm.):

DB (ingl. Data Bus) rusumli ma‘lumotlar shinalaridan (ushbu shinalar orqali MzP, xotira va kiritish-chiqarish tizimi o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi amalga oshadi);

AB (ingl. Address Bus) rusumli adreslar shinalaridan (murojaat qilinayotgan xotira va kiritish-chiqarish portlari yacheykalarining adreslarini uzatish uchun qo‘llaniladi);


CB (ingl. Control Bus) rusumli boshqaruv shinalaridan (axborot almashinuvi sikllarini amalga oshirib, tizim ishini boshqaradigan signallar ayni shu shinalar orqali uzatiladi).

Shinalarning ayni shunday to‘plami XTTK kanalini tashkil toptirish uchun ham qo‘llaniladi. Bunday turdagi magistral demultipleks magistrali yoki ayiruvchi manzil va ma‘lumotlar shinalariga ega uch shinali magistral deb ataladi.



3.24.-rasm. Uch shinali magistral.

Ayrim mikroprosessorlarda magistralning jismoniy enini toraytirish maqsadida manzil-ma'lumotlarning qo'shma shinasi AD (ingl. Address/Data Bus) joriy etilib, ushbu shina orqali adreslar ham, ma'lumotlar ham uzatiladi. Adresga oid axborot uzatish bosqichi ma'lumotlar uzatish bosqichidan vaqt bo'yicha ajratilgan bo'lib, SV tarkibiga kiritilgan maxsus ALE (ingl. Address Latch Enable) signali vositasida stroblanadi. Ushbu magistral, odatda, multipleks magistral yoki adreslar va ma'lumotlarning qo'shma shinasi bilan birgalikdagi ikki shinali magistral deb ataladi (3.3. -Rasm.).



3.25-rasm. Ikki shinali magistral.

Ma'lumotlarning magistral orqali tabiiy almashinishi kanalga so'zlar yoki baytlar vositasida bir-biridan keyin amalga oshiriladigan murojaatlar ko'rinishida kechadi. Magistralga murojaatlarning bitta sikli davomida MP, xotira qurilmasi va kiritish-chiqarish tizimi o'rtasida

bitta soʻz yoki bayt uzatiladi. Almashinishning bir nechta sikllari mavjud. Ular jumlasiga **xotirani oʻqish** va **xotiraga yozish sikllari** kiradi.

Kiritish-chiqarish makoni izolyatsiya boʻlganida **kiritish-chiqarish portini oʻqish** va **kiritish-chiqarish portiga yozish sikllari** qoʻshiladi.

Magistralda, ishlash tezligi MzPning ishlash tezligidan past boʻlgan qurilmalar ishlab turgan ayrim holatlarda RD, WR va shu kabi boshqa stroblar davomiyligi chetdagi modul tomonidan almashinish operatsiyasi toʻgʻri bajarilishi uchun yetarli boʻlmay qolishi mumkin. Magistral operatsiya muvaffaqiyatli yakun topishini tashkillashtirish uchungina CB tarkibiga maxsus READY signali kiritiladi. Kanalga murojaatlarning har bir siklida RD yoki WR strobase yakuniga yetishdan oldin MzP READY signalining holatini tekshiradi. Agar READY ushbu fursatda hali uloqtirib yuborilmagan boʻlsa, MzP tegishli stroba muddatini unga WS (ingl. Wait State) deb nomlanadigan kutish taktlarini oʻrnatib, uzaytiradi. Mikroprotssessorning maʼlum modeli va ish rejimiga bogʻliq holda WS ning maksimal miqdori cheklangan yoki cheklanmagan boʻlishi mumkin.

Magistralda amalga oshadigan ishning oddiy rejimida faqat bitta faol qurilma ishlaydi, u ham boʻlsa, MzP boʻlib, magistralda kechadigan maʼlumotlar almashinuvining barcha sikllarini qoʻzgʻatadi. Biroq, shunday holatlar ham joizki, bunda ayni bitta magistralda bir nechta faol qurilma boʻlib, ular ayni bir xotira va kiritish- chiqarish bloklari bilan ishlashi darkor boʻladi. Boshqa faol qurilma maʼlumotlarni magistral boʻylab uzata olishi uchun MzPni vaqtincha dezaktivatsiya qilish zarur boʻladi. Bu maqsadda aksariyat zamonaviy mikroprotssessorlar **“bevosita xotiraga kirish”** (BXK) deb nom berilgan rejimda ishlay oladi. Ushbu rejim amalga oshishi uchun CB ga qoʻshimcha HOLD va HLDA signallari kiritiladi. CB boshqaruv shinasining kirish qismiga HOLD ning faol sathi yetib kelganida mikroprotssessor oʻz dasturi ishining ijrosini toʻxtatadi, shinalarining chiqish qismlarini yuqori impedan holatga oʻtkazib, chiqish qismidagi faol sathni HLDA ga havola etadi. Bu esa, oʻz navbatida, magistral boʻylab almashinish siklini boshlash mumkinligi haqida boshqa faol qurilma uchun signal xizmatini oʻtaydi. Ushbu qurilma oʻz almashinish sikllarini nihoyasiga yetkazgach, HOLD signalini uloqtirib yuboradi.

Shundan soʻng MzP oʻzining odatiy holatiga oʻtib, dastur ishini davom ettiradi.

MzPdan dastur ishining meʼyoriy kechishini oʻzgartirish talab etiladigan boshqa ish rejimi ham mavjud boʻlib, unga **“uzilish”** deb nom berilgan. Zamonaviy mikroprotssessorlarning deyarli hammasi bitta yoki bir nechta INT0, INT1 va h. k. nomlanadigan tashqaridan uzib qoʻyadigan kirish qismlariga ega. Ushbu kirish qismlariga tizimda muayyan hodisalar roʻy berayotganligi haqida dalolat beruvchi signallar yetib keladi. MzP esa, oʻz navbatida, kelgan signallarga muayyan tarzda munosabat bildirishi lozim. Bunday kirish qismlaridan biriga faol sathli signal yetib kelganida, mikroprotssessor, meʼyoriy tarzda kechayotgan dastur ishi uzilib, ishni toʻxtatishga sabab boʻlgan komanda manzilini xotiraga saqlaydi va muayyan manzil boʻylab CSEGga yozilib qolgan **“uzilishga ishlov berish kichik dasturi”**ni (TQIKD) bajarishga kirishadi. Bunday kichik dastur manzili **“uzilish vektori”** deb nomlanadigan maxsus xotira uyasiga yozilgan. Dastur ishini uzgan har bir alohida manba oʻz uzilish vektoriga ega. TQIKDni bajarib boʻlgach, protssessor, xotirada saqlangan manzil boʻyicha TQIKD ijrosi yakunlanadigan maxsus komandaga binoan ishi uzilgan dastur ijrosiga qaytadi. Dastur ishi uzilishiga sababchi boʻlgan manbalar jumlasiga ichki manbalar ham (yaʼni, mikrosxemaning **“uzilish soʻraladigan kirish qismlari”** deb nomlanadigan kirish qismlaridan biriga kelishi), tashqi manbalar ham (yaʼni, muayyan sharoitlarga koʻra protssessor ichida generatsiyalanishi) kirishi mumkin. Bir vaqtning oʻzida bir nechta turlicha uzilish soʻrovlari kelishi mumkinligi bois, bunday soʻrovlarning har biriga alohida xizmat koʻrsatish izchilligini belgilaydigan muayyan tartib mavjud. Uning ishini MzP ichida yoki maxsus kontoller vositasida joriy etilgan **“uzilishlarning ustuvor arbitraj”** tizimi taʼminlaydi. Mulohaza yuritilayotgan tizimga muvofiq dastur ishi uzilishiga sababchi boʻlgan har bir manba, unga xizmat koʻrsatilish navbatini belgilab beradigan oʻz ustunligiga (doimiy yoki oʻzgaruvchan ustunlikka) ega. Bir vaqtning oʻzida bir nechta uzilish soʻrovlari kelgan paytda dastavval ustunlik darajasi yuqori, shundan soʻng past darajali uzilish soʻrovlariga xizmat koʻrsatiladi. Ustunlik darajasi yuqori soʻrov asosiy dastur ishini qanday toʻxtatib qoʻysa, ishi boshlangan past darajali uzilishga ishlov berish kichik dasturining ishini ham xuddi shu tariqa toʻxtatib qoʻyishi mumkin. Ayni paytda **“kiritilgan uzilish”** deb ataladigan uzilish vujudga keladi.

CSEG va DSEGdan tashqari deyarli barcha amonaviy mikroprotessorlar RSEG (ingl. Register Segment) dasturiy-ochiq registrlar to'plami deb ataladigan atayin ajratib qo'yilgan kichik hajmli ma'lumotlar makoniga ega. CSEG va DSEGdan farqliroq RSEG registrlari MzP ichida, uning arifmetik-mantiqiy qurilmasining bevosita yaqinida joylashgan. Bu esa, o'z navbatida, ushbu registrlar ichidagi axborotga jismonan tez kirib borilishini ta'minlaydi. RSEG registrlari ichida, odatda, MzP tomonidan tez-tez ishlatib turiladigan hisoblarning oraliq natijalari saqlanadi. RSEG sohasi DSEGning ma'lumotlar makonidan to'liq ajratilgan bo'lishi yoki u bilan qisman kesishib o'tishi yoxud uning tarkibiy qismi sifatida kiritilgan bo'lishi mumkin. RSEGning ichki mantiqiy tuzilishi turlicha bo'lib, mikroprotessorlarning arxitekturasini tasniflashda muhim o'rin egallaydi.

MC normal rejimda ishlashi va qoʻriqchi taymeri yoqilganda, dastur vaqtivaqti bilan qoʻriqchi taymerini yangilab turishi kerak (va biz dasturda davriy ravishda tiklashni taʼminlashimiz kerak), u ishlashi va MK-ni qayta ishga tushirishidan oldin. Agar dastur "muzlatib qoʻysa", u holda qoʻriqchi taymerini qayta tiklash boʻlmaydi va maʼlum vaqtdan keyin u MK-ni qayta ishga tushiradi.

Toʻxtatish moduli.

Toʻxtatish – protsessorga hodisa roʻy berganligi toʻgʻrisida xabar beradigan signal. Bunday holda, joriy dasturning bajarilishi toʻxtatiladi va boshqaruv toʻxtatilgan ishlov beruvchiga topshiriladi, u voqeaga javob beradi va unga xizmat qiladi (dastur bajariladi, tegishli voqea sodir boʻlganda MC bajarishi kerak – uzilish) va keyin uzilgan dasturga qaytadi.

Mikroprotsessorli sistemalarida bir qator qoʻshimcha funksiyalarni bajaruvchi katta integral sxemalar koʻllaniladi. Ularga taymer va darajali uzilishlar kontrolleri misol boʻla oladi. Taymer katta integral sxemasi mikroprotsessorli boshqarish sistemalarida turli vaqt intervallarini hosil qilish va impulslar ketmaketligi turidagi signallarni qayta ishlash uchun xizmat qiladi.




3.42-rasm. K580VI53 seriyasidagi taymerning va K580VN59 seriyadagi darajali uzilishlar kontrollerining sxematik ko‘rinishi.

Masalan K580VI53 taymeri 3 ta bir-biriga bog‘lik bo‘lmagan 16 razryadli ayiruvchi sanash qurilmalaridan iborat. Ular 2/10 lik va 2 lik sanoq sistemalarida ishlashi mumkin. Xar bir sanash qurilmasini bir necha ish rejimidan (mul‘tivibrator, yakkavibrator, tug‘ri impul’slar generatori va x.k.) biriga programmlashtirish mumkin. Xar bir sanash qurilmasi S_i – impul’slar kirishiga, Y_i – boshqarish kirishiga va OUT_i – chiqish signaliga ega. Taymerni programmlash davomida uning sanash qurilmasiga 16 razryadli son yoziladi. Y_i -boshqarish signali ruxsati bilan C_i - kirishidagi xar bir impul’s sanash qurilmasidagi sonni bittaga kamaytiradi va u “0” soniga yetganda OUT_i – chiqishida ish rejimiga mos bo‘lgan signal hosil bo‘ladi. Masalan, taymer schetchiklaridan birini impul’slar ketma-ketligi kurinishidagi signal beruvchi, «Elektronika NSTM-01» robotining chiziqli xarakat yuritmalari yo‘l datchikiga, ulash mumkin.


Darajali uzilishlar kontrolleri (DUK) mikroprotessorli boshqarish sistemalarida apparat vositalari va programma asosida hosil qilinadigan turli uzilish so‘roqlariga (asosiy programmani vaqtincha to‘xtatib, uzilish so‘rog‘iga mos programmani ishga tushirish va u bajarib bo‘lingandan so‘ng asosiy programmani uzilish bo‘lgan joyidan davom ettirish) xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan. DUK ning ishlash prinsipi bilan tanishishni K580VN59 katta integral sxemasi misolida ko‘ramiz (1-rasm). Xar bir DUK 8 ta uzilish surog‘iga (IR_0, IR_1, \dots, IR_7) xizmat ko‘rsata oladi. Bir nechta DUK larni kaskadlash sxemasi orqali

ulash bilan 64 tagacha uzilish so‘rog‘iga xizmat ko‘rsatuvchi sxemani hosil qilish mumkin. CAS0, CAS1, CAS2 – kaskadlash sxemasi bo‘yicha ulanish kirishlari. Bunday sxemada bitta DUK yetakchi, qolganlari ergashuvchi xisoblanadi. Ularning yetakchilik yoki ergashuvchanlik maqomi MS kirishi orqali o‘rnatiladi. INT, INTA – mikroprotsessor bilan bog‘lanish singlari.



3.43-rasm. “Elektronika NSTM-01” roboti impulsli datchigining ishlash prinsipi.

Biror IRI-kirishi orqali uzilish so‘rog‘i kelganda DUK mikroprotsessorga INT orqali uzilish so‘rog‘i yuboradi. Mikroprotsessor bajarayotgan komandasini oxiriga yetkazib, uzilishga tayyorlik signali INTA ni DUKga uzatadi va undan 3 baytli podprogrammaga o‘tish komandasini qabul qiladi. Bu podprogrammada kelgan uzilish so‘rog‘iga mos xizmat ko‘rsatish programmasi joylashgan bo‘ladi. 3-rasmda taymer va DUKning mikroprotsessorli sistemaning adreslar, ma‘lumotlar va boshqarish shinalariga ulanish sxemasi keltirilgan.



3.44-rasm. Taymer va DUKni sistema shinalariga ulanish sxemasi.

3.8. K1821 VM 85A rusumli mikroprotssessorning strukturaviy tuzilmasi

K1821 VM 85A rusumli mikroprotssessorning asosiy parametrlari va xarakteristikalar

K1821 VM 85A mikroprotssessori 8 razryadli protssessorida joylashgan operatsion va boshqaruv qurilmalaridan tashkil topgan katta integral sxemadir (KIS).

Boshqaruvchi hotira iste'molchiga yopiq bo'lib, unda KIS ishlab chiqarish chog'idayoq amal mikrodesturlari (buyruqlar bajariladigan mikrodesturlar) yoziladi.

Shu tariqa iste'molchi o'zgarish kirita olmaydigan buyruqlar tizimi yaratish ko'zda tutilgan. Shu boisdan ushbu mikroprotssessor dasturlanmaydigan, ya'ni mikrobuyruq sathida emas, buyruq sathida dasturlanadigan MP dir. 3.45.- rasmda KR **K1821 VM 85A** KIS struktura sxemasi keltirilgan. Qisqacha uning tarkibini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumotlar registri. Amalda ishtirok etuvchi ma'lumotlarni saslash uchun yettita 8 razryadli registr ko'zda tutilgan. A registri

akkumulyator deyiladi va u tashqi qurilmalar bilan informatsiya almashishi uchun mo'ljallangan (ya'ni, uning tarkibidagi ikkilik raqamli son chiqishga uzatilishi yoki uning kirishiga qabul qilinishi mumkin).

Arifmetik va mantiqiy amallar bajarilgan paytda amallarning biri (amalda ishtirok etuvchi son) akkumulyatorida joylashadi va shu akkumulyatorga amalni bajarishdan chiqqan natija yoziladi. Qolgan oltita B, C, D, E, H, L registrlar **umummaqsadli registrlar** (UMR) hosil qiladi, (bu registrlar ham adres, ham ma'lumotlarni saqlash uchun ishlatilgani uchun shunday nomlanadi). Bu registrlar yakka 8 razryadli registr tariqasida ham ishlatilishi mumkin. 16 razryadli ikkilik sonlarni saqlash zarurati tug'ilgan xollarda ular BC, DYe, HL juft registrlarni hosil qiladi.

1BR, 2BR, W, Z, buffer registrlari dasturiy yopiq (ya'ni mutaxassis dastur tuzish vaqtida ularga murojat qila olmaydi).

SP-stek deb nomlangan stek ko'rsatgichi (16 razryadli) barcha ko'rinishdagi hotirani adreslashga xizmat qiladi. **RC- hisoblash registri** (16 darajali) buyruq adresini saqlashga xizmat qiladi: operativ xotiradan joriy buyruq tanlanganidan so'ng hisoblagich tarkibi bittaga oshiriladi va shu tariqa navbatdagi buyruq adresi (shartli va shartsiz o'tishlar bo'lmagan holda) shakllantiriladi.

Xotiraga murojaat qilingan paytda adres sifatida istalgan UMR ning juft registrlari tarkibi ishlatilishi mumkin. Adres chiqarilgan hollarda mazkur registrlar tarkibi 16 razryadli adres registri (AR) ga uzatiladi, undan esa keyingi adres shina buferi (ASh buferi) dan o'tib 16 razryadli adres shinasiga tushadi. Ushbu shinadan adres operativ xotiraga qabul kilinishi mumkin.

16 razryad adresli kodlar kombinatsiyasi soni 2^{16} ga teng, ushbu kodlar kombinatsiyasining har biri operativ xotira adresi (nomeri) dan birini bildirishi mumkin. Shu tariqa tarkibida $2^{16} = 2^6 * 2^{10} = 64 \text{ K}$ tadan 8 razryadli so'z (bayt) ga ega bo'lgan xotiraga murojaat qilish imkoniyati ta'minlanadi.


Arifmetik mantiqiy qurilma (AMQ) 8 raryadli AMQ da to'rt arifmetik (kichik darajaga o'tkazishni ko'zda tutgan yoki tutmagan hollarda qo'shish, kichik razryaddan qarz olishni ko'zda tutgan yoki tutmagan hollarda ayirish) to'rt mantiqiy (kon'yunksiya, diz'yunksiya, notenglik, taqqoslash) holda to'rt xil (chapga, o'ngga, siklik chapga va o'ngga) siljish amallarini bajarish imkoniyatiga ega.

Siljish amallari faqatgina akkumulyator tarkibida bajariladi. Oʻnlik sonlar ustidan ham arifmetik amallar bajarilishi koʻzda tutilgan.

Oʻnlik sonlarni saqlashda registrlar razryadi ikki guruhga boʻlinadi, har bir guruhda bitta oʻnlik son, yaʼni 8421 kodi holda berilgan 4 razryadli koʻrinishida beriladi. Shunday qilib, registrda 2 razryadli oʻnlik sonni saqlash mumkin. Oʻnlik raqamlarni qoʻshish amalini bajarishda natijani 0110 ni qoʻshish yoʻli bilan taxrir qilish talab qilinishi mumkin. Natijaning xar bir 4 razryadli guruh natijasi ustida tahriri MP da oʻnlik tahrir sxemasi (UTS) yordamida bajariladi.

Bayroq registri -(BR). Bu 5 razryadli registr ayrim amallar bajarish natijasida paydo boʻlgan sonning alomatini saqlash uchun xizmat qiladi. Ushbu registrning 5 ta triggeri quyidagilar uchun xizmat qiladi:

– Ts trigger (oʻtish triggeri) – agar summatorning yuqori darajasi chiqishida qoʻshish amalining bajarilishi natijasida oʻtish signali yoki oshirish amalining bajarilishi natijasida qarz olish yuzaga kelsa, u holda oʻtish alomati $S=1$.



3.46- rasm. KR 580 VM 80 A mikroprotessor tarkibi.

– Tg trigger (nol triggeri)-agar amalni bajarish natijasi 0 ga teng boʻlsa, u holda nollik alomati $Z=1$.

– Ts (belgi triggeri) – agar buyruqni bajarish natijasi manfiy bo‘lsa, u holda $S=1$.

– Tr (juftlik triggeri)- agar amal bajarish natijasida barcha darajalar qiymatining modul 2 bo‘yicha yig‘indisi 0 bo‘lsa, u holda $R=1$.

– Tu (yordamchi o‘tish triggeri)- agar o‘tish 3- razryaddan 4- razryadga yuz bersa, u holda yordamchi o‘tish alomati $SU=1$, ushbu alomat o‘nlik tahrir ishtirokida o‘nlik sonlarni qo‘shish amalini bajarish paytida ishlatiladi, undan tashqari, SU alomati 4- razryadli so‘zlar ustida arifmetik va mantiqiy amallar bajarish paytida ishlatiladi.

Boshqaruv qurilma. U buyruqning birinchi bayti qabul qilinadigan buyruq registridan va alohida tarmoqda shakllantirilgan mikrodaftar ta‘siri asosida bajariladigan signallarni boshqaruvchi qurilmasidagi buyruq registridan tashkil topgan. Boshqaruvchi qurilmasi dasturlangan mantiqiy matritsada bajarilgan va alohida amallar mikrodesturi saqlanadigan boshqaruv hotirasidan tashkil topgan.

Biroq oldin aytib o‘tganimizdek, iste‘molchi boshqaruv hotirasini, demakki, buyruq tarkibini o‘zgartira olmaydi.


Bufer. Ma‘lumot va adres buferlari markaziy protsessorning tashqi ma‘lumot va adres shinalari bilan aloqasini ta‘minlaydi.

Buferlarning xususiyati shundan iboratki, ular har bir razryadda uch holatli mantiqiy elementni ishlatadi. Ularda mantiqiy 0 va mantiqiy 1 holatlaridan tashqari yana uchinchi holat, ya‘ni ularning chiqish qarshiligi deyarli cheksizlikka teng bo‘lib, mazkur shinadan uzilgan bo‘ladi. Bunday buferlarning ishlatilishi protsessorga tashqi shinalardan uzilib ularni tashqi qurilmalar ixtiyoriga topshirishni, shuningdek yagona shinani ham ma‘lumotlarni qabul qilishga (kirish shinasi sifatida qam) ham ma‘lumotlarni chiqarishga (chiqish shinasi sifatida ham) ishlatish imkonini beradi.

Shinalarning bunday ishlatilishi mikrosxemalarning chiqishlar sonini qisqartirishga imkon beradi.

3.47.-rasmda ichki va tashqi ma‘lumot shinalari o‘rtasidagi ikki tomonlama ma‘lumot almashuv jarayoni ko‘rsatilgan.

Tashqi ma'lumotlar shinasi



3.47.-rasm. Ichki va tashqi ma'lumot shinasining ikki tomonlama ma'lumot almashuv jarayoni.

Agar ma'lumotni qabul qilish bajarilsa, (ya'ni ma'lumot tashqi ma'lumot shinasidan ichki ma'lumot shinasiga uzatilsa) va uchinchi holatga o'tib, chiqish mantiqiy elementlari uziladi; ma'lumotni chiqarishda esa (ma'lumotni ichki shinadan tashqi shinaga uzatilsa), kirish mantiqiy elementlari uziladi.

Ma'lumotlar va buyruqlar formati. Ma'lumotlar operativ hotirada va protsessorda 8 razryadli ikkilik sonlar ko'rinishida saqlanadi. Shunday qilib, ma'lumotlar quyidagi formatga ega: Komandalar uchun bir, ikki, uch baytlik formatlar ishlatiladi.

Ikki baytli buyruqlarning birinchi baytida bajarilayotgan amal kodi ko'rsatiladi. Ikkinchi baytida amal bajarish operandi bo'lgan yoki ma'lumot almashish paytida kirish yoki chiqish qurilmasining tartib raqami bo'lgan son keltiriladi.

Uch baytli buyruqlarning bayti quyidagi vazifalarni bajaradi: birinchi baytda bajariladigan amal kodi beriladi, keyingi ikki bayt ikki baytli buyruq adresini belgilash uchun ishlatiladi (shartli va shartsiz o'tishlar, va qism dasturga murojat etish bajarilsa). Shuningdek operativ hotira yacheykasi adresi, ham ikki baytli operanddir. Barcha hollarda V2 –kichik bayt, V3 -yuqori bayt deb yuritiladi.

Mikroprotsessor buyruqlari

Mazkur MP (27 sinflar) barcha buyruqlari (244) 5ta gruppaga bo'linadi:

1. Kodlarni qayta jo‘natish buyruqlari, registralar yoki registr va xotira orasida ma‘lumotlarni qayta jo‘natishni ta‘minlaydi. Mazkur gruppada komandalari operatsiya natijalarini shakllantirmaydi.

3.14-jadval.

Buyruq mnemonikasi.

Buyruq mnemonikasi	Buyruq ta‘rifi	Bayt soni
MOV D?S	(D)←(S)	1
MVI D, data	D← data	2
LXI rp, data1, data2	D← data	3
LDA addr	A← addr	3
STA addr	addr ←A	3
LHLD addr	L← (addr),H← (addr+1)	3
SHLD addr	addr←L,(addr+1) ←H	3
LDAX rp	A←rp	1
STAX rp	rp←A	1
XCHG	H↔D,L←E	1

MOV M, r1

MOV r1, M

Bu holda (M) 16-razryadli adres xotira yacheykasida joylashgan bo‘ladi, u operatsiya kodida ko‘rsatilmaydi, registrlar juftligida H,L bo‘ladi.

2. Arifmetik buyruqlar, qo‘shish va ayirish, kodlarni 1 ga o‘zgartirish operatsiyalarini bajarilishini ta‘minlaydi. Bittasi binar operatsiyalar uchun aniqlangan va Ak da saqlanadi, boshqasi – registrda yoki xotira yacheykasida, natijasi esa qayta Ak ga joylashtiriladi. Manfiy sonlar arifmetik operatsiyalarni bajarilish jarayonida qayta o‘zgartirish zarur.

3.14-jadval(davomi)

ADDS	A←A+S	1
ADI data	A←A+data	2
ADC S	A←A+S+C	1
ACI data	A←A+data+C	2
DAD rp	(H,L) ←HL+(rp)	1
SUB S	A←A-S	1
SUI data	A←A-data	2
SBB,S	A←A-S-C	1

SBI data	$A \leftarrow A - \text{data} - C$	2
INR D	$D \leftarrow D + 1$	1
INX rp	$rp \leftarrow rp + 1$	1
DCR D	$D \leftarrow D - 1$	1
DCX rp	$rp \leftarrow rp - 1$	1
DAA		1

S-o'tkazishni nazorat qilish

B	0	0	0
C	0	0	1
D	0	1	0
E	0	1	1
H	1	0	0
L	1	0	1
M	1	1	0
A	1	1	1

ANA s	$A \leftarrow A \wedge S$	1
-------	---------------------------	---

O'nlik korreksiya

3. Mantiqiy operatsiyalar mantiqiy ko'paytirish va mantiqiy bo'lish, inkor etuvchi YoKI, inversiya, chap va o'ng siljishlar va h.k. Boshlang'ich operatsiyalar registrda yoki xotira yacheykalarida saqlanadi, Ak da rezervlanadi.

- JMP L00 – shartsiz o'tish ($Z=0$)
- JNZ L01 – nol natijada o'tish
- JZ L02 – nol natijada o'tish ($Z=1$)
- JNC L03 – nol siljishda o'tish ($C=0$)
- JC L04 – ko'chirish borligida o'tish ($C=1$)
- JPO L05 – natija toqligida o'tish ($P=0$)
- JP L06 – natija musbatligida o'tish ($S=0$)
- JM L07 – natija manfiyligida o'tish ($S=1$)

rp	kodi
B C	00
DE	01
HL	10
Sp	11

ANI data	$A \leftarrow A \wedge \text{data}$	2
XRA S	$A \leftarrow A + S$	1
XRI data	$A \leftarrow A + \text{data}$	2
DRA S	$A \leftarrow A \vee S$	1
ORI data	$A \leftarrow A \vee \text{data}$	2
CMP S	$A - S$	1
CPI data	$A - \text{data}$	2
RLS	$A_{n+1} \leftarrow A_n \quad A_0 \leftarrow A_7 \quad C \leftarrow A_7$	1
RRC	$A_n \leftarrow A_{n+1} \quad A_0 \leftarrow A_7 \quad C \leftarrow A_0$	1
RAL	$A_{n+1} \leftarrow A_n \quad C_0 \leftarrow A_7 \quad A_0 \leftarrow C$	1
RAR	$A_n \leftarrow A_{n+1} \quad C \leftarrow A_0 \quad A_7 \leftarrow C$	1
STC	$C \leftarrow 1$	1
CMC	$C \leftarrow \bar{C}$	1
CMA	$A \leftarrow \bar{A}$	1
JMP addr	$PC \leftarrow (\text{addr}) + 3$	3
CALL addr	$PC \leftarrow (\text{addr}) + 3$	3
RET	Dasturostidan qaytish	1
PCHL	$(PC) \leftarrow HL$	1

4. Boshqaruvni berish buyruqlari, bular ichiga boshqaruv berish murojatini shartsiz va shartli buyruqlari va dasturostidan chiqish kiradi. Buyruq ma'lumotlari operatsiya natijalari xususiyatlarini shakllantirmaydi.

5. Kiritish va chiqarish buyrug'i, stek xotiraga murojat qilish.

IN port	$A \leftarrow (\text{port})$	2
OUT port	$(\text{port}) \leftarrow A$	2
PUSH rp	$((SP)) \leftarrow rp$	1
PUSH PSW	$((SP)) \leftarrow (A)$	1
	(Z, S, P, C, AC)	

POP pr	(rp) ← ((SP))	1
POP PSW	(Z,S,P,C,AC)	1
	n(A) ← ((SP))	
XTHL	(HL) ← ((SP))	1
SPHL	(SP) ← (HL)	1
EI	O‘zilishga ruxsat berish	1
DI	O‘zilishga ruxsat berish	1
HLT	To‘xtatish	1

Buyruqda amal ko‘rinishidan tashqari ma‘lum bir amal bajarilish uchun amalda ishtirok etuvchi sonlar va amal bajarilish natijasi joylashtiriladigan o‘rni (boshqacha qilib aytganda, operandning qabul qiluvchisi va manbaasi) haqida ko‘rsatma saqlanishi kerak. Adreslash usullari deganda, operandning qabul qiluvchisi va manbasini ko‘rsatadigan usullar tushuniladi.

Registrlar adresi 3.15- jadvalda keltirilgan.

3.15-jadval.

Buyruqda ishlatiladigan registrlar adresi

Registr	Buyruqda ishlatiladigan registrlar adresi	Registr	Buyruqda ishlatiladigan registrlar adresi
B	000	H	100
C	001	L	101
D	010	M	110
E	011	A	111

Mikroprotsessordlarda quyidagi adreslash usullari qo‘llaniladi.

To‘g‘ridan- to‘g‘ri adreslash. Bu usulda operand adresi bo‘lib buyruqda (adreslash kodi baytida) ko‘rsatilgan mikroprotsessord registrlarining adresi bo‘lib xizmat qiladi.

M- deganda HL juft registrlar tarkibi adresi bo‘lib xizmat qiladigan operativ hotira yacheykasi tushuniladi.

Bu yerda mnemonika deganda buyruqni oson eslab qolishga yordam beruvchi qisqartirilgan belgini tushunamiz.

Buyruq mnemonikasi

Buyruq mnemonikasi	Buyruqning kodlar kombinatsiyasi	Bajariladigan amal
MOV C, D	01 001 010	C (D)
ADD D	10 000 010	A (A)-(D)

Buyruqning 01 001 010 kodlar kombinatsiyasining yuqori 01 ikki razryadi amal kodini (bir registr tarkibini ikkinchi registrga jo‘natish amalini), keyingi ikkita 3 razryadli (001 va 010) guruhlar S va D registrlar adresini bildiradi 10000010 buyruqda yuqori besh daraja (10000) bajarilayotgan amal (qo‘shish amali) kodi, kichik uch daraja (010) esa operand manbasi bo‘lib xizmat qilgan D registr adresini bildiradi.

qo‘shish amali bajarish paytida boshqa operand manbasi va qabul qiluvchisi bo‘lib A akkumulyator xizmat qiladi.

Bevosita adreslash. Adreslashning bu usulida operandlar (bir yoki ikkita) amal kodi operandidan keyingi ikkinchi yoki uchinchi baytda buyruq ichida bevosita beriladi.

Quyida bevosita adreslashning ayrim buyruqlariga misollar keltirilgan:

1) ADI	B1	11000 110	A.(A)-<B2>
	B2	01001 100	
2) MVID	B1	00010 110	D.<B2>
	B2	01001 110	
3) LXID	B1	00010 001	D.<B3>: E.<B2>
	B2	01100 101	
	B3	10100 101	

ADI mnemonikali buyruq uning ikkinchi baytida keltirilgan son bilan akkumulyator tarkibini qo‘shishni bajaradi (misolda bu son 4S N ga teng).

MVI komandasi uning ikkinchi baytida keltirilgan sonni (misolda bu son 4E N ga teng) adresli D5, D4, D3 razryadlarida ko‘rsatilgan D registriga jo‘natadi.

LXI komandasi uning ikkinchi va uchinchi baytlarda keltirilgan sonlarni (misolda bu sonlar 65 N va A5 N ga teng) DYe juft registrlarning muvofiq tarzda kichik va yuqori razryadlariga jo‘natadi.

Bu juft registrlar birinchi baytining D5, D4, D3 razryadlarida shu juft registrlar birining adresi 010 ko'rsatiladi.

Mavhum adreslash. Adreslashning bu usulida operativ hotirada joylashgan operand adresini bildiruvchi UMR(ROM) juft registrlar tarkibi beriladi (bu narsa ushbu juft registrlar birining adresini buyruqda berilish yo'li bilan amalga oshiriladi).

Mavhum adreslashli buyruqlarga misol keltiramiz.

- | | | |
|-----------|-----------|------------|
| 1) LDAX B | 00001 010 | A [(BC)] |
| 2) STAX B | 00000 010 | [(BC)] (A) |

Bu yerda [(BC)] yozuvi adresi VS juft registrlar tarkibi bo'lgan hotira yacheykasini bildiradi.

LDAX buyrug'i bo'yicha VS juft registrlar tarkibi operativ hotira adresi bo'lgan yacheykani akkumulyatorga joylashtiradi. (aynan shu juft registrnlarni tanlash uchun buyruqning D5, D4, D3 razryadlari S registrining 001 adresi bildiradi).

STAX B buyrug'i bo'yicha akkumulyator tarkibi VS juft registrlar tarkibidan kelib chikadigan yacheyka adresida eslab qolinadi (aynan shu juft registrnlarni tanlash uchun V registrdagi 000 adres buyruqning D5, D4, D3 razryadlarini bildiradi).

Uzilishlar yordamida boshqarish

KR580IK80A seriyasida qurilgan MPK xotira elementlari (qurilmasi) 66536ta bir baytli yacheykalardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Xotira yacheykalar soni chekli bo'lgani uchun tuzilayotgan dasturlar ham iloji boricha qisqa bo'lishi zarur. Buning uchun tuzilayotgan dasturning ko'p marta takrorlanadigan qismi yoki shu dasturning o'zi qism dastur tarzda ifodalanishi mumkin. U komandalar ketma-ketligidan tashkil topilgan bo'lib, uning bajarilishi asosiy dasturning istalgan joyidan chaqirilib istalgancha takrorlanishi mumkin. Qism dasturga boshqaruvning berilishi jarayoni chaqiruv deb ataladi. Qism dastur bajarilishidan va o'z ish jarayoni to'xtashidan hosil bo'lgan ma'lumot uning chiqish parametri deb ataladi.

Qism dasturni chaqirish va undan qaytish uchun CALL<A2><A1> va RET komandalaridan foydalaniladi. CALL<A2><A1> komandadagi <A2><A1> baytlar MP KISining dastur xisoblagichiga xotira yacheykalarining CALL (SD) kodidan keyin joylashgan ketma-ket yacheykalardan olib yuklanadi. <A2> bayt qaramog'idagi ma'lumot dastur xisoblagichining kichik baytiga PCLga yoziladi. Komandadagi

<A1>ning uchinchi bayti dastur xisoblagichining katta PCH baytiga yozilib, bundan MP KISining stekida qism dasturning ish jarayoni tugagandan so'ng asosiy dasturga avtomatik ravishda qaytish adres saqlanib turiladi.

Stek – EXMdagi berilgan ma'lumot va adreslarni vaqtincha saqlash uchun qo'llaniladigan OXKdagi maxsus tashkil qilingan qismdir. Stekka oxirgi yozilgan son birinchi bo'lib chaqiriladi.

RET qaytarish komandasi esa kaytish adresini stekdan chiqarib olib, dastur xisoblagichiga yuklaydi. Keyin esa asosiy dastur ishi shu yuklangan oxirgi adresdan davom ettiriladi. Barcha mavjud qism dasturlar RET komandasi bilan tugashi zarurdir.

Asosiy dastur adresi qism dastur bajarilishi jarayonida avtomatik tarzda saqlanishi va uning qayta tiklanishi qism dasturlarning ichida qo'shimcha qism dastur kiritish imkoniyatini yaratib, bunda bir qism dasturdan ikkinchisini chaqirish mumkin bo'ladi. Bunda joylashtirish satxi kichik-EXMning steki xajmi bilan cheklanadi.

Qism dasturlarni chaqirish va undan qaytish uchun yana shartli komandalar ham mavjud. Ular qism dasturlarni chaqirish va undan qaytish uchun holatlar registrining ba'zi bir holatlaridan foydalaniladi.


Qism dasturni chaqirish va undan qaytish komandalaridan tashqari stek bilan ma'lumotlar ayirboshlashni PUSH<P> (belgilangan MP KIS registridagi ma'lumotni stekka yozish) va POP<P> (ma'lumotni stekdan MP KISining belgilangan registriga ko'chirib yozish) komandalari bilan ham amalga oshirish mumkin. Bu komandalar bir baytli bo'lib, ularda MP KISining juft registrlari ko'rsatiladi.

Dasturlar ishlab chiqilayotganda avval stek chegarasi ko'rsatilib, LXI SP<A2><A> yoki SPHL komandalar orqali SP (stek kursatgichi) adresiga yozib qo'yiladi.

Stek bilan bajariladigan operatsiyalar teng bo'lmog'i zarur. Boshqacha aytganda, har bir qism dastur ichida PUSH<P> va POP<P> komandalari teng bo'lib, RET komandasi bilan tugashi kerak. Aks holda RET komandasining qism dastur oxirida bajarilishi dastur xisoblagichiga stekdan tasodifiy son yozilishiga olib keladi. Bu esa asosiy dasturga qaytish adresining yo'qolishiga va uning bajarilishining buzilishiga olib keladi.

3.47.-rasmda stek xotirasining ishlash jarayoni tushuntirilgan. Stekka A so'zi joylashtirilganda u birinchi bo'sh bo'lgan xotira yacheykasini egallaydi. Keyingi yozilayotgan so'z oldingi yozilib turgan

soʻzni bitta yuqori yacheykaga surib, oʻzi esa shu boshlagan joyni egallaydi va qolgan xollarda ham shu tartibda davom etadi. Sakkiz yacheykali stekka 8 soʻz N dan keyin yozilishi, stekning toʻlib ketishiga va A soʻzning yoʻqolishiga olib keladi. Stekdan malumot yozilgan soʻzlarni oʻqish teskari tartibdan yuz beradi, boshqacha qilib aytganda, oxirgi yozilgan N soʻzini oʻqishdan boshlanadi. Shuni aytish kerakki, Ye soʻzini tanlashni F soʻzini olmaguncha bajarish mumkin emas.



Stek choʻqqisi.


3.47.-rasm. Stek xotirasining ishlash jarayoni.

3.48.-rasmda oddiy kutish vaktini hosil qiluvchi qism dasturning algoritmi keltirilgan. Umumiy kutish vaqti quyidagi munosabat bilan aniqlanadi:

$$TD = t_1 + (t_2 + t_3 + t_4)N_1 + t_5$$

bu yerda N – xisoblagichga yozilgan birlamchi son.

Xisoblagich sifatida V registr tanlab olingan boʻlib, unga N1 soni S registrdan olib yoziladi.



3.48-rasm. Kutish vaqti hosil qiluvchi oddiy qism dasturning algoritmi.

Kuyida DLY kutish vaqti 6 – qism dasturi keltirilgan.

3.16-jadval .16-Qism dastur

Adres Mashina kodi Belgi Mnemokod Izox

0900 41 MOV B, C S registrdan V registrga on yozilsin.

0901 00 DLY: NOP Bo'sh operatsiya

0902 05 DCR B V registrdagi son qiymati 1 ga kamaytirilsin

0903 S2 01 09 JNZ DLY Agar V registrdagi son 0 ga teng bo'lmasa, DLYga o'tilsin

0906 S9 RET qaytish

NOP komandasi sikldagi bajarilish vaqtini uzaytirish uchun zarur bo'lishi bilan birga, u umumiy kutish vaqtini ham ko'paytiradi. NOP komandasi o'rniga boshqa komandalar ketma-ketligidan ham foydalanish mumkin bo'lib, faqat olingan komandalar mikroprotsessori registrlari ishini o'zgartirmasligi lozim. N1 sonining V registrga ish va $t_1 + t_5$ qism dasturdan chiqish vaqtlari aniq bo'lib, ular sikl vaqti ichiga kirmaydi. Keltirilgan qism dasturdagi minimal kutish vaqti $N1=0.1$ aniqlanadi va u

$$T_{dmin} = t_1 + t_2 + t_3 + t_4 + t_5 \text{ ga teng}$$

$N1=00$ bo'lganda maksimal kutish vaqtiga ega bo'ladi va u quyidagi munosabat orqali aniqlanadi

$$T_{dmax} = t_1 + (t_2 + t_3 + t_4)256 + t_5$$

17-dastur va 18-kism dastur yordamida sakkiz razryadli sonlarni qo'shishni amalga oshirish mumkin.

3.17-jadval .17 – dastur

Adres Mashina kodi Belgi Mnemokod Izox

0900 LXI H, 0940 Qo'shiluvchi sonlarning bosh

0903 LXI D, 0A10 adreslarini yuklang

0906 MVI C, 08 Xisoblagichni o'rnatish

0908 PUSH PSW A registr va holatlar qiymatini stekda saklash

0909 POP: CALL SLOG SLOG qism dasturni chaqirish

090S SUB A Akkumulator tozalash

090D DCR S Xisoblagichni 1 ga kamaytirish

090E JZ LOP Agar registr $S=0$ bo'lsa, unda LOP ga o'tilsin.

0911 INX H Keyingi qo'shiluvchilar juft-

0912 INX D ligi adreslarini tashkil etish

0913 JMP POP POP 0ga shartsiz o'tish

0916 LOP:POP PSW A registr va holatlar qiymatini stekdan chiqarish

0917 HLT Dastur oxiri

3.18-jadval. 18 – qism dastur

Adres Mashina kodi Belgi Mnemokod Izox

096S SLOG: MOV B,M Qo'shiluvchilarni xotiradan V registrga yuklash.

096D LDAX D D registridagi sonni chaqirish.

096E ADC B Ko'chirishni xisobga olib qo'shish.

096F STAX D Yig'indini ikkinchi qo'shiluvchi adresida saqlash.

0970 RET Asosiy dasturga qaytish.

4-BOB. MIKROPROTSESSORLARNING ISHINING PRINSIPI VA DASTURIY TA'MINOTI

4.1. Mikroprotsektor ishining sikllari va sinxronlashuvi

Ayrim mikroprotsektorlarda magistralning jismoniy enini toraytirish maqsadida manzil-ma'lumotlarning qo'shma shinasidagi (ingl. address/data bus) joriy etilib, ushbu shina orqali manzillar ham, ma'lumotlar ham uzatiladi. manzilga oid axborot uzatish bosqichi ma'lumotlar uzatish bosqichidan vaqt bo'yicha ajratilgan bo'lib, sv tarkibiga kiritilgan maxsus ale (ingl. address latch enable) signali vositasida stroblanadi. ushbu magistral, odatda, multipleks magistral yoki manzillar va ma'lumotlarning qo'shma shinasidagi bilan birgalikdagi ikki shinali magistral deb ataladi.

Ma'lumotlarning magistral orqali tabiiy almashinishi kanalga so'zlar yoki baytlar vositasida bir-biridan keyin amalga oshiriladigan murojaatlar ko'rinishida kechadi. magistralga murojaatlarning bitta sikli davomida mp, xotira qurilmasi va kiritish-chiqarish tizimi o'rtasida bitta so'z yoki bayt uzatiladi. almashinishning bir nechta sikllari mavjud. ular jumlasiga xotirani o'qish va xotiraga yozish sikllari kiradi.

Kiritish-chiqarish makoni izolyatsiya bo'lganida kiritish-chiqarish portini o'qish va kiritish-chiqarish portiga yozish sikllari qo'shiladi.

Magistralda, ishlash tezligi mzpning ishlash tezligidan past bo'lgan qurilmalar ishlab turgan ayrim holatlarda rd, wr va shu kabi boshqa stroblar davomiyligi chetdagi modul tomonidan almashinish operatsiyasi to'g'ri bajarilishi uchun yetarli bo'lmay qolishi mumkin. magistral operatsiya muvaffaqiyatli yakun topishini tashkillashtirish uchun cb tarkibiga maxsus ready signali kiritiladi. kanalga murojaatlarning har bir siklida rd yoki wr strobasidagi yakuniga yetishdan oldin mzp ready signalining holatini tekshiradi. agar ready ushbu fursatda hali uloqtirib yuborilmagan bo'lsa, mzp tegishli stroba muddatini unga ws (ingl. wait state) deb nomlanadigan kutish taktlarini o'rnatib, uzaytiradi. mikroprotsektorning ma'lum modeli va ish rejimiga bog'liq holda ws ning maksimal miqdori cheklangan yoki cheklanmagan bo'lishi mumkin.

Magistralda amalga oshiriladigan ishning oddiy rejimida faqat bitta faol qurilma ishlaydi, u ham bo'lsa, mzp bo'lib, magistralda kechiriladigan ma'lumotlar almashinuvining barcha sikllarini qo'zg'atadi. biroq,

shunday holatlar ham joizki, bunda ayni bitta magistralda bir nechta faol qurilma bo‘lib, ular ayni bir xotira va kiritishchiqarish bloklari bilan ishlashi darkor bo‘ladi. boshqa faol qurilma ma‘lumotlarni magistral bo‘ylab uzata olishi uchun mzpni vaqtincha dezaktivatsiya qilish zarur bo‘ladi. bu maqsadda aksariyat zamonaviy mikroprotssessorlar “bevosita xotiraga kirish” (bxk) deb nom berilgan rejimda ishlay oladi. ushbu rejim amalga oshishi uchun cb ga qo‘shimcha hold va hlda signallari kiritiladi. cb boshqaruv shinasining kirish qismiga hold ning faol sathi yetib kelganida mikroprotssessor o‘z dasturi ishining ijrosini to‘xtatadi, shinalarining chiqish qismlarini yuqori impedan holatga o‘tkazib, chiqish qismidagi faol sathni hlda ga havola etadi. bu esa, o‘z navbatida, magistral bo‘ylab almashinish siklini boshlash mumkinligi haqida boshqa faol qurilma uchun signal xizmatini o‘taydi. ushbu qurilma o‘z almashinish sikllarini nihoyasiga yetkazgach, hold signalini uloqtirib yuboradi. shundan so‘ng mzp o‘zining odatiy holatiga o‘tib, dastur ishini davom ettiradi.

Mikroprotssessor tizimidan dastur ishining me‘yoriy kechishini o‘zgartirish talab etiladigan boshqa ish rejimi ham mavjud bo‘lib, unga “uzilish” deb nom berilgan. zamonaviy mikroprotssessorlarning deyarli hammasi bitta yoki bir nechta int0, int1 va h. k. nomlanadigan tashqaridan uzib qo‘yadigan kirish qismlariga ega. ushbu kirish qismlariga tizimda muayyan hodisalar ro‘y berayotganligi haqida dalolat beruvchi signallar yetib keladi. mzp esa, o‘z navbatida, kelgan signallarga muayyan tarzda munosabat bildirishi lozim. bunday kirish qismlaridan biriga faol sathli signal yetib kelganida, mikroprotssessor, me‘yoriy tarzda kechayotgan dastur ishi uzilib, ishni to‘xtatishga sabab bo‘lgan komanda manzilini xotiraga saqlaydi va muayyan manzil bo‘ylab csegga yozilib qolgan “uzilishga ishlov berish kichik dasturi”ni (tqikd) bajarishga kirishadi. bunday kichik dastur manzili “uzilish vektori” deb nomlanadigan maxsus xotira uyasiga yozilgan. dastur ishini uzgan har bir alohida manba o‘z uzilish vektoriga ega. tqikdni bajarib bo‘lgach, protssessor, xotirada saqlangan manzil bo‘yicha tqikd ijrosi yakunlanadigan maxsus komandaga binoan ishi uzilgan dastur ijrosiga qaytadi. dastur ishi uzilishiga sababchi bo‘lgan manbalar jumlasiga ichki manbalar ham (ya‘ni, mikrosxemaning “uzilish so‘raladigan kirish qismlari” deb nomlanadigan kirish qismlaridan biriga kelishi), tashqi manbalar ham (ya‘ni, muayyan sharoitlarga ko‘ra protssessor ichida generatsiyalanishi) kirishi mumkin. bir vaqtning o‘zida bir nechta

turlicha uzilish so‘rovlari kelishi mumkinligi bois, bunday so‘rovlarning har biriga alohida xizmat ko‘rsatish izchilligini belgilaydigan muayyan tartib mavjud. uning ishini mzp ichida yoki maxsus kontoller vositasida joriy etilgan “uzilishlarning ustuvor arbitraj” tizimi ta‘minlaydi. mulohaza yuritilayotgan tizimga muvofiq dastur ishi uzilishiga sababchi bo‘lgan har bir manba, unga xizmat ko‘rsatilish navbatini belgilab beradigan o‘z ustunligiga (doimiy yoki o‘zgaruvchan ustunlikka) ega. bir vaqtning o‘zida bir nechta uzilish so‘rovlari kelgan paytda dastavval ustunlik darajasi yuqori, shundan so‘ng past darajali uzilish so‘rovlariga xizmat ko‘rsatiladi. ustunlik darajasi yuqori so‘rov asosiy dastur ishini qanday to‘xtatib qo‘ysa, ishi boshlangan past darajali uzilishga ishlov berish kichik dasturining ishini ham xuddi shu tariqa to‘xtatib qo‘yishi mumkin. ayni paytda “kiritilgan uzilish” deb ataladigan uzilish vujudga keladi. Cseg va dsegdan tashqari deyarli barcha zamonaviy mikroprotessorlar rseg (ingl. register segment) dasturiy-ochiq registrlar to‘plami deb ataladigan atayin ajratib qo‘yilgan kichik hajmli ma‘lumotlar makoniga ega. cseg va dsegdan farqliroq rseg registrlari mzp ichida, uning arifmetik-mantiqiy qurilmasining bevosita yaqinida joylashgan. bu esa, o‘z navbatida, ushbu registrlar ichidagi axborotga jismonan tez kirib borilishini ta‘minlaydi. rseg registrlari ichida, odatda, mzp tomonidan tez tez ishlatib turiladigan hisoblarning oraliq natijalari saqlanadi. rseg sohasi dsegning ma‘lumotlar makonidan to‘liq ajratilgan bo‘lishi yoki u bilan qisman kesishib o‘tishi yoxud uning tarkibiy qismi sifatida kiritilgan bo‘lishi mumkin. rsegning ichki mantiqiy tuzilishi turlicha bo‘lib, mikroprotessorlarning arxitekturasini tasniflashda muhim o‘rin egallaydi.

Mikroprotessor registrlari funksional jihatdan bir xil bo‘lmaydi, xususan: ularning bir turi ma‘lumotlarni yoki manzilga oid axborotni saqlash uchun xizmat qilsa, boshqa turi – mzp ishini boshqarish uchun xizmat qiladi. shunga muvofiq barcha registrlarni ma‘lumotlar registrlari, ko‘rsatkichlar va maxsus vazifalar bajaruvchi registrlarga farq qilish mumkin. ma‘lumotlar registrlari operandlar manbalari va natija qabul qilgichlar sifatida arifmetik va mantiqiy operatsiyalarda ishtirok etadi, manzil registrlari yoki ko‘rsatkichlar esa asosiy xotira qurilmasidagi ma‘lumotlar va komandalarning manzillarini hisoblab chiqarishda qo‘llaniladi. maxsus registrlar mzpning joriy holatiga indeks berish va tarkibiy qismlarining ishini boshqarish uchun xizmat qiladi. shunday arxitektura ham bo‘lishi joizki, ayni bir registrlar ma‘lumotlarni

ham, manzillarga oid axborotni ham saqlash uchun qo'llaniladi. bunday registrlar umummaqsadli registrlar (umr) deb ataladi. registrlarning u yoki bu turidan foydalanish usullari mp arxitekturasining muayyan xususiyatlarini belgilab beradi.

Ma'lumotlar registrlari orasida a (ingl. accumulator) akkumulator deb ataladigan registr ajralib turadi. ayni shu registr ma'lumotlarga arifmetik va mantiqiy ishlov berish jarayoniga qo'shiladi. bu esa, o'z navbatida, akkumulatorning ichidagi narsalar arifmetik va mantiqiy komandalar tomonidan operandlardan biri sifatida qo'llanilishi va amalga oshirilgan operatsiya natijasi ushbu registr ichida saqlanishini anglatadi. unga ishora operatsiya kodi yordamida amalga oshadi. bunda, komanda kodi ichida operand manzillari va natija uchun maxsus soha ajratilishiga zarurat bo'lmaydi. mp arxitekturasining bunday turi akkumulatorli arxitektura deb ataladi. ushbu arxitekturada kuzatiladigan kamchiliklar jumlasiga amalga oshadigan ishning nisbatan sust kechishini kiritish mumkin. bunday sustlik akkumulatorning "tor joy" deb e'tirof etilishi va har safar, operatsiyani bajarishdan oldin, akkumulator ichiga operandlar kiritilishi zarurligi bilan izohlanadi. ushbu arxitekturaga misol tariqasida intel firmasi tomonidan tayyorlangan mcs-51 oilasiga mansub mikrokontrollerlarni keltirish mumkin. Ma'lumotlar registrlarining boshqacha tuzilishi r0, r1 va h. k. rusumli "ishchi registrlar" deb nomlanadigan registrlar sanaladi.

Registrlarning bunday tuzilishida operandlar hamda arifmetik va mantiqiy operatsiyalar natijalari bir emas bir nechta registrda saqlanishi mumkin. bu esa, o'z navbatida, ma'lumotlar bilan manipulyatsiya qilish imkonini yanada kengaytiradi. yuqorida mulohaza yuritilgan akkumulatoridan farqliroq, ishchi registrlar komanda kodida manzil topadi. mp arxitekturasining bunday turi registrli arxitektura deb ataladi. arxitekturaning bunday tuzilishiga misol tariqasida intel firmasi tomonidan tayyorlangan 80x86 oilasiga mansub mikroprotsessornlarni keltirish mumkin. real vaqt miqyosida ishlash uchun mo'ljallangan bir qator mplarda ishchi registrlarning bir emas bir nechta to'plami bo'lishi ko'zda tutilgan. vaqtning har bir alohida fursatida registrlar to'plamlarining faqat bittasi ishlaydi. to'plamlardan birining tanlanishi tegishli axborotning muayyan xizmat registriga yozilishi bilan amalga oshadi. ushbu qurilmalarga misol tariqasida intel firmasining mcs-48 oilasiga mansub mikrokontrollerlarni keltirish mumkin.

Mikroprotsessorning ishida buyruqlarning bajarilishi ma'lum bir ko'rinishdagi sikllar asosida olib boriladilar. Buyruqning bajarilishi buyruq sikli asosida amalga oshirilib, ikki fazadan tashkil topgan bo'ladi:

1. Buyruqni tanlovi;
2. Tanlangan buyruqni bajarilishi.

Buyruqni tanlab olinish fazasi mikroprotsessorning barcha buyruqlari uchun bir xilda amalga oshiriladi. Yakuniy faza bu buyruqning bajarilish hisoblanib, bir qator buyruqlar uchun yagona ko'rinishda amalga oshiriladi va natijalar registrlardan bittasiga yoki akkumulatorga joylashtiriladilar. Buyruqlarning turli ko'rinishlarga ajratilishi buyruqning kodida aks ettiriladi, va shu yo'l bilan buyruqning dekodlashtirilish sxemasi anchagina soddalashtiriladi.

Mikroprotsessorning boshqaruv qurilmasi ikkita bir biriga bog'liq bo'lmagan qismlardan tashkil topgan bo'ladi:

1. Mikroprotsessori ichidagi jarayonlarni boshqaruvchi birlamsi avtomatdan;
2. Ogohlantiruvchi signallarga ishlov beruvchi va mikroprotsessori tizimining boshqaruv signallarini generatsiyalovchi sxemalar.


Birlamchi avtomat ishining muhim hususiyatlaridan bo'lib, bu uning algoritmi operandaning tayyorgarligini kutuvchi shartli operatorni o'z ichiga olishi hisoblaniladi. Bu ko'rinishdagi operatorning algoritmda paydo bo'lishi, mikroprotsessorni turli ko'rinishdagi tashqi tizimli xotira ko'rinishlari bilan (bevosita, to'g'ridan-to'g'ri yoki ketma-ket kirishli) ishlashga mo'ljallanganligi bilan izohlanishi mumkin bo'lib, ular turlicha murojat qilish vaqtlariga ega bo'ladilar. Bundan tashqari mikroprotsessori operanda uchun nafaqat xotiraga, balki asta sekinlik bilan o'zgaradigan tashqi kiritish chiqarish qurilmalariga ham murojat qilishi mumkin. Birlamchi avtomatning algoritmi sxemasida operandaning tayyorligini kutib turuvchi operatorning mavjud bo'lishining asosiy sabablaridan bo'lib, bu ma'lum bir buyruqni amalga oshiruvchi mikro buyruqlarning ketma-ketligi birlamchi avtomat tomonidan generatsiyalanadi va bu yerda faqatgina buyruqlar kodidan tashqari tashqi boshqaruvchi signallarning ta'siri ham bo'ladi.

Tizimni boshqaruv sxemasi kelib tushayotgan buyruqning kodidan kelib chiqqan holda, birlamchi boshqaruv avtomatining holatiga bog'liq ravishda, shuningdek boshqaruv shinasidagi xabar beruvchi signallarning qiymatlaridan kelib chiqqan holda boshqaruvchi

signallarni ishlab chiqaradilar, va ular tizimli ma'lumot almashinish muolajasini amalga oshiradilar.

Mikroprotsessorni taktilanishi va mikroprotsessori tizimini sinxronlashuvi

Mikroprotsessori boshqaruv avtomati buyruqning murakkabligiga bog'liq holda, buyruq siklini bir necha ichki mashina sikllari davomida amalga oshiradi. Eng oddiy holatda buyruq sikli 1-5 mashina sikllari mobaynida amalga oshiriladi. Mikroprotsessorda bitta mashina sikli bir marotaba xotiraga yoki kiritish chiqarish qurilmasiga murojat qilish uchun kerak deb hisoblaniladi. Buyruqning baytini tanlovi yoki manzilning har bir baytini, har bir ma'lumotning (shuningdek ularning shartli namoyish etilishi) tanlovi bitta mashina siklini talab etadi. Bu sikllarda bajariladigan operatsiyalarning bir-biriga o'xshashligi, ularning boshqaruv qurilmasi ishining algoritmining blok sxemaning turli joylarida joylashganliklariga qaramay, birlamchi avtomatning yordamida bitta buyruq sikli davomida bajarilishini imkonini beradi. Boshqaruv avtomatining effektivligi, mashina sikllari o'zgaruvchan uzunlikga ega bo'lishi orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, I8080 mikroprotsessorida har bir sikl 3-5 taktlardan iborat bo'lishi mumkin. Mikroprotsessorni tashqi generatoridan taktilanishi rasm 4.1 da ko'rsatilgan.



Mikroprotsessori tizimi tomonidan M mashina siklining boshi sifatida belgilanadi.

4.1-rasm. Mikroprotsessorning taktilashuv jarayoni.

Har bir mashina sikli tashqi generatoridan kelib tushuvchi taktilashuv signallarining juftligini F1 va F2 ni hosil qiladi. Har bir mashina siklining boshida birlamchi avtomat MPT sinxronlovchi signalni SYNC generatsiyalaydi. Har bir taktga T mikroprotsessori boshqaruv qurilmasining birlamchi avtomatining alohida holati mos keladi.

Keltirilgan mikroprotsessorning holatlari F1 va F2 signallarining takt chastotasi bilan bog‘liq bo‘lmaydi va ularning davomiyligi aniq bo‘lmaydi, sababi ular MP nisbatan tashqi hodisalarga bog‘liq bo‘ladi. Bu holatlar butun son ko‘rinishidagi taktlar davomida davom etadilar, va tugashi arafasida MPning taktlanishi amalga oshiriladi. Shundan kelib chiqqan holda MP har bir takti birlamchi avtomatning holatiga bog‘liq bo‘ladi. Standart ko‘rinishdagi mashina siklida uchtdan beshtagacha avtomat holatlari belgilanadi.

4.2. Mikroprotsessor tizimlarining interfeys katta integral sxemalari

MPT yoki mikro EHM, bundan tashqari mikroprotsessor tarkibiga ko‘llanilishiga qarab bir qancha doimiy va tezkor xotira qurilmalari, periferiya qurilmalari, ya‘ni, magnit disklari va lentalaridan iborat tashqi xotira qurilmalari; kiritish-chiqarishning turli xil qurilmalari kiradi. Bu holatda ushbu qurilmalar orasida aloqa va o‘zaro axborot almashish imkoniyati ta‘minlanishi kerak.

Axborotning protsessoridan va xotiradan periferiya qurilmasiga uzatilishi chiqarish operatsiyasi, periferiya qurilmasidan protsessor yoki xotiraga uzatilishi kiritish operatsiyasi deb ataladi.

MPT qurilmalari bir-biri bilan interfeys deb ataluvchi qarshiliklar yordamida bog‘lanadi.

Mikroprotsessorli tizim interfeyslari.

Interfeyslar – hisoblash tizimini qurishda funksional modullarni (qurilmalarni) tashkil etuvchi mikrosxemalar orasidagi o‘zaro bog‘lanishni tashkil etish uchun mo‘ljallangan. Shunga ko‘ra hisoblash komplekslarini tashkil etishda hisoblash mashinalari orasida o‘zaro bog‘lanishni tashkil etish uchun ham qo‘llaniladi.

Interfeyslar – MPT larning barcha funksional modullari orasidagi o‘zaro harakat qoidalarini reglamentlaydi, axborot almashuvi tartibi va protokollarini aniqlaydi va o‘zaroharakatni o‘rnatadi.

Interfeyslar konfiguratsiyasi quyidagi talablardan kelib chiqib ishlab chiqilgan:

- 1) Hisoblash tizimi bloklari orasida standart axborot almashinuvini ularning tezkorligiga bog‘lik bo‘lmagan holda tashkil etish va kerakli tezkor harakatning olinishi;

- 2) Mikroprotsessorli kompleks tuzilishining oddiyliigi va diagnozlash uchun imkoniyat mavjudligi;

3) Qo‘llanishning keng sohasi.

Mikrosxemalar chiqishlarining orasidagi elektrik bog‘lanishlar elektrik aloqalar yoki liniyalar bilan amalga oshiriladi.

Bu liniyalar tegishli funksional ko‘llanilishiga karab guruhlanadi va ma‘lumotlar shinasi MSh, adreslar shinasi ASh va boshqarish shinasi BSh ni tashkil etadi. Shinalar to‘plami – magistralni tashkil etadi. Interfeyslar funksional qo‘llanilishiga ko‘ra quyidagi prinsiplar bo‘yicha klassifikatsiyalanadi:

- funksional modullarni yaratish usuliga ko‘ra;
- ma‘lumotlarni uzatish usuliga ko‘ra – parallel, ketma-ket va ketma ket-parallel;
- ma‘lumotlarni uzatish rejimiga ko‘ra – bir yoklama, ikki yoklama, bir vaqtda yoki navbatma – navbat uzatish;
- axborot almashuv prinsipiga ko‘ra – sinxron, asinxron.

Interfeys – tizim kurilmalari orasida axborot almashishni ta‘minlovchi jarayon (protokol)lar algortmlari, elektron sxemalar, signallar, shinalar va liniyalar to‘plamini o‘zida namoyon etadi. MPT samaradorligi, ishonchliligi va foydalanish qulayligi nafaqat uning tarkibiga kiruvchi kurilmalar tavsifnomalari bilan, balki tizim qurilmalarini bog‘lovchi interfeyslarning katta darajasi bilan ham aniqlanadi.

Tizimni tashkil etadigan qurilmalar bajarilayotgan ishchi operatsiyalari harakatlarning fizik prinsiplari, foydalanilayotgan komanda va buyruqlar, boshqaruvchi signallar (kodlar) va ma‘lumotlar formatlari, axborotni uzatish tezligi bilan farqlanganligi uchun qurilmalar orasida axborot almashuv va o‘zaro bog‘liq harakatni sodda va samarali tashkil etish murakkablashadi. Tizim tarkibiga kiruvchi periferiya kurilmalari, shuningdek texnologik jarayon MPT bilan bog‘liq jihozlar bir-biriga nisbatan va protsessorga (dasturga) nisbatan asinxron ishlaydi va ular tomonidan axborot almashuv hamda aloqa o‘rnatishga bo‘lgan murojaatlar vaqtning istalgan paytida tug‘ilishi mumkin.

MPT kurilmalari orasida o‘zaro aloqa va axborot almashuvining tashkil etilishi quyidagilarni ta‘minlashi kerak:


- turli konfiguratsiyali (turli tuzilishga ega kurilmalar) MPT ni ko‘llash, tizimga yangi kurilmalarni apparaturada qandaydir o‘zgartirishlar bilan emas bu qurilmalarga xizmat ko‘rsatuvchi dasturni qo‘llash bilangina ko‘shish imkoniyati;

– periferiya qurilmalarida kiritish-chikarish operatsiyalari va protsessorda dastur bajarilishining bir vaqtning o‘zida parallel bajarilishi imkoniyati;

– kiritish-chiqarish operatsiyalarini dasturlashni u yoki bu periferiya kurilmalari xususiyatlarini hisobga olish zarurligini hisobga olmagan holda soddalashtirish va unifikatsiyalash.

Yuqorida ko‘rsatilgan talablar MPT qurishda xos bo‘lgan quyidagi arxitektura schimlari asosida amalga oshiriladi:

– MPT larni magistral-modulli tashkil etish; bunday tashkil etish shundan iboratki, bunda alohida MP qurilmalari unga mos keluvchi korpusga chiqishlari bilan o‘rab olingan KIS ni namoyon etadigan konstruktiv tugallangan modullar ko‘rinishida bajariladi va bu modullar tizimga axborot uzatish operatsiyalari vaqtida qurilmalar (modullar) bo‘yicha taqsimlanadigan umumiy shina (magistral) vositasi yordamida birlashadi.



4.2-rasm. MPT ning magistral-modulli strukturasi.

– Unifitsirlangan (XQ turiga bog‘liq bo‘lmagan) formatlar, axborotlarning interfeys orqali uzatilish operatsiyalarida ishlatiladigan kiritish-chiqarish komandalari va ma‘lumotlar formatlari;

– Komanda va ma‘lumotlarning unifitsirlangan formatlari alohida XQ ga tegishli bo‘lgan maxsus formatlar va spesifik buyruqlar (boshkaruvchi kodlar) va signallarga o‘zgartirish, Boshqarishning maxsus elektron bloklarida (adapterlari va kontrollerlarida) amalga oshiriladi. Bu bloklar orqali periferiya kurilmalari umumiy shinaga ulanadi. Unifikatsiya MPT larning bir qancha seriyalarida keng tarqalgan.

– Unifitsirlangan interfeys, shuningdek tarkibi va ko‘llanilishiga ko‘ra unifitsirlangan liniya va shinalar to‘plami, unifitsirlangan ulanish sxemalarni boshqarish algoritmlari va signallari.

MPT qurilmalari orasida interfeys orqali axborot uzatishning bir qancha usullari (rejimlari) mavjudligi XQ tavsifnomasini va uzatilayotgan xabarni tarkibini (alohida so‘z yoki so‘zlar to‘plami) hisobga oluvchi eng yaxshi rejimni tanlash imkonini berib, interfeysning foydalanishga kulayligini oshiradi.

MPT axborot almashishni tashkil etilishining muhim xususiyatlaridan biri ixtisoslashgan interfeysni KIS (to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat kontrolleri, uzilishlar kontrolleri, dasturlanuvchi periferiya adapteri, dasturlanuvchi aloqa adapteri, dasturlanuvchi taymer) dan foydalanish hisoblanadi.

Bu KIS protsessorni ma‘lumotlar formatlarini o‘zgartirish jarayonlarini boshqarish, uzatilayotgan baytni hisoblash kabi operatsiyalardan sezilarli darajada ozod qiladi. Interfeysli KIS larning dasturiy sozlash mumkinligi optimal va samaradorligi yuqori ma‘lumotlarni qayta ishlovchi va boshkaruvchi MPT larni kurishning keng imkoniyatlarini beradi.

MPT larda axborot uzatishni tashkil etishning 3 xil usuli ko‘llaniladi.


1) Protessor yordamida amalga oshiriladigan dasturiy-boshqaruvchi uzatish;

2) Periferiya kurilmasidan ajralishni so‘rash orqali amalga oshiriluvchi dasturiy-boshqaruvchi uzatish.

3) Xotiraga bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) murojaat (XBM)

a) dasturiy-boshqariluvchi uzatish;

b) xotiraga bevosita murojaat (XBM).



4.3-rasm. Axborot uzatishii tashkil etish usullari.

Dasturiy boshqariluvchi uzatishda soʻzlarning uzatilishi protsessor registrlari orqali bajariladi va protsessor dasturiga mos keluvchi komandalar bilan amalga oshiriladi.

Maʼlumotlar bloklarini tezkor kiritish-chikarish va mikroprotsessorlarni kiritish-chiqarish operatsiyalarini boshqarishdan ajratishda xotiraga bevosita murojaat qilishdan foydalaniladi.

Xotiraga bevosita murojaat TXQ va XQ orasidagi maʼlumotlar uzatish va aloqa oʻrnatishning mikroprotsessordan avtonom boʻlishini taʼminlaydigan maʼlumot almashuv usuli deb ataladi. Xotiraga bevosita murojaat MPT ning umumiy samaradorligi va axborotni kiritish-chiqarish tezligini oshirib ularni real vaqtdagi sistemalarda ishlashga qodirligini bir muncha oshiradi.

Dasturlanuvchi periferiya adapterlarining paydo boʻlishi periferiya kurilmalarini interfeysga ulanishini taʼminlovchi tizimlarni loyihalashga olib keldi, bunda apparaturani ishlab chiqarish sohasi dasturiy taʼminotni ishlab chiqarish sohasi bilan uygʻunlashadi.

Umumiy qoʻllaniladigan unifitsirlangan interfeysli KIS dasturlash hisobiga erishiladigan universal koʻllanishga ega boʻladi.


Dasturlanuvchi periferiya adapterlari qandaydir qoʻshimcha tashqi mantiqiy sxemalarsiz turli periferiya jihozlarining keng toʻplami uchun interfeysli KIS sifatida ishlatilishi mumkin.

Kiritish-chiqarish interfeyslari.

Tizim shinasini – magistralga tashqi qurilmalarning ulanishi kiritish-chiqarish kontrollerlari (KCh interfeyslari) deb ataluvchi elektron sxemalar vositasida amalga oshiriladi. Ular elektr signallari darajasiga mos boʻladi, shuningdek mashina maʼlumotlarini qurilma uchun zarur boʻlgan formatga qayta oʻzgartiradi yoki teskarisi. Odatda KCh kontrollerlari protsessor bilan birgalikda interfeysli plata koʻrinishida konstruktiv bajariladi. Kiritish-chikarish jarayonida axborot ikki koʻrinishda uzatiladi: boshqaruvchi soʻzlar (maʼlumotlar) va xususiy maʼlumotlar yoki maʼlumot-xabarlar. Protsessorning boshqaruvchi maʼlumotlari (ular komandali soʻzlar yoki alomatlar deb ham ataladi), maʼlumotlar uzatish bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan harakatlarni amalga oshiradi, masalan qurilmani ishga tushirish, uzish-ajratishni taʼqiqlash va b. Tashqi qurilmalardan uzatiladigan boshqaruvchi maʼlumotlar holat soʻzlari deb ataladi; ularda aniq alomatlar haqidagi axborotlar tashkil topadi, masalan kurilmaning maʼlumotni uzatish uchun tayyorligi, almashuv jarayonida xatolar mavjudligi. Holatlar

odatda dekodlangan shaklda namoyon bo‘ladi – har bir alomat uchun bir bit.

